S.Y.YUSUPOV,
SH.R.GULOMOV, N.B.NASRULLAYEV

RAQAMLI KRIMINALISTIKA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

S.Y.YUSUPOV,
SH.R.GULOMOV, N.B.NASRULLAYEV

RAQAMLI KRIMINALISTIKA

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

TOSHKENT – 2020

UDK: 004(075.8)
KBK: 32.973я722
Y-91

S.Y.Yusupov, Sh.R.Gulomov, N.B.Nasrullayev. Raqamli kriminalistika: o'quv qo'llanma. – T.: «Aloqachi», 2020, 240 bet.

ISBN 978–9943–6394–0–9

O'quv qo'llanma raqamli kriminalistikaning asosiy tushunchalari, vazifalari va ko'rinishlari, kompyuter jinoyatlarini tadqiq qilish va ekspert faoliyatida kompyuter texnologiyalari va kompyuter texnikalarini nazariy va amaliy asoslarini qo'llanilishi ifodalagan «Raqamli kriminalistika» nomi ostidagi fanning bo'limiga bag'ishlangan.

O'quv qo'llanma «Axborot xavfsizligi» va «Kriptologiya va kriptoanaliz» ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan magistratura talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, faoliyati axborot xavfsizligini ta'minlash va kompyuter jinoyatlarini tadqiq qilish bilan bog'liq bo'lgan mutaxassislarning keng doirasi uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

UDK: 004(075.8)
KBK: 32.973я722

Taqrizchilar:

Sevinov J.U. – texnika fanlari doktori, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti «Axborotlarga ishlov berish va boshqarish tizimlari» kafedrasi mudiri.

Musayev M.M. – texnika fanlari doktori, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti «Kompyuter tizimlari» kafedrasi professori.

Mas'ul muharrir:
A.A.Ganiyev.

ISBN 978–9943–6394–0–9

KIRISH

Oxirgi yigirma yillikda butun dunyoda kompyuter texnikasi va yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarning keng miqyosdagi o‘sishi kuzatilmoqda. Kompyuter texnikasidan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlar yuqori darajadagi latentlik va past darajadagi fosh etilish bilan xarakterlanadi, va bu “kompyuter jinoyatchiligi”ni juda foydali va yetarlicha xavfsiz ish sifatida ko‘rsatadi. Qayd qilingan kompyuter jinoyatlari va kompyuter bezoriliklarining sezilarli darajadagi zararlari sonining o‘sishi kuzatilmoqda. Oddiy bank o‘g‘riligida bir martada bir necha o‘n ming dollar atrofida olib ketiladi, vaholanki o‘rtacha bank axborot tizimiga kompyuter orqali buzib kirilishi bugungi kunda millionlab dollar zarar keltirmoqda.

Kompyuterlar, kompyuter tarmoqlari, raqamli texnikalar noqonuniy harakatlar obyekti bo‘lib bormoqda:

- noqonuniy buzib kirishlar, xakerlik hujumlari;
- ma’lumotlar bazasini modifikatsiyasi, buzilishi yoki yo‘q qilinishi;
- axborotni o‘g‘irlanishi yoki nusxalanishi;
- pul mablag‘larini o‘g‘irlanishi, to‘lov vositalari firibgarligi (bank-mijoz va boshqalar);
- viruslar va boshqa zararkunanda dasturiy ta’minotlardan foydalanish;
- shaxsiy kompyuterlardan hujumlarni va boshqa zararli harakatlarni boshqa shaxsiy kompyuterlar va lokal tarmoqlarda uyushtirish uchun foydalanish;

Bu jinoyatlarni tergov qilish bilan fanning “Raqamli kriminalistika” yoki ingliz tilida “Forenzika” deb nomlanuvchi bo‘limi shug‘ullanadi.

Respublikamizda axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bir qatorda xo‘jalik va davlat boshqaruvi organlarida raqamli kriminalistikaning vazifalari va predmeti, kriminalistikani tadqiq qilish vositalari va usullari hamda kompyuter jinoyatlarini sodir etish yo‘llariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu sababli ma’lumotlarni qayta tiklash, ma’lumotlarni va ma’lumot tashuvchilarni kompyuter ekspertizasi bo‘yicha sezilarli natijalarga erishildi hamda axborot xavfsizligi insidentlariga qarshi reaksiya rejasi va tergov bosqichlarini yaratish boshlandi. Shu bilan birga raqamli steganografiya vositalari va usullari va axborotni kiberjinoyatdan himoyalash yo‘llarini

takomillashtirish talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 8 fevraldagi “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida va 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida vazifalar belgilab olindi, shular qatorida «...axborot xavfsizligini ta’minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish» va kiber jinoyatchilikni fosh etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu vazifalarni amalga oshirish eng muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma kompyuter jinoyatlarini tadqiq qilish va ekspert faoliyatlarida kompyuter texnologiyalari va kompyuter texnikasini qo‘llashning nazariy va amaliy asoslarini o‘z ichiga oladi.

Qo‘llanmaning birinchi bobida raqamli kriminalistikaning vazifalari, ko‘rinishlari va asosiy tushunchalari, uning qo‘llanilish sohasi, kriminalistikani tadqiq qilish usullari hamda qidiruv usullari, raqamli dalillarni aniqlash va ta’minlashga qarshilik qilish – kontr-forenzika masalalari ko‘rib chiqilgan. Maxsus texnik vositalar, kriminalistik fototasvirlar va videoyozuvlar hamda kriminalistik axborot tizimlaridan iborat raqamli kriminalistika vositalari keltirilgan.

Ikkinchi bobda kompyuter jinoyatlarining asosiy yo‘nalishlari, kompyuterlar ishlariga aralashishlar va kompyuterlardan kerakli texnik vosita sifatida foydalanish bilan bog‘liq ularning toifalari, Interpolning Bosh Sekretariati kodifikatori bo‘yicha kompyuter jinoyatlarining klassifikatsiyasi, kompyuter jinoyatchilarining ko‘rinishlari ko‘rib chiqilgan. Kompyuter jinoyatlarini sodir etish yo‘llari va kompyuter jinoyatlarini turli ko‘rinishlari keltirilgan.

Qo‘llanmaning uchinchi bobida kompyuter jinoyatlarini ogohlantirish choralarining asosiy guruhlari keltirilgan, kompyuter jinoyatlarining katta qismi tashkilot va korxonalarda tashkiliy choralarning yetishmovchiligi, ma’lumotlarni ruxsatsiz kirishdan kuchsiz himoyalanganligi, maxfiylikning yetarli emasligi, xodimlarning kuchsiz tekshiruvi va ko‘rsatmasi oqibatida sodir etilishi ko‘rsatilgan. Kompyuter jinoyatlarini ogohlantirish mexanizmlari va ikki tashqi va ichki toifaga ajratilgan jinoyat izlarini tadqiq qilish keltirilgan.

To‘rtinchi bob insidentlarni boshqarishdagi murakkabliklar, hujum oqibatlari, sabablari va ularning paydo bo‘lish yo‘llarini aniqlanuvchi insidentlarni tadqiq qilish masalalarini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. Insident toifalari va klassifikatsiyasi hamda axborot xavfsizligi

insidentlarini namunaviy tahlillash tadqiq qilinadi. Klassik steganografiya yo‘nalishi – xabarlarni yashirin yuborish tizimiga qarshi hujumlar toifalari va qo‘shimcha axborotlarni raqamli obyektlarga joriy qilish yoki yashirishga asoslangan raqamli steganografiya ko‘rib chiqilgan.

Beshinchi bobda kompyuter vositalari va tizimlarini kriminalistik tadqiq qilish, ular natijasida olingan axborot, kompyuter-texnik ekspertizalar ko‘rinishlarida dalil sifatida ishlatilishi mumkinligi ko‘rib chiqiladi. Bu yerda ikkita ekspert tizimlari – tez, stabil va erkin foydalanish uchun yaratilgan, sud organining raqamli yechimni yagona izohlovchi va raqamli kriminalistikada foydalaniluvchi sud organi to‘plami instrumentlari (FTK) va ikkinchisi esa ekspertlarga tayyor filtrlar va modullar keng spektri yordamida ma’lumotlarni yozish, axborotni kriminalistik tahlillash yo‘li bilan potensial dalillarni aniqlash va olingan dalillar ishonchliligi va butunliligini saqlagan holda olingan natijalar haqida to‘liq hisobotlarni tayyorlash imkonini beruvchi kompyuter ekzpertizalarining barcha bosqichlarini o‘tkazish uchun (EnCase Forensic) texnologiya va dasturlari.

Oltinchi bob zamonaviy kiber jinoyatchilik muammolariga bag‘ishlangan, kiber jinoyatchilik o‘sishining asosiy sabablari va kiber jinoyatlar hisoblanuvchi faoliyatlar keltirilgan. Kiber jinoyatchilikni ogohlantirish sohasidagi yondashuvlar va usullar, tashkiliy ishlar, tamoyillar ko‘rib chiqilgan.

O‘quv qo‘llanma 5A330302 - «Axborot xavfsizligi» va 5A330301 -«Kriptografiya va kriptoanaliz» mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olayotgan magistratura talabalari uchun tavsiya etiladi, hamda faoliyati axborot xavfsizligini ta’minlash va kompyuter jinoyatlarini tadqiq qilish bilan bog‘liq bo‘lgan mutaxassislarning keng doirasi uchun ham foydali bo‘lishi mumkin.

1. RAQAMLI KRIMINALISTIKA TUSHUNCHASI, VAZIFALARI VA VOSITALARI

1.1. Raqamli kriminalistikaning asosiy tushunchasi

So‘nggi yuz yillikning 70-yillarining oxirlarida yuridik adabiyotlarda barcha kompyuter axboroti, axborot texnologiyalari bilan bog‘liq jinoyatlarning yangi ko‘rinishlari paydo bo‘layotgani haqida fikrlarni aniq bildira boshlashdi. Bunga muvofiq bu ko‘rinishdagi jinoyatlar bilan kurashishga yo‘naltirilgan maxsus usullar va vositalarni qamrab oluvchi kriminalistikaning yangi yo‘nalishi shakllana boshlandi.

Shu bilan birga ushbu sohada jinoiy-huquqiy nazoratlash malakasini yo‘qligi, texnik jihatlarni tushunishdagi qiyinchiliklar va bu ko‘rinishdagi jinoyatlarning o‘ziga xosligi uzoq vaqt kriminalistika bo‘yicha adabiyotlarda bir vaqtning o‘zida bir nechta uning nomlari mavjud bo‘lishiga olib keldi: «axborot jinoyatlari», «kompyuter jinoyati», «yuqori texnologiyalar sohasidagi jinoyat», «kommunikatsion jinoyat», «tarmoq jinoyati», «mashina-intellektual yoki texnik-intellektual jinoyat».

Ushbu hosil bo‘lgan vaziyatga javob variantlaridan biri N.N.Fedotovning sud dalillarini yig‘ish uchun atrof holatni tadqiq qilishning texnologik usullari va ilmiy fanlarni butun sohasini o‘rganuvchi fan - «forensic science» yoki «forensic» so‘zidan hosil bo‘lgan «computer forensic» ingliz termini - «forenzika» tushunchasini kiritish haqidagi taklifi bo‘ldi.

Shunday qilib, ***«Raqamli kriminalistika»*** yoki ***«forenzika»*** termini lotin tilidan olingan «foren» so‘zi bo‘lib, «forum oldidan so‘z», ya’ni sud, sud bahsi oldida chiqish deganidir. Bu fan kompyuter jinoyatlarini aniqlash va fosh etish, foydalanilayotgan vositalar haqida tizimli uzilishlarni tadqiq qilish va axborotni yig‘ish dalillarini olish yo‘llari haqidadir.

Raqamli kriminalistika (digital forensics) – kompyuterlar, ma’lumotlarni saqlash tizimlari, kompyuter tarmoqlarida, mobil va boshqa raqamli qurilmalarda joylashgan raqamli dalillarni yig‘ish va jinoyatlarni (insidentlarni) tadqiq qilish haqidagi amaliy fan, kriminalistikaning bir bo‘limi.

Raqamli kriminalistika masalalari bu raqamli dalillarni saqlash, identifikatsiya qilish, olish va hujjatlashtirish hisoblanadi.

Raqamli jinoyat:

– raqamli texnikaga qarshi yo‘naltirilgan jinoyat;

– raqamli texnika dalillarni saqlab qoluvchi jinoyat;

– raqamli texnika yordamida amalga oshiriluvchi jinoyat.

Forenzikaning qo‘llanilish sohasi: kompyuter axboroti tajovuz obyekti, kompyuter esa jinoyatni sodir etish quroli, hamda qandaydir raqamli dalillar kabi shakllanuvchi hodisalarni tadqiq qilish. Avvaliga kompyuter jinoyatlari uch yo‘nalishi ajratilgan:

– kompyuterni, hisoblash tizimini yoki kompyuter tarmog‘ini pul, mulk yoki xizmatlarni olish maqsadida foydalanish yoki foydalanishga urinish;

– kompyuter, hisoblash texnikasi, kompyuter tarmoqlari yoki ulardagi matematik ta’minot, dasturlar yoki axborotni o‘zgartirish, zarar yetkazish, yo‘q qilish yoki o‘g‘irlash maqsadida qasddan qilingan ruxsatsiz harakat;

– kompyuterlar, hisoblash tizimlari yoki kompyuter tarmoqlari orasidagi aloqalarni qasddan ruxsatsiz buzish.

So‘nggi yillarda insidentlar soni geometrik progressiya bo‘yicha oshmoqda, quyidagi terminlar almashdi: «axborot jinoyati», «axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyat», «kiberjinoyat» va hozirda kompyuter jinoyatlarini uch yo‘nalishga ajratiladi:

– axborot xavfsizligiga qarshi jinoyat;

– elektron axborot boshqa jinoyatni sodir etish vositasi sifatida hisoblanuvchi jinoyat;

– kompyuter va boshqa elektron texnikadan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyat.

Kompyuter jinoyati milliy va iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi va 70-yillardan boshlab ilg‘or davlatlarda kompyuter jinoyatlari bilan kurashish bo‘yicha maxsus bo‘limlar yaratilmoqda, oliy ta’lim muassasalarida axborot jinoyatlarini tadqiq qilish usuli bo‘yicha kurslar o‘qilmoqda.

Bu kurslar kompyuter jinoyatchiligi bilan kurashishning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini qamrab oladi:

1. Insidentlarga reaksiya qilish (Incident response)
2. Insidentlarni tergov qilish (eDiscovery)
3. Raqamli kriminalistika (Digital Forensic)
4. Insidentlar monitoringi (Monitoring Incidents).

Raqamli kriminalistika kompyuter jinoyatlarini tergov qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mutaxassis-kriminalistlar o‘z

ishlari davomida ularga insident sababini va xronologiyasini o‘rnatish, hujumni amalga oshirish maqsadlari va usullarini aniqlashtirish hamda aloqador shaxslarni ko‘rsatish imkonini beruvchi maksimal ma’lumotlarni tahlil qiladi.

Raqamli axborotni tashuvchilarni tahlillash vaqtida mutaxassislar hodisalar xronologiyasini qayta tiklashadi; fayl tizimlari, operatsion tizimlar, ilovalar jurnallarini tahlillaydi; operatsion tizim reyestri kalitlarini o‘rganishadi; zararkunanda dasturiy ta’minot yo‘qligiga tashuvchini tadqiq qilishadi. Yana kompyuter kriminalistika doirasida maxsus yo‘nalishni - funksional, zararkunanda dasturlar ishining algoritmi va tarmoq aloqalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan virusli analitikani ham ta’kidlash lozim.

Raqamli kriminalistikani qo‘llash sohalari:

1. Kompyuter axboroti tajovuz obyekti, kompyuter esa jinoyatni sodir etish quroli, hamda qandaydir raqamli dalillar kabi shakllanuvchi jinoyatlarni tadqiq qilish va fosh etish.

2. Dalillar kompyuter axboroti ko‘rinishiga ega bo‘lganda fuqarolik ishlari uchun dalillarni yig‘ish va tadqiq qilish. Ayniqsa bu huquqlar obyekti kompyuter axboroti ko‘rinishida – EHM uchun dastur, raqamli shaklda, Internet tarmog‘idagi tovar belgisi, domen nomi va shu kabilar tarzida ko‘rsatilganda ayniqsa intellektual mulk huquqlarini buzilishi haqidagi ishlar bo‘yicha dolzarbdir.

3. Sug‘urta obyekti kompyuter axboroti ko‘rinishida ko‘rsatilgan yoki bunday obyekt bo‘lib axborot tizimi hisoblanganda sug‘urta firibgarligi, shartnoma shartlarini buzilishiga tegishli sug‘urta kompaniyalari tomonidan o‘tkaziladigan sug‘urta tadqiq qilish ishlari.

4. Axborot tizimlariga tegishli xavfsizlik insidentlarini korxona ichki tadqiq qilish ishlari, hamda tijoriy sir va boshqa maxfiy ma’lumotlardan iborat axborotni chiqib ketishini oldini olish bo‘yicha ishlar.

5. Dushman axborot tizimi va shaxsiy tizim himoyasiga ta’sir o‘tkazish jarayonida kompyuter axborotini izlash, yo‘q qilish va qayta tiklash bo‘yicha harbiy va razvedka vazifalari.

6. Fuqarolarning elektron ko‘rinishdagi shaxsiy axborotini himoyasi bo‘yicha vazifalar, bu elektron hujjatlar va axborot tizimlari bilag bog‘liq bo‘lganda o‘z huquqlarini himoyalash.

Ko‘plab bu ilovalarda forenzikaning ba’zi usullari axborotni texnik himoyasi usullari bilan juda mustahkam integratsiyalangan.

Shunday qilib, **«Raqamli kriminalistika»** yoki **«Forenzika»** kompyuter axboroti bilan bog‘liq jinoyatlarni tadqiq qilish va fosh etish haqidagi, kompyuter axboroti shakliga ega dalillarni tadqiq qilish va olish usullari haqidagi, bu uchun qo‘llaniladigan texnik vositalar haqidagi amaliy fan hisoblanadi.

1.2. Raqamli kriminalistikaning turlari

Raqamli kriminalistikani uch turga ajratish mumkin (1-rasm):

«Kompyuter kriminalistikasi» - bu ilm va san’at, u qayta tiklash uchun maxsus usullardan foydalanishni, kompyuter jinoyatlari bilan bog‘liq elektron ma’lumotlar tahlili va haqiqiyligini tekshirishni talab etadi. Unda qonun bilan kompyuter ilmlari, axborot texnologiyalari va boshqa texnik masalalar birlashtiriladi.



1- rasm. Raqamli kriminalistikaning turlari

«Tarmoq kriminalistikasi» - ancha oldin paydo bo‘lgan va xavfsizlik tahlili bo‘yicha mutaxassislar ancha yillardan beri Wireshark va boshqa trafik analizatorlaridan foydalanishadi. Birinchidan, foydalanuvchilar maksimal tezroq shubhali harakatlarni aniqlash maqsadida tarmoq kriminalistikasi vositalariga faolroq tayanadigan bo‘lishdi. Ikkinchidan, xavfsizlik tizimlari ishlab chiquvchilar bunday shubhali harakatlarni aniqlash bo‘yicha ixtisoslashgan yechimlar yaratishdi.

«Mobil kriminalistika» - uyali aloqa mavzulariga qo‘llaniluvchi – mobil qurilmalarning raqamli ma’lumotlarini olish va dekodlash imkoniyati.

Kompyuter vositalari va yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarning o‘sishi 2-rasmda keltirilgan faktorlar bilan tushuntiriladi. Kompyuter texnika vositalari va yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarning turi va soni doimiy o‘smoqda. Bunday jinoyatlarni sodir etishda tajovuz qilish predmetlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

– kompyuter texnikasining o‘zi va axborot;

– kompyuter texnikasi va axborotdan jinoiy tajovuz qilish quroli kabi foydalanilib hujum qilinilishi mumkin bo‘lgan obyektlar.

Axborot vositalarining qo‘llanilishi bilan sodir etiladigan barcha jinoyatlarni mos holda to‘rt guruhga ajratish mumkin (3-rasm):



2- rasm. Kompyuter vositalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarning o‘sish tuzilmasi

Mulkka qarshi jinoyatni sodir etishda – o‘g‘irlash, yo‘q qilish, zarar yetkazishda jinoiy tajovuz predmeti sifatida kompyuter texnikasi xizmat qiladi. Tajovuz qilish predmeti sifatida texnik vositalarning o‘zi moddiy ob’ekt kabi xizmat qiladi. Kompyuter texnikasi va axborot jinoyat sodir etish vositasi sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Bu ma’noda kompyuter qurol yoki transport vositasi sifatida jinoyat quroli kabi bir qatorda ko‘rilishi mumkin.



3- rasm. Axborot vositasidan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlar sxemasi

Sodir etishda qurol sifatida kompyuter texnikasi va axborot qo‘llaniladigan keng tarqalgan jinoyatlarga turli qurilmaviy-dasturiy vositalardan (masalan, zararkunanda dasturlar) foydalanilib mulkning bu ko‘rinishiga avtomatlashtirilgan ma’lumotlar bankiga o‘zgartirishlar kiritish yo‘li bilan moddiy vositalarni o‘g‘irlash, ikkinchidan moddiy axborot tashuvchilarni o‘g‘irlanishi bilan bog‘liq jinoyatlar kiradi.

1.3. Raqamli kriminalistikaning vazifa va predmetlari

Raqamli kriminalistika texnik, huquqiy xarakterdagi va kadrlarni tayyorlash sohasida quyidagi muammolarga ega:

1. Texnik:

– raqamli tashuvchilardan ma’lumotlarni olish;
– axborotni qayta tiklash;

– ma’lumotlarni izlash, tahlillash va intrepretatsiyalash;
– raqamli dalillarni saqlanuvchanligini ta’minlash.

2. Huquqiy:

– yig‘ilgan ma’lumotlarni isbotlanuvchanligi;
– meyoriy baza.

3. Mutaxassislar tayyorgarligi:

– raqamli tizimlar ishining fizik tamoyillarini va kompyuter kriminalistikasi vositalarini bilish;
– texnik va huquqiy tomonlarini bilish.

Ma’lumotlarni olish:

1. Ruxsat etilmagan ma’lumotlarni nusxalash (ma’lumotlarni tasodifiy va atayin modifikatsiyalash imkoniyati).
2. Nusxani originalga mos kelishi (xeshlash, xesh-funksiya tanlovi).
3. Nusxaning to‘liqligi (buzilgan ma’lumotlarning «yashirin» va zahira sohasi).
4. Nusxalash tezligi (ma’lumot yig‘uvchilarni katta hajmi).
5. Nusxaning saqlanganligi. Ish jarayonida ishlash, transportirovka, nusxalarni saqlash.
6. Ma’lumotlarni himoyalash, axborotni chiqib ketishini oldini olish.

Ma’lumotlarni qayta tiklash:

1. Buzilgan ma’lumotlarni qayta tiklash.
– apparat va dasturiy xatolar;
– zararkunanda DT ta’siri;
– foydalanuvchilarning xatoligi va atayin harakatlari.
2. «Yopiq» ma’lumotlarni qayta tiklash.
– parol bilan yopilgan ma’lumotlar;
– kodlashtirilgan va shifrlangan ma’lumotlar;
– «yashirin» sohalardagi ma’lumotlar.
3. Ma’lumotlarni saqlash tizimidan qayta tiklash.
– RAID tizimlari va tashqi DAS tizimlari;
– NAS tarmoq ombori;
– ma’lumotlarni virtual va taqsimlangan ombori.
4. Ma’lumotlarni saqlashning turli texnologiyalari.
– ma’lumot saqlovchilarni toifalari;
– interfeyslar;
– ma’lumotlar saqlashni tashkillashtirish yo‘llari.

Bu muammolarga muvofiq raqamli kriminalistika quyidagi vazifalarni yechadi:

– kompyuter axboroti bilan bog‘liq harakatlar va tezkor-qidiruv tadbirlari (TQT) taktikasini ishlab chiqish;

– kompyuter jinoyati dalillarini tadqiq qilish va yig‘ish uchun apparat va dasturiy vositalar, usullarni yaratish;

– kompyuter axboroti bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning kriminalistik xarakteristikasini o‘rnatish.

Forenzika bo‘yicha mutaxassis ishlashiga to‘g‘ri keladigan deyarli barcha izlar doimiy yoki salbiy kompyuter axboroti ko‘rinishiga ega. Ularni yo‘q qilish etarlicha oson – ham qasddan, ham tasodifan. Ularni qalbakilashtirish oson, «qalbaki» bayt «haqiqiysidan» farqlanmaydi.

Raqamli dalillarni qalbakilashtirilishi axborotni mazmuni bo‘yicha yoki boshqa joylarda qoldirilgan axborot izlari bo‘yicha aniqlanadi. Raqamli dalillarni bevosita inson sezgi organlari orqali qabul qilish mumkin emas, biroq faqatgina murakkab qurilmaviy-dasturiy vositalar orqaligina qabul qilish mumkin. Shuning uchun ham bu izlarni boshqa shaxslarga – prokurorlarga, sudyalarga tushunarli qilib ko‘rsatish qiyin. Har doim ham ularni saqlashda izlarni o‘zgarmasligini ta’minlash oson emas. Nafaqat ta’minlash, balki sudyaga buni o‘zgarmasligini isbotlash ham. Umuman, «o‘zgarmaslik» tushunchasi kompyuter axborotiga tor holatdagina qo‘llaniladi. Ba’zi bir ma’lumot tashuvchilarda ular rostdan ham statik – tashuvchi sohalarini turli magnitlanishi ko‘rinishida yoki uning optik xususiyatlarini turi ko‘rinishida saqlanadi. Biroq boshqa holatlarda axborotni saqlash usullari shundayki, ma’lumot tashuvchini doimiy almashinuvini ko‘zda tutadi.

Kompyuterning tezkor xotirasi bir necha millisoniyada regeneratsiyalanadi. Ya’ni u yerda yozilgan signallar o‘chiriladi va yana qayta yoziladi. Ko‘plab aloqa kanallari bo‘yicha yuborishda yuzaga keluvchi xatoliklar hisobida xalaqitga bardoshli kodlashtirishdan foydalaniladi; bu xatoliklar paydo bo‘lishidan qochib bo‘lmaydi, biroq kod ortiqchaligi hisobiga qabul qiluvchi tomonidan tuzatiladi. Markaziy protsessorda ham doimiy ravishda arifmetik-mantiqiy operatsiyalarni bajarishda xatoliklar bo‘ladi, biroq ular juda ham ko‘p bo‘lmasa ichki diagnostika sababli tuzatiladi. TCP (Transmission Control Protocol, yuborishni boshqarish protokoli) kabi tarmoq protokollarida bu ishonchlilik yo‘lda yo‘qolgan datagrammalar yoki boshqa axborot bloklari ularning to‘g‘ri qabuli tasdiqlanmaguncha oldindan yuborilishi hisobiga erishilgan.

Raqamli kriminalistikaning **predmetlari** quyidagilar:

– Axborot texnologiyalari – ham jinoyatlarni oldini olish uchun, ham ularni sodir etish uchun foydalanish imkoniyati.

– Amaliy dasturiy ta’minotni o‘rganish usullari.

– Kriminal amaliyot – jinoyatlarni sodir etish yo‘llari va qurollari, ularning oqibatlari, qoldiradigan izlari, jinoyatchining shaxsi.

– Kompyuter jinoyatlari bo‘yicha tezkor, jinoiy va sud amaliyoti.

– Tizim ishini tadqiq qilish usullari.

Umuman jinoyatchilikka forenzikaning ta’siri bir necha yo‘llar bilan bo‘lishi mumkin:

– axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi kelajakda o‘zini yangi munosabatlari va yangi jinoyatlarini bilan ko‘rsatuvchi sun’iy ongni paydo bo‘lishini nazarda tutadi;

– yaqindagina axborot texnologiyalarining natijasi umuman qo‘riqlanmagan edi, hozirda vaziyat doimiy o‘zgarmoqda, masalan, domen nomi himoyalangan va intellektual mulk obyekti hisoblanadi;

– firibgarlik yo‘llari va tamoyillar o‘zgargan, biroq mohiyati o‘shaligicha qolgan: firibgarlikning ba’zi toifalari mohiyatini saqlab qoldi, biroq real muhitdan virtual muhitga o‘tdi.

Ilg‘or texnika va texnologiyalarning jinoyatchilikka ta’siri uch yo‘l bilan bo‘lishi mumkin:

Birinchidan, texnik progress jinoyatni yangi yo‘llar bilan va yangi qurollar yordamida sodir etish imkoniyatini beradi. Tabiiyki, shu yo‘sinda texnik progress jinoyatlarni fosh etishni yangi yo‘llarini paydo bo‘lishiga olib keladi – ham eskisini, ham yangisini. Masalan, o‘sha eski firibgarlik bizning asrda Internet tarmog‘i yordamida sodir etilmoqda. Biroq firibgarlikda dahl qilish predmeti va mohiyati o‘shaligicha qolmoqda. Yangilik faqat sodir etish quroli xolos – veb-sayt, elektron pochta, to‘lov tizimi.

Ikkinchidan, axborot texnologiyalarining natijalari jinoiy tajovuz qilish predmeti bo‘luvchi tamoyilan yangi ommaviy munosabatlarni paydo qiladi. Bunda tajovuz qilish yo‘li va quroli AT natijalarini hisobga olgan holda ham eski, ham yangi bo‘lishi mumkin.

Eng yorqin misol – domen nomi. Domen nomini berish huquqi kabi bunday ommaviy munosabat yaqingacha mavjud emas edi. Tajovuz qilish ham yo‘q edi. Hozirda domen nomi qonun bilan qo‘riqlanadi (ular intellektual mulk obyektiga kiritilgan).

Uchinchidan, AT rivojlanishi shunchaki yangi ommaviy munosabatlarnigina emas, balki bunday munosabatlarning yangi subyektini ham paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Kompyuter uchun dastur hali huquq subyekti sifatida qaralmayapti, biroq ba’zida tabiat kuchi sifatida qaralmoqda. Dasturlarga farovonlik va hattoki inson hayotiga sezilarli ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan yechimlarni qabul qilish imkoni berilgan. Dasturlar allaqachon yangi mualliflik huquqi obyektlarini yaratishi mumkin. Tamoyilan yangi subyekt, o‘z huquqlari bilan jamiyatning yangi a’zosi – sun’iy intellekt paydo bo‘lishi yaqin. Uning paydo bo‘lishi yangi huquqiy munosabatlarni va mos holda yangi jinoyatlarni paydo bo‘lishiga olib keladi.

1.4. Kriminalistikani tadqiq qilish usullari

Ilmiy usullar ilm-fanning obyekti va predmetiga tegishli faoliyat turlari, jarayonlar, hodisalarni bilish yo‘llari hisoblanadi. Bunga mos kriminalistikani tadqiq qilish usullari – bu daliliy axborotlardan foydalanish, tadqiq qilish, yig‘ish namunalarini qabul qilish, qoidalar tizimidir.

Ularga o‘rganilayotgan hodisaning rostmana shartlarini o‘rnatish, uning xarakteri va ishtirokchilari bo‘yicha kriminalistik tavsiyalar ishlab chiqish yo‘llari, jinoiy ish bo‘yicha adolatli qaror qabul qilish taalluqli.

Kriminalistikani tadqiq qilish usullari **umumilmiy va maxsus usullarga** ajratiladi.

Umumilmiy usullar odatda nafaqat kriminalistikani tadqiq qilishda, balki fanning boshqa sohalarida ham foydalaniluvchi usullar tushuniladi. Asosiy umumilmiy usullarga avvalambor ***kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, ekstrapolyatsiya, tavsiflash, modellashtirish*** taalluqli.

Kuzatish hodisa, faoliyatni maqsadli qabul qilishdir. Kriminalistik tadqiqotlarda odamlar (ularning tashqi belgilari, u yoki bu harakatlarga reaksiyasi va shu kabilar); moddiy obyektlar (predmetlar, hujjatlar, izlar va ularning nusxalari); jinoyat ishtirokchilarining kriminal, postkriminal harakatlari (hodisa va jinoyat jarayonining boshqa ishtirokchilarini harakatlari); hodisalar (shakllanish jarayonlari va axborotni uzatish, uni turli bosqichlardagi transformatsiyasi va shu kabilar) kuzatiladi. Kuzatish jarayonida obyekt nafaqat bir butun, balki xossa, belgilar to‘plami kabi qabul qilinadi. Kuzatuv o‘z ichiga tadqiq qilinuvchi obyekt belgilar tizimini hissiy va ratsional bilishni birlashuvini oladi. Kuzatuv axborot aniqlangan turli ma’lumot tashuvchilar orqali amalga oshiriluvchi bevosita va bilvosita bo‘lishi mumkin.

Taqqoslash bir vaqtda bir nechta obyektlarni, har bir o‘rganilayotgan obyektlar xususiyatini solishtirish va ularning o‘xshashlik va farqlarini o‘rnatishdan iborat. Bu usulning o‘ziga xosligi obyektlar sifatini mosligi yoki farqini aniqlash nafaqat ajratilgan tadqiqot jarayonida, balki asosan bevosita solishtirishda amalga oshirilishidadir. Taqqoslash o‘xshashlik yoki farq haqida xulosa chiqariladigan umumiy belgilarga ega ikkitadan kam bo‘lmagan solishtiriluvchi obyektlar mavjudligida amalga oshirilishi mumkin. Taqqoslashning maqsadi tomonlarning aniq pozitsiyasi o‘rganilayotgan taqqoslanuvchi obyektlardagi umumiylikni aniqlash hisoblanadi. Ba’zi hollarda taqqoslash obyektni o‘ziga o‘xshash boshqa obyektlardan farqlanuvchi individual xususiyatlarni aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Umumlashtirish birlashtiruvchi tendensiyalar, qonuniyatlar, aloqalarni o‘rnatish, belgilarning o‘xshashliklarini aniqlash yo‘li bilan yakkalikdan umumiylikka o‘tishdir. Umumlashtirish tahlil va sintez kabi mantiqiy harakatlar yordamida amalga oshiriladi. Tahlil murakkab obyektni yanada sodda elementlarga xayolan yoki faktga asosan bo‘lish, haqiqiylarini ajratishdir. O‘zaro bog‘liq aniqlangan umumiy belgilar bir butunga sintezlanadi. Umumlashtirishning natijasi kriminalistikaning deyarli barcha ilmiy tushunchalari va kategoriyalaridir.

Ekstropolyatsiya bir obyektning ma’lum belgilari, xususiyatlari borligi haqidagi xulosalarni boshqa predmetlar, hodisalar, jarayonlarga ko‘chirishdir. Ko‘chiriluvchi xulosalar o‘rganiluvchi obyektlar bilan o‘xshash o‘rganilgan obyektlarni kuzatishda shakllantiriladi. Masalan, psixologik izlanishlar jarayonida aniqlangan yolg‘on belgilari jinoiy jarayonda yolg‘on ko‘rsatmalarni o‘rganishda va ularni fosh etish harakatlarini ishlab chiqishda keng foydalaniladi.

Modellashtirish originalning belgilarini ma’lum to‘plamlarini akslantiruvchi xayoliy yoki moddiy analogni, ya’ni haqiqatdan ham mavjud moddiy obyekt, jarayon, harakatni yaratishdir. Natijada yaratiladigan model kriminalistikada o‘rganiladigan haqiqatda mavjud obyektlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotni boshlang‘ich bosqichida bu obyektlar haqidagi ma’lumotlar to‘liqmasligi va ishonchni yetarlicha emasligi bilan xarakterlanadi. Vaziyat qatorida izlanuvchi ehtimoliy, gipotetik xarakterga ega asosli va argumentli fikrlash uchun axborotga ega emas.

Tavsiflash o‘rganiluvchi obyektning boshqa usullar orqali aniqlangan belgilarini fiksatsiyalash tushuniladi. Masalan, bevosita yoki bilvosita kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, tajriba va boshqalarda

aniqlangan belgilar tavsiflanadi. Ilmiy izlanishning bu usuli bir tomondan olingan bilimlarni ifodalash, bildirish vositasi, boshqa tomondan esa ularni tizimlashtirish vositasi hisoblanadi. Tadqiqot natijasida aniqlangan alohida obyektlarning belgilari avval tavsiflanadi, keyin esa umumlashtiriladi, toifalanadi. Tavsiflash yordamida olingan natijalar va ularning tushuntirishlari qo‘llaniladigan usullar, belgilar, obyektlar, texnologik jarayon, shartlar va tadqiqot ishtirokchilarini xususiyatlari fiksatsiyalanadi.

Maxsus usullar faqatgina kriminalistikada qo‘llaniladigan usullar bo‘lib, xususiy-kriminalistika va boshqa ilmlar ma’lumotlariga asoslangan usullarga ajraladi.

Birinchisiga odatda kriminalistik texnikalar sohasida tadqiqot o‘tkazishda foydalaniluvchi texnik-kriminalistik usullar kiradi. Masalan, hozirda yozuv psixologik xususiyatlari, hujjatlarni bajarishning psixik anomaliyalari, texnik vosita ishonchliligi yordamida baholash va so‘roq qilinayotganlarni obyektivligi hamda shu kabilar bo‘yicha diagnostika imkoniyatlari ustida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Xususiy-kriminalistik usullarga mohiyati ma’lum tizimlarni qurishdan iborat tuzilmaviy kriminalistika usullari taalluqli. Bu usullarning tarkibi joriy axborotni qayta ishlash va yig‘ish bo‘yicha operatsiya va harakatlarni, ehtimoliy tuzilmalarni kengaytirish yo‘nalishlarini aniqlashni, amaliyotda foydalanish texnologiyalarini hosil qiladi.

1.5. Raqamli kriminalistika vositalari

Kriminalistikani rivojlanishi texnik va taktik harakatlarni aniq chegaralanishiga olib keldi. Buguni kunda «**kriminalistik texnika**» termini ikki ma’noda foydalaniladi: kriminalistikaning bir bo‘limi kabi va umumiy texnikaning sohasi kabi. Kriminalistik texnika kriminalistika ilmining tarkibiy qismi hisoblanib, turli texnik vositalar va usullar yordamida uning vazifalarini yechishni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Kriminalistik texnikaning asosiy vazifasi ko‘rinmas va noravshan izlarni aniqlash hamda chiqarib olish, izlanayotgan va daliliy axborotni olish, yashirish joylarni qidirishni osonlashtirish, jinoiy harakatlar amalga oshirilayotgan vaziyatni aniqlashni hujjatlashtirishning yuqori darajasini ta’minlash, tergovchi mehnatining samaradorligini oshirish imkoniyati hisoblanadi.

Kriminalistik amaliyotda aniqlashning turli vositalari qo‘llaniladi: fotoapparatlar, videokameralar, magnitofonlar va videomagnitofonlar, yopishqoq plyonkalar va boshqalar.

Kompyuter kriminalisti maxsus kriminalistik texnikasiz ham to‘liq ishlashi mumkin. Kompyuterning o‘zi yetarlicha universal quroldir. Turli qo‘shimcha va dasturiy ta’minotlar orasida funksiyani o‘rganish uchun kerakli barcha narsalar topiladi. Ba’zi dasturiy qurilmalarni osongina yaratish yoki o‘z qo‘llarimiz bilan modifikatsiyalashimiz mumkin.

Biroq maxsus texnika ishni juda yengillashtiradi. Bugungi kunda bozorda quyidagi kriminalistik qurollar mavjud:

– qattiq disklarni va boshqa ma’lumot tashuvchilarni klonlashtirish uchun qurilmalar;

– apparatli bloklangan yozish uchun o‘rganilayotgan disklarni ulash uchun qurilmalar;

– disklar va boshqa ma’lumot tashuvchilar, ularning tarkibini kriminalistik o‘rganish uchun dasturiy qurollar;

– kompyuter axborotini ish sharoitlarida o‘rganishga yo‘naltirilgan dasturiy va apparatli kompleks vositalarga ega ko‘chma kompyuterlar;

– o‘rganilayotgan fayl tizimlarini tarkibi filtrlash uchun xeshlarning to‘plami (hash sets);

– lokal tarmoqlarni o‘rganish uchun dasturiy vositalar;

– va ba’zi boshqa narsalar.

Apparat vositalari. Zamonaviy kompyuterlar universal qurilmaligini va ularda asosan ochiq standartlar va protokollar foydalanilishini hisobga olgan holda kompyuterlarni va kompyuter ma’lumot tashuvchilarini tadqiq qilish uchun maxsus apparat vositalari talab etilmaydi. Yani kompyuterning o‘zi universal instrument hisoblanadi, uning barcha funksiyalarini esa mos dasturiy vositalar orqali ishga tushirish mumkin.

Kompyuterlar va kompyuterning qo‘shimcha qurilmalari uchun apparat kriminalistik qurilmalar mutaxassis yoki ekspertga qulaylik uchun xizmat qiladi. Mobil telefonlar, raqamli fotoapparatlar va videokameralar, bort kompyuterlari, kommutatorlar, marshrutizatorlar, apparat tarmoqlararo ekranlar – bu barcha qurilmalar texnologik ochiq emas va universallikka intilishmaydi. Saqlanayotgan kompyuter axborotiga to‘liq ruxsat uchun har doim ham kompyuter va dasturiy instrument yetarli bo‘lavermaydi.

Ekspert dasturlar. Bunday dasturlar asosan ekspertiza o‘tkazish vaqtida kompyuter axborot tashuvchilarining tarkibini tadqiq qilishga

mo‘ljallangan. Ular nafaqat fayl tizimlari darajasida, balki pastroq darajada – qattiq disk kontrolleri darajasida ham ishlaydi, bu esa fayllarni o‘chirilgandan keyin ham qayta tiklash imkoniyatini beradi.

Bir nechta mashhur ekspert dasturlarini keltiramiz:

– ProDiscover dasturlar oilasi *(http://computer-forensics-lab.org/lib/ ?rid=22)*.

– SMART (Storage Media Analysis Recovery Toolkit) *(http://computer- forensics-lab.org/lib/?cid=18)*.

– «AccessData» firmasiga tegishli Forensic Toolkit (FTK) (*http://computer-forensics- lab.org/lib/?rid=26)*.

– Encase ekspert tizimi.

– ILook Investigator *(http://www.ilook"forensics.org)*.

– SATAN (System Administrator Tools for Analyzing Networks) – Unix OT uchun kompyuterlardan to‘liq axborotni olish uchun vosita.

– DIBS Analyzer 2 *(http://www.dibsusa.com/products/dan2.html)*.

– Helix – Linux OT asosidagi yuklanuvchi kompakt-diskdagi ekspert komplekt.

Xeshlar to‘plami. «hash sets» deb nomlanuvchi – xeshlar to‘plami asosan kompyuter qattiq disklarida katta axborot tashuvchilarning fayl tizimlarini tarkibini tadqiq qilishni osonlashtirish uchun mo‘ljallangan.

Faraz qilaylik, ekspertga o‘rganish uchun gumondordan tintuvda olingan operatsion tizim o‘rnatilgan va foydalanuvchi ma’lumotlari mavjud axborot tashuvchi vosita kelib tushdi. Bu ma’lumotlar turli direktoriyalar bo‘yicha tarqalgan bo‘lishi, sozlanmali fayllar ichida bo‘lishi, hattoki ko‘rinishidan umuman boshqa ma’lumotlardan iborat fayllar ichiga steganografiya usullari bilan yashirilgan bo‘lishi mumkin. Zamonaviy OT o‘z tarkibiga minglab fayllarni, mashhur ilovalarni – yuzlab va minglab olishi mumkin. Shunday qilib, oddiy kompyuterning fayl tizimida masalan, faqatgina 500 tasi foydalanuvchi tomonidan yaratilgan yoki o‘zgartirilgan 30000 ta fayllar bo‘lishi mumkin.

Bu foydalanuvchi fayllar «kamchiligini» hech qanday qiziq narsaga ega bo‘lmagan «ko‘pchilikdan» uzoqlashtirish uchun xeshlar to‘plami mo‘ljallangan.

Xesh, xesh-summa yoki bir tomonlama *xesh-funksiya* fayllari maxsus algoritm bo‘yicha fayl tarkibidan hisoblanuvchi uzun sondir. Xesh-summa nazorat summasiga o‘xshash, biroq bitta sezilarli farqi majud: bu bir tomonlama funksiya. Ya’ni fayl bo‘yicha osongina uning

xesh-funksiyasini hisoblash mumkin, biroq berilgan xesh-funksiyani terish orqali mos faylni olishning iloji yo‘q.

Ma’lum fayllarning xeshlari ularning tarkibini to‘liq ko‘rmasdan olib tashlash va bu fayllar foydalanuvchi axborotiga ega emasligiga ishonch hosil qilish imkonini beradi. Ular istisno qilingandan keyin ekspertga nisbatan kam sonli fayllarni tadqiq qilish qoladi xolos. Bunday to‘plam toifalari «knowngoods» deb nomlanadi.

Teskari vazifani bajaruvchi xeshlar to‘plami ham mavjud. Ular *«knownbads»* deb nomalanadi va zararsizligi oldindan no‘malum fayllarga, aksincha pornografiya, viruslar yoki boshqa kriminal kontentdan iborat aniq zararli fayllarga mos keladi. Odatda xeshlar to‘plami – bu muvofiq ishlab chiqaruvchidan sotib olinuvchi va ekspert DTga ulanuvchi alohida mahsulotdir. Bu fayllar haqidagi ma’lumotlarga mos keluvchi yuz minglab va millionlab xesh-funksiyalardan iborat bo‘lishi mumkin. Barcha mashhur ekspert tizimlari «tashqi» xeshlar to‘plamidan foydalanish va ulanish imkoniyatini beradi.

Arxivlash. Ilgari «zahira nusxalash» yoki «sovuq zahiralash» deb nomlanuvchi, ma’lumotlar nusxalarini nusxalash va uzoq vaqtli saqlash yo‘qotishda qayta tiklash maqsadidagina qo‘llanilgan.

So‘ngi paytlarda arxivlash boshqa maqsadlarda – bo‘lishi mumkin bo‘lgan yoki kelajakda aniqlanuvchi xavfsizlik insidentlarini tadqiq qilish uchun qo‘llanilmoqda. Ya’ni ma’lumotlar nusxalanishi «qimmatli, nozik ma’lumotlarning yo‘qotilishi zarar keltiradi» degan tamoyilda emas, balki umuman boshqa tamoyilda amalga oshiriladi: buzg‘unchi harakatlarining izlari qolishi mumkin bo‘lgan ma’lumot tashuvchilar va ma’lumotlar nusxalanadi. Masalan, xizmat shaxsiy kompyuteriga nisbatan qayta tiklash maqsadlari uchun foydalanuvchi fayllar va uning alohida sozlanmalari arxivlanadi. Operatsion tizimlar va amaliy dasturlar zahira tarzida nusxalanmaydi, chunki distributivdan osongina qayta tiklanadi. Barcha zahira nusxalash fayl tizimi darajasida amalga oshiriladi. Insidentlarni tadqiq qilish maqsadlari uchun kompyuterning barcha qattiq diski nusxalanadi, yana fayl tizimi darajasida emas, balki disk kotrolleri darajasida, ya’ni masofadagi va yashirish axborot kirishi uchun.

Zahira nusxasi insidentlarni tadqiq qilish uchun unchalik foydali emas. Aksincha, «insident» nusxasi virus hujumi yoki avariya vaziyatida qayta tiklash uchun to‘g‘ri kelmaydi. Bu turli nusxalar hisoblanadi – ham texnik, ham maqsadli. Insidentlarni tadqiq qilish holatida arxivlash uchun vosita – bu maxsus kriminalistik vositadir.

Kriminalistik fototasvir va videoyozuv.

Hozirgi vaqtda tergovchining ish joyida nafaqat kompyuter balki, maxsus dasturiy ta’minot, masalan, «Tergovchi AIJ» (AIJ – Avtomatlashtirilgan ish joyi) – tergov jarayonida ko‘plab axborot-analitik vazifalarni yechish imkonini beruvchi dastlabki tergov jarayonini axborot nuqtai nazaridan qo‘llab-quvvatlashni avtomatlashtirishga mo‘ljallangan individual texnik va dasturiy vositalar kompleksi bo‘lishi nazarda tutiladi.

Yangi texnologiyalar tergovchilarga kriminalistik ahamiyatli axborot manbalarini taqdim etadi, masalan, keng tarqalgan videokuzatuv kameralari yoki mobil telefon GSM-lokalizatsiyalari. Biroq zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini milliy kriminalistlar tomonidan qo‘llanilmaydigan yoki yetarlicha samarali qo‘llanilmaydigan soha mavjud. Bu soha – jinoyat izlarini vizual aniqlash.

Kriminalistik fotografiya – kriminalistik texnikaning odatiy bo‘limlaridan biri; bir necha yil oldin olimlar kriminalistikada raqamli fotografiyadan foydalanishga qarshi edilar, biroq endi deyarli bu plyonkali fotografiyani chiqarib yubordi. Biroq texnologiyalar ilgariladi va turli jinoiy harakatlar amalga oshirilganda aniqlangan jinoyat izlarini aniqlashni yanada ravshan va aniqroq aniqlash imkoni bermoqda.

Bunday vositalar qatorida birinchi bo‘lib, videotasvirni aytish lozim. Ilmiy yoki o‘quv adabiyotlarida jinoyatni tadqiq qilganda kriminalistik videoyozuvni qo‘llash qandaydir harakatni, hodisa rivojlanish dinamikasini, ba’zida ovozlari bilan muhrlash muhim, bundan tashqari videoyozuv katta hududli maydonlarni yoki ko‘p tartibsiz to‘plangan turli obyektlarni muhrlash, ko‘rik davomida o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan, masalan, yong‘in va falokatlarda vaziyatni aniqlash imkonini beradi. Ya’ni fototasvir bilan solishtirganda videoyozuvning asosiy ustunlik tomoni muhitning o‘zgarish dinamikasini hamda statik bo‘lmagan harakatlanuvchi obyektlarni muhrlash imkoniyatidadir.

Videoyozuv – mos uslubni ishlab chiqishda jinoyat joyini ko‘rigi natijalari va qadamini aniq hamda to‘liq aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari statik predmetlarni, huquq buzilishini ehtimoliy o‘zgarish joyini, tashqi ta’sirsiz normal sharoitlarda statik vaziyatni aniqlashda videoyozuvning roli to‘g‘ri baholanmagan. Videoyozuv fototasvir kabi jinoyat joyini umuman yo‘naltirilgan, uzelli, umumiy va

batafsil ko‘rish, hamda alohida xususan jinoyat izlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Birinchidan, jinoyat joyini ko‘rigini tergovchi nuqtai-nazaridan, uni ko‘rikka bo‘lgan yondashuvidan amalga oshirish mumkin. Bu faqatgina tergov doirasida ko‘rik natijalarini keyingi tahlili uchungina muhim emas, balki agarda oqibatda tergovchi kompetenligi yoki harakatlarining qonuniyligiga shubha paydo bo‘lgan vaziyatda tergovchi harakatlarini baholash uchun ham muhimdir: agarda videoyozuvda qandaydir ashyoviy dalil olinishi va uni o‘rash aniqlansa, uni fosh etish yoki buzish yetarlicha qiyin bo‘ladi. Ikkinchidan, jinoyatchining jinoyat sodir etayotgandagi harakatlarini, uning jinoyat joyiga kelishini va qochish yo‘llarini video modellarini yaratish mumkin. Bunday modellarning keyingi tahlili yo‘naltiruvchi qiymatga ega bo‘lishi, jinoiy versiyalarni shakllantirish uchun xizmat qilishi, jinoyatchi yashiringan yoki kelgan joylarda yangi jinoyat izlarini aniqlashga yordam beradi. Uchinchidan, videoyozuv jinoyat joyiga kelib, jinoiy guruh kutmaydigan hodisalarni aniqlash imkonini beradi: zararlanishi boshida ravshan bo‘lmagan predmetlarni kutilmaganda qulashidan, jinoyat joyini tark etishga ulgurmasdan jinoiy guruhni ketishini kutib o‘tirishga umid qilib yashiringan jinoyatchini birdan paydo bo‘lib qolishigacha. To‘rtinchidan, hozirgi vaqtda jabrlanuvchi yoki guvohlarning xotiralarini tiklash yoki aktivizatsiyalash uchun jinoyat joyini ko‘rish vaqtida videoyozuvdan foydalanish imkoniyati hisobga olinmaydi, biroq oxirgi 20 yillikda xotirani aktivizatsiyalash mavzusi mutaxassislarning faol tadqiqot predmeti bo‘ldi.

3D-texnologiyalar. Jinoyat izlarini aniqlashni boshqa zamonaviy vositasi panoramali 3D-fotografiya hisoblanadi. Bunday fototasvir gorizontal va vertikal bo‘yicha 360° ni qamrab olishni imkonini beruvchi fotoapparatda maxsus nasadkadan foydalanish bilan amalga oshiriladi. Natijada monitor ekranida fotoapparat o‘rnatilgan nuqtadan hodisa joyini to‘liq tasvirini olish mumkin. Panoramaning alohida qismlarini yanada batafsil ko‘rish uchun yaqinlashtirish mumkin. Bunday tasvirlar alohida detallarni shunchaki aniqlashdan ko‘ra ko‘proqdir. Bular tergovchi tomonidan ham jinoyat joyini keyingi tahlil uchun va yangi izlarni qidirish uchun, ham ko‘rsatma beradigan shaxslarni xotirasini aktivizatsiyalash uchun foydalanilishi mumkin.

Bundan tashqari, jinoyat hodisasini bir nechta odam (ularning keyingi protsessual statusi turlicha bo‘lishi mumkin) kuzatganda ham turli nuqtai nazardan hattoki ular aynan nimani ko‘rishganini

anglayolmay qolganda bunday fototasvirdan foydalanish eng samarali hisoblanadi. Barcha guvohlarning nuqtai-nazarida panoramali 3D-fotografiyalarni yaratish va ularni keyingi birgalikdagi tahlil ko‘rimaydigan zonalarni, ya’ni kimningdir yoki birdaniga barcha guvohlarning ko‘ziga ko‘rinmay qolgan hududlarni aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, bir tomondan ko‘rsatmalarni ishonchliligini tekshirish – guvoh ko‘rganini tasdiqlayotganda u yoki bu predmet yoki hodisani ko‘rishi mumkin emasligini isbotlash.

Panoramali 3D-fotografiyalarni bunday solishtirish kompyuter modellashtirishni, maxsus dasturiy ta’minotni va maxsus bilimlarni talab qiladi, solishtirish natijalari esa har bir guvohning ko‘rish zonalarini ko‘rsatuvchi yaqqol model, kesishuvchi ko‘rish zonalari, ko‘rinmas zonalardan iborat bo‘lishi lozim. Ya’ni bunday solishtirish sud ekspertizasi shaklida amalga oshirilishi kerak.

Jinoyat izlarni aniqlashning yana bir vositasi *lazerli 3D-skanerlash* hisoblanadi. Hozirda bu usul AQSH va G‘arbiy Yevropada yetarlicha faol qo‘llanilmoqda; fiksatsiyaning bunday vositasini qo‘llash yaqin kelajak amalidir, bu yerda yagona to‘siq – qurilmaning nisbatan yuqori narhi va tergovning adekvat vazifalari bo‘lib, jinoyat joyini 3D-fiksatsiya usulini yo‘qligidir.

3D-model ish bo‘yicha ko‘rsatma beruvchi shaxslar bilan ishlash uchun, ularni xotirasini aktivizatsiyasi uchun, hamda tavsiflangan vazifalar, ham turli toifadagi modellashtirish – o‘q trayektoriyalari, hodisa ishtirokchilarining harakat sxemalari, hodisalarni rivojlanishini ehtimoliy ssenariylari va shu kabilar bilan bog‘liq turli kompyuter-texnik ekspertizalarini o‘tkazish uchun to‘g‘ri keladi. Lazerli skanerlash yordamida olingan model ko‘rsatmalarni tasdiqlash yoki bo‘liqlarni to‘ldirish uchun ham ishlatilishi mumkin: modeldan hodisa joyining alohida detallarini olib tashlab yoki jinoyat joyida ko‘rik natijalari va kechishini fiksatsiyalash vaqtida oldindan qandaydir predmetlar bo‘lmaganligi, masalan, ular jinoyatchi tomonidan o‘g‘irlangan, jinoyat joyiga birinchi kelgan shaxslar tomonidan yashirilgan va shu kabilarni taxmin qilib, ko‘rsatmalari tekshirilayotgan shaxsga yuzlarni taklif qilishi, modelni dasturiy ta’minotning bir qismi bo‘lgan obrazlar kutubxonasidan tanlash mumkin bo‘lgan yetmayotgan predmetlar bilan to‘ldirish mumkin.

Virtual reallik. Bundan tashqari keyingi tadqiqot uchun istiqbolli yo‘nalishlardan biri hodisa joyida bo‘lish effektini yaratuvchi monitor ekranidan virtual reallikka ko‘chish modelidir.

Virtual hodisa joyini yaratish va undan foydalanish uchun maxsus dasturiy ta’minot va virtual reallik shlemi kerak. Bunday virtual modeldan foydalanish ish bo‘yicha ko‘rsatma berayotgan shaxslar bilan ishlash uchun samaralidir. Birinchidan, virtual reallik sharoitlarida hodisa joyini qabul qilish yorqinligi foto- yoki video-tasvirdan ko‘ra inson xotirasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan, hodisa joyini virtual modeli lazerli 3D-skanerlash natijasida olingan batafsil tasvirni hisobga olgan holda va hodisa joyini dastlabki ko‘rigiga hamrohlik qiluvchi barcha shartlarni saqlash joyda ko‘rsatmalarni tekshirish uchun foydalanilishi mumkin. Bugungi kunda joydagi ko‘rsatmalar tekshiruvi jinoyatdan sezilarli vaqt o‘tgandan keyin hodisa joyidagi vaziyat allaqachon buzilganda o‘tkaziladi. Virtual model birinchi ko‘rik momentida qanday bo‘lgan bo‘lsa o‘shanday hodisa joyida qayta bo‘lish imkonini beradi. Biroq so‘zsiz bu tadbir xususiy jinoiy harakat deb hisoblanishi mumkin emas.

Shunday qilib, jinoyat izlarini vizual fiksatsiyalash texnologiyalari va yangi vositalaridan foydalanish jinoyatlarning to‘liq tergov qilish va o‘z vaqtida fosh etish uchun katta ahamiyatga ega.

Kriminalistik axborot tizimlari.

Ko‘rsatilgan tizimlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri dalillarni o‘rganish va izlash uchun foydalanilmaydi. Ular jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish bo‘yicha ishlarda ta’minot funksiyasini bajaradi. Biroq odatiy kriminalistik texnikaga tallluqli. Kriminalistik axborot tizimlari bir qator bir-biriga yaqin vazifalarni bajaradi:

– tezkor-qidiruv tadbirlari (TQT), dastlabki oqibatlar, sud maqsadlari uchun turli hujjatlarni rasmiylashtirishni yengillashtiradi va/yoki tezlashtiradi;

– huquq tartibot organlari xodimlariga kerakli akt, izohlar, maslahatlar olishni tezroq topish imkonini beradi;

– xodimlarga ham ommaviy, ham yopiq bo‘lgan barcha ma’lumotlar bazasi, hisoblar, qo‘llanmalarga ruxsatni yengillashtiradi va tezlashtiradi;

– xabarlarni ushlab olish bilan bog‘liq TQTni o‘tkazishni avtomatlashtiradi va tezlashtiradi.

Mutaxassislar va ekspertlar o‘tkazadigan kriminalistik jarayonlarni to‘rt bosqichga ajratish qabul qilingan:

1) yig‘ish;

2) tadqiq qilish;

3) tahlil;

4) taqdim qilish.

Birinchi bosqichda axborotning o‘zi hamda kompyuter axborotining tashuvchisini yig‘ish amalga oshiriladi. Yig‘ish atributlash (belgilash), manbalarni ko‘rsatish va ma’lumotlar va obyektlarni kelib chiqishi bilan birga amalga oshirilishi lozim. Yig‘ish jarayonida axborotning saqlanganlik va butunliligi (o‘zgarmaslik) ba’zi hollarda esa maxfiyligi ham ta’minlanishi lozim. Yig‘ishda ba’zida qisqa vaqtli axborotni aniqlash uchun maxsus choralarni ko‘rishga to‘g‘ri kelinadi, masalan, joriy tarmoq ulanishlarini yoki kompyuter tezkor xotirasining tarkibini.

Ikkinchi bosqichda yig‘ilgan axborotning (tashuvchi-obyektlarning) ekspert tadqiqi o‘tkaziladi. Bu o‘z ichiga axborot tashuvchilarda axborotni olish/hisoblashni, dekodlash va undan ishga aloqadorini ajratishni oladi. Ba’zi tadqiqotlar u yoki bu darajada avtomatlashtirilishi mumkin. Biroq bari bir ekspert bu bosqichda boshi va qo‘li bilash ishlashiga to‘g‘ri keladi. Bunda o‘rganilayotgan tashuvchilardagi axborot butunliligi ta’minlanishi kerak.

Uchinchi bosqich tanlab olingan axborot ekspert yoki mutaxassis oldiga qo‘yilgan savollarga javob olish uchun tahlillanadi. Tahlilda faqatgina ishonchliligi tasdiqlangan ilmiy usullardan foydalanilishi kerak.

To‘rtinchi bosqich o‘z ichiga tadqiqot natijalarini mutaxassis bo‘lmagan shaxsga tushunarli shaklda rasmiylashtirish hamda o‘rnatilgan qonun bo‘yicha tahlilni oladi.

1.6. Kontr-forenzika

Raqamli dalillarni izlash, aniqlash va mustahkamlash usullariga qarshilik forenzikaning o‘zidek faol rivojlanmayapti. Qarshi usullariga bo‘lgan talab cheklangan. Nimaga cheklangan? Buni tushunish uchun kompyuter axborotini aniqlashga qarshilik qilish kimga va nima uchun kerak bo‘lishini ko‘rib chiqamiz.

Birinchidan, dastlab xayolga – ***kiberjinoyatchilar*** keladi. O‘zining kriminal harakatlarining izlarini yashirish va qonundan qo‘rqish asosiga ega shaxslar. Tushunarliki, bu bozor juda tor, unda ishlash juda qiyin, ulkan yuqori texnologiya kompaniyalari talab bo‘lsa ham bu segment uchun qurilmalar va DT ishlab chiqarishi amri mahol.

Ikkinchidan, qarshi usullar axborotni himoyalashning tarkibiy qismidir. Maxfiy axborotni himoyalashga ehtiyoj bor barcha joyda uning chiqib ketishini oldini olish uchun bu usullardan foydalanishi kerak. Chiqib

ketish bilan kurashish bo‘yicha bu usullarning bir qismi raqib axborotini istisno yoki uni qayta tiklashni qiyinlashtirishga yo‘naltirilgan.

Uchinchidan, fuqarolarning shaxsiy hayot siriga huquqi (yashirinlik) kompyuter-texnik va boshqa choralar qatorida ta’minlanishi mumkin, bu deyarli ***kriminalistikaga qarshi (kontr-kriminalistik)*** choralar hisoblanadi. To‘g‘ri, ko‘rsatilgan fuqarolarning shaxsiy hayot siriga huquqi himoyalash o‘rta foydalanuvchi malakasi bilan cheklanganligi sababli juda murakkab vositalar va usullarni qo‘llashning bu yerda iloji yo‘q.

Bu usullar AT sohasida yuqori malakani talab eta olmaydi, mos dasturlar boshqaruvda sodda bo‘lishi va «Windows» OT da ishlashi kerak, qurilmalar ham qimmat bo‘lishi kerak emas. Shuning uchun ham bu yerda odatda yetarlicha sodda himoya bilan cheklaniladi.

Ko‘rinib turibdiki, anti-kriminalistik texnikaning sezilarli qismi professional, hech ham oddiymas. Ko‘rinib turganidek, anti-kriminalistik bozor sezilarli darajada kriminalistik bozordan kichik. Anti-kriminalistik mahsulot sifatsiz bo‘lib chiqsa, ishlab chiqaruvchiga da’vo qila olmaysiz. Bu bozorda ilgarilash uchun umuman sifatli, murakkab qurilma va DT ishlab chiqish talab etilmaydi. Shunchaki o‘z mahsulot yoki xizmatingizni yaxshi reklama qilish talab etiladi xolos. Ishlab chiqaruvchilar shu bilan shug‘ullanishadi.

Himoyali anti-kriminalistik vositalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– saqlanuvchi axborotni shifrlash uchun dasturiy va apparat-dasturiy qurilma;

– trafikni shifrlash uchun dasturiy va apparat-dasturiy qurilma;

– disk va boshqa axborot tashuvchilarni tozalash uchun dasturlar;

– axborotni o‘chirish uchun dasturlar;

– magnitli tashuvchilarda axborotni mexanik yo‘q qilish uchun qurilma;

– diskda axborotni borligini yashirish uchun dasturlar (fayl atributlarini manipulyatsiyasi, nostandart joylarga yozish, stegenografiya);

– tarmoq faolligini anonimlashtirish uchun tizimlar va xizmatlar;

– raqamli shaklda taqdim etilgan asarlarni nusxalashni qiyinlashtirish uchun dasturiy va apparat-dasturiy qurilmalar;

– dastur algoritmlari va bajariluvchi kodlarini tadqiq qilinishini qiyinlashtirish uchun dasturlar.

Asosiy xulosalar

Raqamli kriminalistika – bu jinoyatlarni (insidentlarni) tadqiq qilish va kompyuterlarda, ma’lumotlarni saqlash tizimlarida, kompyuter tarmoqlarida, mobil va boshqa raqamli qurilmalarda joylashgan raqamli dalillarni yig‘ish haqidagi, kompyuter axboroti shakliga (raqamli dalillar) ega dalillarni tadqiq qilish va olish usullari haqidagi, buning uchun qo‘llaniluvchi texnik vositalar haqidagi amaliy fandir.

Raqamli kriminalistikaning vazifasi raqamli dalillarni saqlash, identifikatsiyalash, olish va hujjatlashtirish hisoblanadi.

Forenzikani qo‘llash sohasi: kompyuter axboroti tajovuz qilish obyekti, kompyuter esa jinoyatni sodir etish quroli kabi shakllanuvchi hodisalarni tergov qilish va tahlillash.

Kompyuter jinoyatining 3 yo‘nalishi ajratilib ko‘rsatiladi: axborot xavfsizligiga qarshi jinoyat; elektron axborot boshqa jinoyatni sodir etish vositasi hisoblanuvchi jinoyat; kompyuter va boshqa elektron texnikadan foydalanilib sodir etiladigan jinoyat.

Raqamli kriminalistikaning ko‘rinishlari: kompyuter kriminalistikasi, tarmoq kriminalistikasi, mobil kriminalistika.

Raqamli kriminalistikaning vazifalari: tezkor-qidiruv tadbirlari (TQT) va kompyuter axboroti bilan bog‘liq jinoiy harakatlarni taktikasini ishlab chiqish; kompyuter jinoyatining dalillarini tergov qilish va yig‘ish uchun apparat va dasturiy instrumentlar, usullarni yaratish; kompyuter axboroti bilan bog‘liq qoidabuzarliklarni kriminalistik xarakteristikasini o‘rnatish.

Raqamli kriminalistika predmetlari: axborot texnologiyalari, amaliy dasturiy ta’minotni o‘rganish usullarini, kompyuter jinoyati bo‘yicha kriminal, tezkor, jinoiy va sud amaliyoti, tizim ishini tadqiq qilish usullari.

Kriminalistikaning tadqiq qilish usullari umumilmiy (kuzatish, tavsiflash, taqqoslash, umumlashtirish, ekstropolyatsiya, modellashtirish) va maxsus usullarga (xususiy-kriminalsitik va boshqa ilm ma’lumotlariga asoslangan) ajraladi.

Kompyuter kriminalisti maxsus kriminalistik texnikasiz ham ishlashi mumkin. Kompyuterning o‘zi yetarlicha universal instrument. Biroq maxsus texnika ishni juda yengillashtiradi.

Kriminalistik axborot tizimlari TQT uchun turli hujjatlarni rasmiylashtirilishini tezlashtiradi va/yoki osonlashtiradi; kerakli meyoriy aktlarni, izohlarni topishni, maslahat olishlarni tezlashtiradi; ham ommaviy, ham yopiq barcha ma’lumotlar bazasi, hisoblar,

qo‘llanmalarga ruxsatni tezlashtiradi va osonlashtiradi; xabarlarni ushlab olish bilan bog‘liq TQT o‘tkazilishini avtomatlashtiradi va tezlashtiradi.

Kontr-forenzika – bu raqamli dalillarni qidirish, aniqlash va mustahkamlash usullariga qarshi usullardir. Anti-kriminalistik texnikaning sezilarli qismi – professional emas, lekin sodda ham emas. Anti-kriminalistik bozor sezilarli darajada kriminalistik bozordan kichik.

Nazorat uchun savollar

1. *«Forenzika» iborasi nimani anglatadi?*
2. *Raqamli kriminalistikaning asosiy vazifalari.*
3. *Kompyuter jinoyatining uchta yo‘nalishini ayting.*
4. *Raqamli kriminalistikaning ko‘rinishlarini keltiring.*
5. *Raqamli kriminalistikaning predmeti nima?*
6. *Forenzikaning qo‘llanilish sohalarini sanab o‘ting.*
7. *Axborot vositalarini qo‘llagan holda sodir etiladigan jinoyat guruhlarini shakllantiring.*
8. *Texnik va huquqiy xarakterdagi muammolarni hisobga olgan holda raqamli kriminalsitika qanday vazifalarni yechadi?*
9. *Ilg‘or texnika va texnologiyalarning natijalari jinoyatchilikka qanday ta’sir qiladi?*
10. *Kriminalsitikani tadqiq qilish usullarini ayting.*
11. *Raqamli kriminalistika maxsus texnik vositalarini xarakterlang.*
12. *Raqamli kriminalistikada ekspert dasturlar nima uchun mo‘ljallangan?*
13. *Kriminalistik fototasvir va videoyozuvni mohiyatini oching.*
14. *Kriminalistik axborot tizimlarining vazifalari.*
15. *Kontr-forenzika tushunchasini shakllantiring.*

2. KOMPYUTER JINOYATLARI

2.1. Kompyuter jinoyatlarining asosiy yo‘nalishlari

90-yillarning boshlaridan xorijiy huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida tez-tez **«computercrime» - kompyuter jinoyati** kabi ibora uchrab turadi, ya’ni kompyuterdan foydalanish bilan bog‘liq jinoyat.

«Kompyuter jinoyati» iborasi *«kompyuter axboroti sohasidagi jinoyat»* dan ko‘ra kengroq. Yana bu soha kompyuter texnikasi, dasturlar, kompyuter axboroti va raqamli aloqa kanallari jinoyatni sodir etish quroli yoki tajovuz qilish obyekti hisoblanadigan jinoyatlarni ham qamrab oladi. Bunday jinoyatlarga quyidagilar taalluqli: bank kartalarini qo‘llagan holdagi firibgarlik **(karding)**, shaxsiy ma’lumotlarni olish bilan bog‘liq firibgarlik **(fishing)**, aloqa xizmatlaridan noqonuniy foydalanish va aloqa sohasidagi boshqa yolg‘onlar **(frod, trafikni o‘g‘irlash)**, obyekt axborot tizimi hisoblanuvchi sanoat va boshqa josuslik va shu kabilar.

Fosh etish uchun kompyuter kriminalistikasi usullaridan foydalaniladigan har qanday jinoyatni kompyuter jinoyati deyish mumkin. Xorijiy adabiyotlarda va boshqa rasmiy hujjatlarda «computer crime» o‘rniga tez-tez «cybercrime» - kiberjinoyatchilik, kiberjinoyat iboralari foydalaniladi.

Ko‘pincha quyidagi iboralar ishlatiladi:

Kompyuter jinoyati (kiberjinoyat) – tadqiq uchun tabiiy shart axborot texnologiyalari sohasida maxsus bilimlarni qo‘llash hisoblanadigan ma’muriy huquqbuzarlik.

Kompyuter va kompyuter axboroti kompyuter jinoyatida uchta rolni o‘ynashi mumkin:

- tajovuz qilish obyekti;
- sodir etish quroli;
- dalil yoki dalil manbasi.

Barcha uchta holatda dalillarni aniqlash, yig‘ish, aniqlash va tadqiq qilish uchun maxsus bilim va maxsus usullar talab etiladi.

Axborot xavfsizligini ta’minlash muammosi insonlar axborot bilan almashinishni, to‘plashni va saqlashni boshlagan vaqtdan dolzarb hisoblanadi. Har doim insoniyatning muhim yutuqlarini ishonchli saqlash zarurati paydo bo‘lgan. Analog tarzida maxfiy axborot almashinuvi va uning ishonchli himoyasiga zarurat paydo bo‘lgan.

Kompyuter jinoyati – jinoyat kodeksida koʻrsatilgan mashina axboroti jinoiy tajovuz qilish obyekti hisoblanadigan jamiyat uchun xavfli harakatdir. Joriy holatda jinoyat predmeti yoki quroli sifatida mashina axboroti, kompyuter, kompyuter tizimi yoki kompyuter tarmogʻi xizmat qiladi.

Kompyuter jinoyatini shartli ravishda ikkita katta kategoriyaga ajratish mumkin:

– kompyuter ishiga aralashish bilan bogʻliq jinoyat;

– kompyuterni kerakli texnik vosita kabi foydalaniladigan jinoyat.

Kompyuter ishiga aralashish bilan bogʻliq jinoyat asosiy koʻrinishlarini sanab oʻtamiz.

1) Axborotga Ruxsatsiz kirish (RK). RK begona nomdan foydalanish, texnik qurilmalarning fizik manzillarini oʻzgartirish, vazifa yechilgandan keyin qolgan axborotdan foydalanish, dasturiy va axborot taʼminotni modifikatsiyalash, axborot tashuvchini oʻgʻirlash, maʼlumotlarni uzatish kanallariga ulanadigan yozuv apparaturalarini oʻrnatish bilan amalga oshiriladi.

Xaker, «kompyuter qaroqchisi» - koʻngilxushlik, firibgarlik yoki zarar yetkazish (kompyuter virusini tarqatish yoʻli bilan ham) maqsadida kompyuter tizimlari va tarmoqlariga tizimli ruxsatsiz kirishni amalga oshiruvchi shaxsdir. Bir tomondan «xaker» - kompyuterni yaxshi biladigan va yaxshi dasturlarni yozuvchi shaxs boʻlsa, boshqa tomondan axborotni olish maqsadida kompyuter tizimlariga noqonuniy kiruvchi shaxsdir.

Ingliz feʼli «to hack» kompyuterlarga qoʻllanilganda ikki maʼnoni anglatishi mumkin – tizimni buzish yoki uni tuzatish. Bu harakatlar asosida qandaydir umumiylik mavjud – kompyuter va unda ishlaydigan dasturlar qanday tuzilganligini tushunish.

Shunday qilib, «xaker» soʻzi ikki maʼnoga ega: birinchisi – negativ boʻyalgan («buzgʻunchi»), boshqasi – neytral yoki maqtanarli («usta», «master»). Boshqa soʻzlar bilan aytganda xakerlarni «yomon» va «yaxshi» xakerlarga ajratish mumkin.

«Yaxshi» xakerlar texnik progresga hissa qoʻshishadi va oʻzlarining bilim va koʻnikmalarini insoniyat rivoji uchun ishlatishadi. Ular tomonidan katta miqdordagi yangi texnik va dasturiy tizimlar ishlab chiqilgan. Ularga «yomon» xakerlar qarshilik qilishadi: boshqalarning xatlarini oʻqishadi, boshqalarning kodlarini oʻgʻirlashadi va insoniyat rivojiga barcha yoʻllar orqali zarar yetkazishadi.

«Yomon» xakerlarni shartli ravishda to‘rt guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh – **qiziquvchilar**, asosan yoshlardan iborat, kompyuter tizimlarini shunchaki ko‘ngilxushlik uchun buzuvchi insonlar. Ular zarar keltirishmaydi, bunday mashg‘ulot o‘zlari uchun foydali – vaqt o‘tgan sari ulardan yaxshi kompyuter mutaxassislari yetishadi.

Ikkinchi guruh – **qaroqchilar.** Ular kompyuter himoyasini yangi dasturlarni va boshqa axborotni o‘g‘irlash uchun buzishadi.

Uchinchi guruh – **xakerlar**, o‘z bilimlarini haqiqatdan ham har bir kishiga va hammaga zarar yetkazish uchun foydalanishadi. Ular kira olgan kompyuter tizimlarini yo‘q qilishadi, begona xatlarni o‘qishadi, keyin esa ularning mualliflari ustidan kalaka qilishadi. Telekonferensiyalarda ularning buzib kirishlari haqidagi hikoyalarini o‘qiganingizda bu insonlar o‘z g‘ururlarini haqoratlagan hisli insonlardek tuyuladi. Yana bir guruh bor – kimlarnidir buyurtmalari bo‘yicha maxfiy axborotni olish uchun ov qiluvchi xakerlar.

Xakerliklar orasida to‘rt asosiy toifa ajralib turadi.

Birinchi – ***romantik-yakkalar.*** Ular ma’lumotlar bazasini shunchaki qiziqishga buzishadi. Umuman ular xavfsiz va beg‘araz, biroq ancha qobiliyatli. Shuning uchun ham qandaydir firmaning kompyuter tarmog‘ini massali buzish odatda «romantiklar»dan biri zarar yetkazish va buni o‘z tarmog‘ida maqtanish bilan boshlanadi.

Ikkinchi – ***pragmatiklar yoki klassiklar.*** Bir o‘zlari ham, guruhda ham ishlashadi. Nima kelsa o‘g‘irlashadi – o‘yinlar, dasturlar, turli xildagi nashrlarning elektron versiyalari.

Uchinchi – ***razvedkachilar.*** Hozirda o‘zini hurmat qilgan har qanday firma dasturchi kabi rasmiylashtirilgan xakeriga ega. Uning vazifasi – raqiblarining tarmog‘ini buzish va u yerdan turli axborotni o‘g‘irlash. Bu toifa hozirda juda talabgir hisoblanadi.

To‘rtinchi – ***kibergangsterlar.*** Bular professional kompyuter buzg‘unchilar. Ularning vazifasi kompyuter tarmoqlarini aniq - blokirovkalash va ishini buzish, hamda bank hisob raqamlaridan pullarni o‘g‘irlash. Bu ish qimmat va xavfli, lekin yuqori haq to‘lanadi.

2) Dasturiy ta’minotga «mantiqiy bombalar»ni kiritish. Ular ma’lum vaqtda ishga tushadi va qisman yoki to‘liq kompyuter tizimini ishdan chiqaradi.

«Vaqt bombalari» - ma’lum vaqt momentida ishga tushadigan «mantiqiy bombalar»ning bir turi.

*«Troyan otlari»*ning usuli dastur egalari rejalashtirmagan, yangi funksiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi, biroq shu vaqtning o‘zida oldingi ishlash qobiliyatini saqlovchi komandalarni begona dasturga yashirin holda kiritishdan iboratdir. «Troyan oti» yordamida jinoyatchilar masalan, o‘zlarining hisobiga har bir operatsiyadan ma’lum summani o‘tkazishadi.

«Troyan otlari»ning yana bir turi mavjud. Ularning qobiliyati shundan iboratki, aynan «qora» ishni bajaradigan zararsiz dasturining bir qismi kabi ko‘rinadigan komandalar emas, balki bu komandalarni shakllantiruvchi keyin esa ish bajarilgach ularni o‘chiruvchi komandalar qo‘yiladi. Bu holda «troyan oti»ni topishga urinadigan dasturchi uni o‘zini emas, balki uni shakllantiruvchi komandani izlashi kerak. Bu g‘oyani rivojlantirib, komandalarni yaratuvchi komandalarni va keyinchalik «troyan oti»ni yaratuvchi komandalarni tasavvur qilish mumkin (qancha bo‘lsa shuncha marta).

3) Kompyuter viruslarini tarqatish va ishlab chiqish.

4) Dasturiy-hisoblash komplekslarini ishlab chiqish, tayyorlash va ekspluatatsiya qilishda jinoiy ehtiyotkorsizlik. Kompyuter ehtiyotkorsizligining o‘ziga xosligi shundaki, tamoyilan xatosiz dasturlarning bo‘lmasligidadir. Agarda loyihani texnik sohaning deyarli istalgan sohasida ulkan ishonch bilan bajarib bo‘lsa, unda dasturlash sohasida bunday ishonchlilik shartli, bir qator hollarda esa deyarli yetib bo‘lmasdir.

5) Kompyuter axborotini qalbakilashtirish. Kompyuter jinoyatchiligining bunday ko‘rinishi eng yangilaridan hisoblanadi. Bu ruxsatsiz foydalanishning bir turi hisoblanib, farqli jihati tashqi foydalanuvchi emas, balki yetarlicha yuqori malakaga ega ishlab chiqaruvchi foydalanishi mumkin. Jinoyatning g‘oyasi tarkibiy qismi kompyuter hisoblanuvchi katta tizimlarning ishlash ishga yaroqlilik holatini imitatsiyalash maqsadida kompyuterning chiquvchi axborotlarini qalbakilashtirishdan iborat. Yetarlicha ustalik bilan bajarilgan qalbakilashda buyurtmachiga nosoz mahsulotni berish muvaffaqiyatli amalga oshadi. Axborotni qalbakilashtirishga saylov, ovoz berish, referundumlar va boshqa natijalarni qalbakilashtirish ham kiradi. Agarda har bir ovoz beruvchi uning ovozi to‘g‘ri ro‘yhatga olinganligiga ishonch hosil qilmasa, unda har doim natijaviy protokollarga buzilishlarni kiritish mumkin.

6) Kompyuter axborotini o‘g‘irlash. Agarda «oddiy» o‘g‘irlash mavjud jinoiy qonunlar ostiga tushsa, unda axborotni o‘g‘irlash

muammosi ancha murakkab hisoblanadi. Mashina axborotini, dasturiy ta’minotni ham ruxsatsiz nusxalash yo‘li bilan o‘zlashtirish o‘g‘irlash deb hisoblanmaydi, chunki, o‘g‘irlash degani tashkilot fondidan boyliklarni olish bilan bog‘liq. Mulkka noqonuniy munosabatda bo‘lishda mashina axboroti fondlardan olinmasdan nusxalanishi mumkin.

2.2. Kompyuter jinoyatlarining klassifikatsiyasi

Xorijiy mutaxassislar tomonidan kompyuter jinoyatchiligini sodir etish yo‘llarining turli klassifikatsiyalari ishlab chiqilgan. Quyida Bosh Interpol Sekretariati kodifikatoriga to‘g‘ri keladigan jinoyatlarni sodir etish yo‘llarini nomlari keltirib o‘tilgan. 1991 yilda joriy kodifikator avtomatlashtirilgan qidiruv tizimiga integratsiyalangan edi va hozirda 100 dan ortiq davlatlarda Milliy markaziy byuro (MMB) mavjud.

Kompyuter jinoyatlarini xarakterlovchi barcha kodlar Q harfi bilan boshlanuvchi identifikatorlarga ega. Jinoyatlarni xarakteristikasi uchun sodir etilganlarni ahamiyatliligiga qarab kamayish tartibida joylashtirilgan beshta kodlargacha foydalanilishi mumkin.

QA - Ruxsatsiz kirish va ushlab olish:
QAH – *kompyuterni egallash,*
QAI – *ushlab olish,*
QAT – *vaqtni o‘g‘irlash,*
QAZ - *ushlab olish va ruxsatsiz kirishning boshqa ko‘rinishlari.*

QD – Kompyuter ma’lumotlarini o‘zgartirish:
QDV – *kompyuter virusi,*
QDT – *troyan otlari,*
QDW – *kompyuter chuvalchanglari,*
QDZ – *ma’lumotlarni o‘zgartirishning boshqa ko‘rinishlari.*

QF – Kompyuter firibgarliklari:
QFC – *bankomatlar bilan bog‘liq firibgarliklar,*
QFF – *kompyuter qalbakilashtirilishi,*
QFG – *o‘yin avomatlari bilan bog‘liq firibgarliklar,*
QFM – *kiritish-chiqarish dasturlari firibgarliklari,*
QFP – *to‘lov vositalari firibgarliklari,*
QFT – *telefon firibgarliklari,*
QFZ – *boshqa kompyuter firibgarliklari.*

QR – Noqonuniy nusxalash:
QRG – *kompyuter o‘yinlari*,
QRS – *boshqa dasturiy ta’minotlar*,
QRT - *yarimo‘tkazgich mahsulotlari topografiyasi*,
QRZ - *boshqa noqonuniy nusxalashlar.*

QS – Kompyuter ishini buzish:
QSH – *apparat ta’minoti bilan*,
QSS – *dasturiy ta’minot bilan*,
QSZ – *buzishning boshqa ko‘rinishlari.*

QZ – Boshqa kompyuter jinoyatlari:
QZB - *kompyuter e’lonlar doskalaridan foydalanilgan holda,*
QZE - *tijoriy sirni saqlovchi axborotni o‘g‘irlash,*
QZS - *maxfiy xarakterdagi axborotni uzatish,*
QZZ - *boshqa kompyuter jinoyatlari.*

Keltirilgan kodifikator mos holda kompyuter jinoyatlarini ba’zi ko‘rinishlarini qisqacha xarakterlaymiz.

Axborotni ushlab olish va ruxsatsiz foydalanish (QA) quyidagi kompyuter jinoyatlarining ko‘rinishlarining o‘z ichiga oladi:

QAH – *«Kompyuter egallash» (xaking - haking)* – kompyuter yoki tarmoqqa huquqqa ega bo‘lmasdan foydalanish. Kompyuter jinoyatining bu ko‘rinishi odatda xakerlar tomonidan begona axborot tarmog‘iga kirish uchun foydalaniladi.

QAI – *ushlab olish (interception)* – huquqqa ega bo‘lmagan holda texnik vositalar yordamida ushlab olish. Axborotni ushlab olish tashqi kommunikatsion tizim kanallari orqali yoki qo‘shimcha qurilmalar liniyalariga bevosita ulanish yo‘li orqali amalga oshiriladi.

Bunda bevosita eshitish obyektlari kabel va simli tizimlar, yer mikroto‘lqinli tizimlar, yo‘ldosh aloqa tizimlari, hamda, hukumat maxsus aloqa tizimlari hisoblanadi.

Axborotni ushlab olish va ruxsatsiz foydalanish usullarini xarakteristikasi uchun quyidagi maxsus terminologiya foydalaniladi:

– *“Qo‘ng‘iz” (bugging)* xizmat ko‘rsatuvchi personal suhbatlarini ushlab olish maqsadida kompyuterda mikrofonni o‘rnatish bilan xarakterlanadi;

– *“Ma’lumotlarni yuklab olish” (data leakage)* asosiy ma’lumotlarni, xususan, uni tizimda o‘tish texnologiyasi haqidagi ma’lumotlarni olish uchun kerakli bo‘lgan axborotni yig‘ish imkoniyati;

– *“Axlatni tozalash” (scavening)* foydalanuvchini ishidan keyin qoldirilgan ma’lumotlarni qidiruvi bilan xarakterlanadi. Bu usul ikki ko‘rinishga ega – fizik va elektron. Fizik variantda u axlat savatchalarini tekshirish va unga tashlangan izlarni, yozuvlarni va shu kabilarni yig‘ishga olib kelinishi mumkin. Elektron variant mashina xotirasida qoldirilgan ma’lumotlarni tadqiq qilishni talab etadi;

– *“Ahmoq qilish” (piggbacking)* ham muhit, ham elektron yopiq zonalarga ruxsatsiz kirish bilan xarakterlanadi. Uning mohiyati: agarda kompyuter ishi bilan bog‘liq turli predmetlarni qo‘lga olib, hamda terminal joylashgan yopiq eshik atrofida ish ko‘rinishida yursa, unda qonuniy foydalanuvchini kutib, bino eshigiga u bilan birga kirish mumkin.

– *“Dumidan ushlash” (between the line entry)* qonuniy foydalanuvchi aloqa liniyalariga ulanish mumkin bo‘lgan, hamda, oxirgi faol rejimni tugatganini anglagan holda tizimga ruxsatni amalga oshirish;

– *“Shoshilmasdan tanlash” (browsing).* Bu holda ma’lumotlar bazasiga va qonuniy foydalanuvchi fayllariga ruxsatsiz kirish tizim himoyasining zaif joylarini topish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Qachonlardir ularni aniqlagan holda, buzg‘unchi bemalol tizimda mavjud axborotni o‘qishi va tahlillashi, uni nusxalashi, zarur bo‘lganda unga qaytib kelishi mumkin;

– *“Teshikni qidirish” (trapdoor entry)* dasturni yaratish mantig‘ida muvaffaqiyatsizlik va xatoliklardan foydalaniladi. Aniqlangan teshiklar bir necha marta ekspluatatsiya qilinishi mumkin;

– *“Lyuk” (trapdoor)* oldingisini rivojlangan holati. Topilgan “teshiklar”da dastur “buziladi”, hamda, u yerga ma’lum miqdordagi dastur komandalari qo‘yiladi. Zaruriy holda “lyuk” ochiladi, o‘rnatilgan buyruqlar esa avtomatik tarzda o‘z vazifasini bajaradi;

– *“Ko‘zbo‘yamachilik” (masquerading).* Bu holda buzg‘unchi o‘zini qonuniy foydalanuvchi ko‘rsatib, kerakli vositalardan foydalanib, kompyuter tizimlariga kirib oladi;

– *“Aldov” (spoofing)* tasodifiy holda “begona” tizimga ulanganda foydalaniladi. Buzg‘unchi ishonarli chaqiruvlarni shakllantirib, ma’lum vaqt davomida xato ulangan foydalanuvchini adashtirib, unga foydali bo‘lgan axborotni, masalan, foydalanuvchi kodlarini olishi mumkin.

Kompyuter ma’lumotlarini o‘zgartirish (QD) o‘z ichiga quyidagi jinoyat turlarini oladi:

QDL/QDT – mantiqiy bombalar (logic bomb), troyan otlari (trojan horse) – kompyuter ma’lumotlarini hech qanday huquqqa ega bo‘lmagan holda mantiqiy bombalarni yoki troyan otlarini joriy qilish yo‘li bilan.

Mantiqiy bombalar mohiyati yashirin holda qachondir, biroq ma’lum shartlarda ishga tushishi lozim bo‘lgan komandalar qatorini dasturga kiritishdan iborat.

Troyan otlari mohiyati bir vaqtning o‘zida avvalgi ishlashini saqlagan holda dastur egasi rejalashtirmagan boshqa funksiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi komandalarni begona dasturga yashirin holda kiritishdan iborat.

QDV – virus (virus) – kompyuter virusini kiritish yoki tarqatish yo‘li bilan kompyuter ma’lumotlarini yoki dasturlarini huquqqa ega bo‘lmagan holda o‘zgatirish.

Kompyuter virusi – turli ko‘ngilsiz harakatlarni kompyuterda bajarish uchun o‘zini boshqa dasturlarga kiritishi (ya’ni, “zararlash”), ko‘payishi va yangi viruslarni paydo qilishi mumkin bo‘lgan maxsus yozilgan dastur hisoblanadi.

QDW – ***chuvalchang*** **–** kompyuter tarmog‘ida kompyuter chuvalchangini uzatish, joriy qilish va tarqatish yo‘li bilan huquqqa ega bo‘lmagan holda kompyuter ma’lumotlarini va dasturlarini o‘zgartirish.

Kompyuter firibgarligi (QF) o‘z tarkibiga turli xildagi kompyuter jinoyatlarini sodir etish yo‘llarini oladi:

QFC – bankomatlardan naqd pullarni o‘marish bilan bog‘liq kompyuter firibgarligi.

QFF – kompyuter qalbakilashtirish – qalbaki qurilmalar yaratish yo‘li bilan kompyuter tizimlaridan o‘g‘irlash va firibgarlik.

QFG – o‘yin avtomatlari bilan bog‘liq o‘g‘irliklar va firibgarliklar.

QFM – kiritish-chiqarish dasturlarini manipulyatsiyasi – kompyuter tizimlariga noto‘g‘ri kiritish yoki chiqarish vositasida yoki dasturlarni manipulyatsiya qilish yo‘li bilan ulardan o‘g‘irlash va firibgarlik. Kompyuter jinoyatlarining bu ko‘rinishi odatda ma’lumotlarni kiritish-chiqarishda amalga oshiriladigan ma’lumot kodni (data diddling code change) almashtirish usulini o‘z ichiga oladi. Bu sodda va shu sababli ham ko‘pincha qo‘llaniladigan usuldir.

QFP – to‘lov vositalari bilan bog‘liq kompyuter firibgarliklari va o‘g‘irliklar. EHM dan foydalanilib sodir etilgan barcha jinoyatlarning

45% ini tashkil etadigan pul vositalarini o‘g‘irlash bilan bog‘liq eng ko‘p tarqalgan kompyuter jinoyatlari kiradi.

QFT - telefon firibgarligi – telefon tizimlariga xizmat ko‘rsatuvchi kompyuterlarni tadbirlari va protokollariga dahl qilish yo‘li bilan telekommunikatsion xizmatlarga ruxsat.

Kompyuter sabotaji (QS) quyidagi jinoyatning ko‘rinishlaridan tarkib topgan:

QRG/QRS – qonun bilan himoyalangan kompyuter o‘yinlarini va boshqa dasturiy ta’minotlarni noqonuniy nusxalash, tarqatish yoki e’lon qilish.

QRT –topografiya qonuni bilan himoyalangan yarim o‘tkazgichli mahsulotlarni huquqqa ega bo‘lmagan holda nusxalash – noqonuniy tarzda yarim o‘tkazgichli mahsulotlar topografiyasini nusxalash, joriy topografiyadan foydalanib, ishlab chiqilgan topografiyaga yoki yarim o‘tkazgichli mahsulotning o‘ziga huquqqa ega bo‘lmagan holda tijoriy ekspluatatsiya qilish yoki shu maqsadda import qilish.

Kompyuter sabotaji (QS) quyidagi ko‘rinishdagi jinoyatlardan tarkib topgan:

QSH – apparatli ta’minotdan foydalanib sabotaj uyushtirish: kiritish, o‘zgartirish, o‘chirish, kompyuter ma’lumotlarini yoki dasturlarini so‘ndirish; kompyuter yoki telekommunikatsion tizimlarini ishlashiga xalaqit qilish maqsadida kompyuter tizimlari ishiga aralashish.

QSS – dasturiy ta’minotga ega kompyuter sabotaji – huquqqa ega bo‘lmagan holda kompyuter ma’lumotlarini yoki dasturlarini o‘chirish, zarar yetkazish, yomonlashtirish yoki so‘ndirish.

Kompyuter jinoyatlarining boshqa ko‘rinishlariga klassifikatorda quyidagilar kiritilgan:

QZB – jinoiy faoliyatga taalluqli materiallarni saqlash, almashinish va tarqatish uchun elektron e’lonlar doskasidan foydalanish (BBS);

QZE – tijoriy sir hisoblangan axborotni o‘g‘irlash – iqtisodiy zarar yetkazish yoki noqonuniy iqtisodiy ustunlikka ega bo‘lish maqsadida u yoki bu asosga, huquqqa ega bo‘lmagan holda tijoriy sir hisoblangan axborotni uzatish yoki noqonuniy vositalar bilan o‘zlashtirish;

QZS – maxfiy xarakterdagi axborotni saqlash, almashinish, tarqatish yoki ko‘chirish uchun kompyuter tarmoqlari yoki tizimlaridan foydalanish.

2.3. Kompyuter jinoyatchilarining odatiy ko‘rinishlari

Ehtimoliy jinoyatchi baholab turib, uning AT sohasidagi bilim darajasini o‘rnatish juda muhim sanaladi. Agar shubha ostidagi shaxsning malakasi noma’lum bo‘lsa, uni yuqori deb hisoblash lozim.

Mutaxassis yoki izlanuvchi shubha ostidagi shaxs oldida AT sohasidagi malaka darajasini yashirishdan maqsadlari mos keladi. Misol keltiramiz. Tergov vaqtida mutaxassis kompyuterni ola turib, shtatli o‘chirish muolajasini yoki qo‘pol tarzda kompyuterni elektr manbaidan uzishi lozimligi masalasini yechishi kerak. Boshqa tomondan qo‘pol tarzdagi manbadan uzish natijasida unchalik muhim bo‘lmagan ma’lumotlarning bir qismi yo‘qotilishi mumkin. Biroq yaxshisi ularni saqlab qolishdir. Boshqa tomondan esa ba’zi xakerlarda (bu so‘zning yomon ma’nosida) kompyuterni o‘chirish buyrug‘i (shutdown) bilan bog‘liq ishga tushuvchi mantiqiy bombalar bilan o‘z kompyuterini qurollantirish odati ham bor. Shuning uchun ham shtatli o‘chirishda o‘z qo‘llaringiz bilan barcha dalillarni yo‘q qilish riski ham mavjud. Qaysi variantni tanlashni kompyuterning egasini malaka darajasiga qarab baholashimizga bog‘liq. Bu darajani baholashning iloji bo‘lmaganda kompyuter elektr manbasidan uzish orqali o‘chiriladi, ya’ni mantiqiy bomba mavjud deb hisoblanadi.

Bir nechta ko‘p uchraydigan kompyuter jinoyatchilarining ko‘rinishlari tavsifini keltiramiz:

1. «Xaker». Bu toifadagi buzg‘unchilarning asosiy motivatsiyasi quyidagilardan iborat: izlanuvchilik qiziqishi, qiziquvchanlik, o‘zining imkoniyatlarini isbot qilishga intilish. Kompyuter axborotini himoyalash vositalarini, ularning foydalanib bo‘lmasligini ular o‘zlarining qobiliyatlariga qarshi chaqiruvdek qabul qilishadi. Ba’zi bir izlanuvchilar bu toifadagilarning zaruriy jihati AT sohasidagi bilimlar va dasturlash deb hisoblashadi.

2. «Insayder». Kompyuter buzg‘unchisining kengroq tarqalgan toifasiga AT sohasini yaxshi bilmaydigan, lekin xizmatdagi axborot tizimiga ruxsatga ega inson kiradi. Umuman allaqachon tasdiqlanganki, kompyuter tizimlarining “buzilishi”ning katta qismi ichkaridan amalga oshiriladi. Bu haqaiatdan ham shunday. Shuning uchun ham huquqqa ega bo‘lmagan “insayder” ruxsati tergov qilishda birinchi ko‘riladigan versiya hisoblanadi. Hattoki, agarda huquqqa ega bo‘lmagan holda ruxsat tashqaridan bo‘lganda ham, uning iloji ichkaridagi xodim bilan kelishilishi evaziga amalga oshirishga mumkin bo‘lgan.

Oddiy “insayder” kompyuter jinoyatini (shaxsan yoki “tashqi” sherik bilan hamkorligi shaklida) o‘z xizmat mavqei sababli olingan ma’lumolardan foydalanilish bilan amalga oshiradi.

3. «Oq yoqa». Jinoyatchilarning bu toifasi eskidan yaxshi ma’lum bo‘lgan, biroq o‘z faoliyatlarining qurollarini kompyuterga almashtirgan g‘azna o‘g‘rilaridir. Davlatni yoki xususiy kompaniyani o‘marishning yuzlab usullari mavjud. Banal o‘g‘rilikdan tashqari bunga pora berishlar, tijoriy sotib olish, tijoriy sir hisoblangan axborotdan noqonuniy foydalanish, firibgarlikning turli ko‘rinishlari va shu kabilar. «Insayder»dan farqli bu toifadagi buzg‘unchi AT sohasida minimal malakaga ega bo‘ladi va kompyuterni jinoyatni sodir etish quroli sifatida foydalanmaydi. Kompyuter bu yerda jinoyat dalillarni, izlarni saqlovchi vazifasinigina bajaradi.

«Oq yoqa»larni sabablar bo‘yicha uch guruhga ajratish mumkin:

1) O‘z vakolatlarini suiste’mol qiluvchi xodim kompaniya yoki rahbariyatga bo‘lgan ginalari sababli. Ularni uzoq vaqt ishlagan xodimlar orasidan qidirish lozim.

2) Axloqsiz, imkoniyat tug‘ilgani sababligina o‘g‘irlik qiluvchi vijdonsiz qaroqchilar. Bu toifadagi «oq yoqa»lar uchun buzg‘unchilikning boshlangunicha lavozimda uzoq vaqt xizmat qilinmagani bilan xarakterli.

3) Og‘ir moddiy muhtojlikka, o‘g‘irlik yoki firibgarlik qilishni talab qiluvchi shaxsdan moddiy yoki boshqa bog‘liqlikka tushib qolgan zo‘ravon qaroqchilar. Bunday muammolarni atrofdagilardan yashirish qiyin – katta yutqazish, norkomaniya, oilaviy inqiroz, biznesdagi omadsizliklar. Bu guruh qaroqchilari unchalik ehtiyotkor emas, ular birinchi va ikkinchi toifadagi qaroqchilar kabi jinoyatga uzoq vaqt tayyorlanmaydi.

4. «E_tadbirkor». Bu toifadagi ehtimoliy jinoyatchi malakali AT-mutaxassisi emas va suiste’mol qilishi mumkin bo‘lgan lavozimga ham ega emas. Bu toifadagi jinoyatchilar boshidan aynan jinoiy faoliyatni rejalashtirishadi, uning noqonuniyligini juda yaxshi bilishadi. Oflayn emas, aynan kompyuter (tarmoq) muhitida huquqbuzarlik qilish qaroriga bu sohani yaxshi bilgani va kompyuterga ichki turtkisi bo‘lgani uchun emas, balki istisno tarzida ratsional tahlillash asosida keladi. «E_tadbirkor» shaxsining jihati tashkiliy qobiliyatlarning va tashabbuskorlikning borligi hisoblanadi.

5. «Ijtimoiy qarshi toifa». Yana faqatgina foyda olishga qaramaydigan internet firibgarliklari ham aniqlangan. Bundan tashqari

ularning jinoiy daromadi odatda o‘sha malakadagi mutaxassisning o‘rtacha oyligidan kam bo‘lgan. Firibgarlik qilishning sababi bunday shaxslarning jamiyatga qarshi psixopatiyasi (*sotsiopatiya*) va ularning bunday “o‘yinlarga” patologik tortishishi hisoblanadi.

Sotsiopatiya psixik tushkunlikning alohida ko‘rinishi deb tan olingan va bunday toifadagilar impulsiv harakat qilishadi hamda rejalashtirishga moyil emas, ayniqsa uzoq muddatga. Bunday tushkunlik umuman olganda odatda nafaqat kompyuter jinoyatini qilishga, balki firibgarlik qilishdan ko‘ra zo‘ravonlikka olib keladi.

2.4. Kompyuter jinoyatlarini sodir etilish yo‘llari

Jinoyatni sodir etish yo‘llari deyilganda odatda kriminalistik usullar va vositalar yordamida sodir bo‘lgan hodisa haqidagi tasavvurni, qonunbuzarning o‘ziga xos jinoiy harakatini, uning alohida shaxsiy ma’lumotlarini olish va mos holda jinoyatni fosh etish vazifasini yechishning eng optimal usullarini aniqlash imkonini beradigan turli xarakterli izlarni qoldiruvchi jinoyat sodir etilguncha, sodir etilish vaqtida hamda sodir etilgandan so‘ng subyekt axloqining obyektiv va subyektiv asostangan tizimi tushuniladi.

Kompyuter jinoyatlarini sodir etish yo‘llarini beshta asosiy guruhga sinflashtirish mumkin:

1. Kompyuter texnikasini olib qo‘yish.
2. Axborotni ushlab olish.
3. Ruxsatsiz kirish yoki foydalanish.
4. Ma’lumolar va boshqaruv buyruqlarini manipulyatsiyasi.
5. Kompleks usullar.

Birinchi guruhga jinoyatchining harakatlari begona mulkni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan jinoyatning oddiy ko‘rinishlarini sodir etishning odatiy yo‘llari kiradi. Kompyuter jinoyatining sodir etish yo‘llarining bu guruhining xarakterli farqli jihati shuki, bunda kompyuter texnikasi vositalari faqat jinoiy daxl qilish predmeti sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchi guruhga audiovizual va elektromagnit ushlab olish usullaridan foydalanish vositasida ma’lumotlarni va mashina axborotini olishga yo‘naltirilgan jinoyat harakatiga asoslangan kompyuter jinoyatlarini sodir etish yo‘llari kiradi (5-rasm).

Faol ushlab olish (interception) kompyuterning telekommunikatsion qurilmasiga ulanish yordamida amalga oshiriladi,

masalan, aloqa kanalining telefon simi yoki printer liniyalari, yoki bevosita personal kompyuter mos porti orqali.

Passiv ushlab olish (elektromagnitli, electromagnetic pickup) ko‘plab kompyuter texnikasi vositalari, kommunikatsiya vositalari bilan birga ishlashida paydo bo‘luvchi elektromagnit nurlanishni aniqlashga asoslangan. Shunday qilib, masalan, displeyning elektron-nurli trubkasini nurlanishini 1000 m gacha masofada maxsus qurilmalar yordamida qabul qilish mumkin.



5-rasm. Faol va passiv ushlab olish

Audio ushlab olish yoki axborotni vibroakustik kanal bo‘yicha olish xavfli va yetarlicha keng tarqalgan yo‘l bo‘lib, ikki turga ega. Birinchisining mohiyati axborotni qayta ishlash vositasi apparaturasiga eshituvchi qurilmani o‘rnatishga, ikkinchisiniki esa qo‘riqlanuvchi xona doirasida injinerli-texnik konstruksiyaga mikrofon o‘rnatishdan iborat (devorlar, oyna romlari va shu kabilar).

Video ushlab olish turli videooptik texnikalardan foydalanish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

“Axlatni tozalash” (*scavening*) axborot ushlab olishning yetarlicha original yo‘llaridan iborat. Jinoyatchilar foydalanuvchi tomonidan kompyuter texnikasi bilan ishlashdan keyin qoldirilgan

axborot jarayonining texnologik chiqindilaridan huquqqa ega bo‘lmagan holda foydalanishadi. Masalan, hattoki xotiradan va kompyuterning qattiq diskidan hamda disketalardan o‘chirilgan axborot ham maxsus dasturiy vositalar yordamida qayta tiklanishi va ruxsatsiz olinishi mumkin.

Kompyuter jinoyatlarini sodir etish yo‘llarining *uchinchi guruhiga* axborotni ruxsatsiz olishga yo‘naltirilgan jinoyatchining harakatlari kiradi. Ularga quyidagi yo‘llar taalluqli:

1. “Kompyuter abordaje” (*hacking*). Kompyuter yoki kompyuter tarmog‘iga huquqqa ega bo‘lmagan holda ruxsatsiz kirishning bu yo‘li xakerlar tomonidan begona kompyuter tarmog‘iga kirish uchun foydalaniladi.

Jinoyat odatda modem qurilmasidan foydalanilib, kompyuter tizimining abonent raqamini tasodifiy terish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ba’zida bu maqsadlar uchun maxsus yaratilgan parolni avtomatik qidirish dasturidan foydalaniladi. Bu dasturning algoritmi zamonaviy kompyuterlarning tezligini hisobga olgan holda harflar, raqamlar va maxsus simvollarning barcha kombinatsiyalarini terish va simvollar kombinatsiyasi mos kelgan holda ko‘rsatilgan abonentlarni avtomatik ulanishini hosil qilishdan iborat.

Oddiy terish yo‘li bilan parolni topish bo‘yicha tajribalar shuni ko‘rsatdiki, 6 simvolli parollar 6 kun uzluksiz kompyuter ishlaganda topiladi. Elementar hisob-kitob shuni ko‘rsatadiki, 7 simvolli parollarni terish uchun ingliz tili uchun 150 kundan va rus tili uchun 200 kungacha vaqt kerak bo‘ladi. Agarda harflarning registrini hisobga olinsa, bu raqamlarni 2 ga ko‘paytirish kerak bo‘ladi. Shunday qilib, oddiy terish usuli juda qiyin hisoblanadi. Shuning uchun ham oxirgi vaqtlarda jinoyatchilar tomonidan oldindan aniqlangan unga aloqador narsalarning mavzuga oid guruhlaridan kelib chiqib taklif etiluvchi parollarni terishga asoslangan “intellektual terish” usuli faol foydalanilmoqda. Bu holda *buzg‘unchi* – dasturga parol muallifi shaxsi haqidagi ba’zi joriy ma’lumotlar beriladi. Mutaxassislarning baholashi bo‘yicha bu simvollarni terish variantlarini sonini o‘n marta va shunchaga terish vaqtini ham qisqartirish imkonini beradi.

Xakerlar razvedka axborotlari va ehtimoliy raqiblarini kompyuter tarmoqlari hamda tizimlari haqidagi ma’lumotlardan yig‘ish bosqichida samaraliroq foydalanishi mumkin.

Ular allaqachon parollarni topish va fosh etish, himoya tizimlari zaif joylaridan foydalanish, qonuniy foydalanuvchilarni aldash va

kompyuter dasturiy ta’minotiga viruslarni, “troyan otlarini” va shu kabilarni kiritish bo‘yicha yetarlicha malaka to‘plashgan. Kompyuter tarmog‘i va tizimiga qonuniy foydalanuvchi ko‘rinshida kirish san’ati xakerlarga o‘z faoliyatining izlarini to‘liq o‘chirish imkoniyatini beradi, bu muvaffaqiyatli razvedka faoliyati uchun katta ahamiyat kasb etadi. Qonuniy foydalanuvchi imitatsiyasi razvedkachi-xakerga axborotning qonuniy foydalanuvchisi huquqi bilan raqib tarmog‘ida kuzatish tizimini shakllantirish imkoniyatini beradi.

2. “Axmoq qilish” (*piggybacking*). Bu yo‘l jinoyatchi tomonidan kompyuter texnikasi vositalari ishiga javobgar xodim qisqa vaqtga terminalni faol rejimda qoldirgan holda tark etgan vaqtda, kommunikatsion apparatura orqali aloqa kanaliga kompyuter terminalini ulash yo‘li bilan foydalaniladi.

3. “Qo‘lga tushurish” (*between-the-lines entry*). Bunda jinoyatchi qonuniy foydalanuvchi aloqa liniyasiga ulanadi va ish tuguganini bildiruvchi signalni kutadi, uni ushlab oladi hamda tizimga kirishni amalga oshiradi.

4. Shoshilinch bo‘lmagan tanlov (*browsing*). Jinoyatni sodir etishning bu yo‘lida jinoyatchi tizimda zaif joylarni topish yo‘li bilan kompyuter tizimiga ruxatsiz kirishni amalga oshiradi.

Bu yo‘l xakerlar orasida keng tarqalgan. Internetda va boshqa global kompyuter tarmoqlarda doimiy ravishda qidiruv, almashinuv, sotish va sotib olishlar xakerlar tomonidan buzilgan dasturlar orqali boradi. Maxsus telekonferensiyalar mavjud bo‘lib, ularda buzg‘unchi dasturlar, ularni yaratish va tarqatish muhokama qilinadi.

5. “Teshik” (*trapdoor entry*). “Shoshilinch bo‘lmagan tanlov”dan farqli kompyuter tizimi himoyasida zaif joylar qidiruvi amalga oshirilganda bu yo‘lda jinoyatchi qidiruvni konkretizatsiyasini amalga oshiradi: dastur xatoliklari yoki uni qurishdagi mantiqsizliklarga ega joylari qidiriladi. “Teshik”ni bunday aniqlanishi jinoyatchi tomonidan aniqlanmaguncha ko‘p marta foydalanilishi mumkin.

6. “Lyuk” (*trapdoor*). Bu yo‘l odingisini mantiqiy davomi hisoblanadi. Topilgan “teshik”ning joyida dastur “uziladi” va u yerga jinoyatchi tomonidan qo‘shimcha bir yoki bir nechta buyruqlar kiritiladi. Bunday “lyuk” zaruratga ko‘ra “ochiladi”, kiritilgan buyruqlar esa avtomatik tarzda bajariladi.

Kompyuter jinoyatini sodir etish yo‘llarining *to‘rtinchi guruhiga* jinoyatchining ma’lumotlarni manipulyatsiyalash usullari va kompyuter texnikasi vositasini boshqarish buyruqlaridan foydalanish bilan bog‘liq

harakatlari taalluqlidir. Bu usullar jinoyatchilar tomonidan odatda turlicha bo‘lgan huquqbuzarlik faoliyatlari uchun foydalanishi mumkin va kompyuter jinoyati bilan kurashish bo‘yicha ixtisoslashgan huquq-tartibot organlari idoralari xodimlariga yetarlicha yaxshi ma’lum.

Yo‘llarning beshinchi guruhi – kompleks usullar – kompyuter jinoyatlarini yuqorida ko‘rilgan sodir etish usullarining turli kombinatsiyalarini o‘z ichiga oladi.

Aytib o‘tish joizki, yuqori ko‘rilgan sinflashtirish aytilganidek yagona hisoblanmaydi. Xalqaro sinflashtirish bo‘yicha kompyuter tizimni ishdan chiqishiga olib keluvchi apparatli yoki dasturiy ta’minotli ***kompyuter sabotaji*** kabi yo‘llarni alohida guruhga ajratish qabul qilingan. Ahamiyatliroq kompyuter jinoyatlari dasturiy ta’minotni buzish vositasida sodir etiladi, odatda bu jinoyatni o‘zining xizmat lavozimidan, rahbariyat munosabatidan va shu kabilardan qoniqmagan ishchilar sodir etishadi.

2.5. Kompyuter jinoyatlarining turlari

Onlayn- firibgarlik. Internet-do‘kon kabi savdo-sotiqning bunday shakli bir qator sabablarga ko‘ra tadbirkorlar orasida keng qo‘llaniladi. Bu xususan, savdo-sotiq tashkillashtirishda harakatlarning kamligi bilan farqlanadi. Bek-ofisga muvofiq veb-saytlarning narhini haqiqiy savdo-sotiq maydoni tarkibi narhi bilan solishtirib bo‘lmaydi. Undan tashqari internet-do‘konlarining joriy harajatlari uning aylanmasiga bog‘liqligi, agarda proporsionalga juda yaqin bo‘lmasa, unda haqiqiy do‘kon bilan solishtirganda sezilarli darajada unga yaqin. Bu degani, agarda xaridorlarning yo‘qligida zararlar unchalik katta bo‘lmaydi. Masalan, tayyor, stabil ishlaydigan internet-do‘konning narhi 15-20 ming dollardan boshlanadi. Haqiqiy (oflayn) do‘kon bilan solishtirganda, ayniqsa katta shaharda bu shunchaki kichik puldir. Aynan internet-savdoning shu hususiyati bu yerga firibgarlarni jalb qildi. Buzg‘unchi uncha katta bo‘lmagan summani sarf qilib, normal tijoriy korxona ko‘rinishini yaratib, firibgarlik bilan yoki iste’molchilarni aldash bilan shug‘ullanishi mumkin. O‘nlab boshqa o‘ljalar to‘liq qilingan harajatlarni to‘lashadi.

Qalbaki internet-do‘konlardan tashqari firibgarlar to‘lovlarni olish uchun boshqa narsalardan ham foydalanishadi:

– xayriya, diniy tashkilotlarining, xayriya yig‘uvchi siyosiy partiyalar va harakatlarning yolg‘on saytlari;

– bechora yetimlar, urush qurbonlari, mahbuslar va shu kabilar haqidagi rahmni keltiruvchi hikoyalar ostida moddiy yordam koʻrsatish toʻgʻrisida iltimoslarga ega saytlar va spam-xabarlar;

– yolgʻon nikoh agentliklarining va alohida virtual kelinlarning saytlari;

– omonatlar boʻyicha katta foizlar vaʼda qiluvchi firibgar onlayn "banklar" va "investitsion fondlar";

– pullaringizni koʻpaytirish imkonini beruvchi toʻlov tizimlarining qora tuynuklari va zaifliklari aniqlanganligi toʻgʻrisidagi saytlar va havolalar, ularni oʻziga xos hisob raqamiga joʻnatish orqali (oʻljaning fikricha huddiki u aldoqchini aldayotgandek oʻylaydi deb hisoblanadigan asosga qurilgan firibgarlikning II tartibi ham);

– masofaviy ishni taklif qiluvchi va buning evaziga qandaydir "kirish toʻlovi" talab qiluvchi havolalar va firibgarlik saytlari.

Barcha onlayn-firibgarliklarning sxemasi quyidagicha:

– axborotni (havola) joylashtirish;

– oʻlja bilan oʻzaro aloqa qilish;

– pul oʻtkazilishini olish.

Barcha uch bosqich texnik xarakterdagi koʻrinarli izlar qoldirilishni nazarda tutadi. Firibgarlar ochiqdan-oydin oʻzlarini anonimlashtirish uchun choralar koʻrishadi. Firibgarlarni pullarni olishga nisbatan anonimlashtirishdan tashqari tezlik qutqaradi: olingan vositalarni turli toʻlov tizimlari orasida oʻtkazish yetarlicha tez amalga oshiriladi, biroq kuzatish uchun koʻp vaqt talab qilinadi.

Firibgarlar tomonidan qalbaki internet-doʻkon joylashtirilganda quyidagi koʻrinishdagi izlar aniqlanilishi mumkin:

– domen nomiga qayd maʼlumotlari; domen nomlari registratori bilan aloqa loglari; bu registratorga toʻlovlar qilish izlari;

– firibgarlarning domenini qoʻllab-quvvatlovchi DNS-serverlarini sozlashdagi izlar;

– veb-sayt joylashgan xosting-provayder bilan aloqa qilishizlari: buyurtma, toʻlov, sozlash, kontentni chiqib ketishi;

– veb-saytni reklama qilish izlari: reklama maydonlari, banner almashinish tizimlari, spam havolalar bilan aloqa;

– saytda foydalanuvchilar faolligini kuzatish izlari.

Firibgarlar aldov oʻljalari yuilag aloqa qilganda quyidagicha izlar qoldiradi:

– elektron pochta bo‘yicha, ICQ bo‘yicha, veb shakl orqali buyurtmalarni qabul qilishdagi izlar;

– potensial o‘ljalar bilan yozishuvlar izlari.

Pullarni olishda firibgarlar quyidagi izlarni qoldirishadi:

– to‘lov tizimiga pullarni kiritishdagi izlar (o‘lja ko‘rsatadigan rekvizitlar);

– firibgarliklar nazorat qiladigan hisoblar orasidagi pullarni o‘tkazishdagi izlar;

– firibgarliklarni o‘z hisoblarini masofadan boshqarish, ularni ochish va yopishdagi izlar;

– firibgarlarni vositachi bilan pullarni naqd qilish va olish bo‘yicha aloqa qilishdagi izlar.

DoS va DDoS hujumlari. DoS va DDoS hujumlari yoki “xizmatdan voz kechish” toifasidagi hujumlar huquqqa ega bo‘lmagan holda ruxsat olish ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, aynan axboroni bloklanishiga va kompyuter tizimlari hamda tarmoqlari ishini buzilishiga olib keladi. Xuquqqa ega bo‘lmagan holda ruxsat olishning boshqa ko‘rinishlari (axborotni nusxalash, axborotni yo‘q qilish) hamda zararkunanda dasturlardan foydalanish DoS-hujumlarni amalga oshirish bosqichlari bo‘lishi mumkin.

Bunday hujumlarni ikki toifaga ajratish qabul qilingan: hujum qilinayotgan tizimlarning zaifliklaridan foydalaniladigan hujumlar va zaifliklardan foydalanmaydigan hujumlar. Ikkinchi holatda hujumning o‘ziga xos “ta’sir qiluvchi faktor” hujum qilinayotgan tizimning resurslarini – protsessorni, tezkor xotirani, diskni, kanalning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini qayta yuklash hisoblanadi.

Hozirda ham shaxsiy, ham g‘arazli DoS va DDoS hujumlari uchraydi (6-rasm).

Avvaliga shaxsiy adovatlar ustunlik qilardi. Biroq hozirda dahl qilish yoki vijdonsizlik, raqobat maqsadida g‘arazli niyatlarda DoS hujumlarining sonini o‘sish aniq tendensiyasi kuzatilmoqda.

Oddiy veb-saytga DoS-hujumini uyushtirish qiyin vazifa emas, o‘zida o‘rtacha qurollariga va aloqa kanalining o‘rtacha kengligiga ega o‘rta malakali AT-mutaxassisini qo‘lidan keladi.

Shunday qilib, DoS-hujumlari bilan bog‘liq ikki toifadagi jinoyatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin – hujum qilinayotgan resurs egasi yoki foydalanuvchisiga ko‘ngilsizlik yaratish uchun va pul olish maqsadida.



6- rasm. DDoS hujumining arxitekturasi

Birinchi holda, bo‘hton va haqoratdagi kabi “jabrdiydani” izlash lozim. Bunda bevosita bajaruvchi o‘zi ham yoki yollangan mutaxassis ham bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi holda, biz sovuqqon jinoiy hisob-kitob bilan duch kelamiz va jinoyat oflayn zo‘ravonlik yoki adolatsiz raqobatdan deyarli farqlanmaydi. Ehtimoliy “ye-biznesmen” jinoyatchi toifasi yuqorida “Ehtimoliy jinoyatchining shaxsi” bo‘limida tavsiflangan. Ko‘p hollarda jabrdiyda yuridik shaxs bo‘ladi.

Tijoriy tashkilotlar juda kam hollarda rasmiy tergovlarda qiziqish bildirishadi, chunki ular uchun xavfni bartaraf etish va zararlarni minimallashtirish asosiy hisoblanadi. G‘arazli niyatdagilarni jazolashdan ular o‘zlari hech qanday foyda topishmaydi. Sud jarayonida jabrdiyda rolida ishtirok etish odatda ish tajribasiga salbiy akslanadi.

DoS va DDoS hujumlarini o‘tkazishda va tayyorgarlik ko‘rishda quyidagi ko‘rinishdagi texnik xarakerdagi izlar shakllanadi:

- hujum instrumentariyalarini mavjudligi – g‘arazli niyatdagilarning kompyuterlari yoki ko‘proq bu maqsadda foydalaniluvchi begona kompyuterlarga o‘rnatilgan dasturiy vositalar (agentlar), hamda agentlarni boshqarish vositalari;
- intsrumentariyni olish, sinash, qidirish izlari;
- hujum uyushtirilgan tarmoq orqali aloqa operatorlarining loglari (ustunli trafik statistikasi);

- himoyaning texnik vositalarini loglari – trafik anomaliyalari va hujumlar detektorlari, buzib kirishlarni aniqlash tizimlari, anifludli filtrlarga ixtisoslashgan tarmoqlararo ekranlar;
- hujumni qaytarish, qarshi choralarni ishlab chiqish, insidentni tergov qilishda aloqa operatorlari texnik mutaxassislaridan maxsus olingan loglar, trafik namunalar va boshqa ma'lumotlari;
- shubhalanuvchining (hujumni buyurtmachisi) hujumni amalga oshiruvchi reklamalari, uning yozishuvlari va bajaruvchi bilan pul hisob-kitoblarini o'rganishdagi izlar;
- haqiqiylikka ishonch hosil qilish uchun hujum vaqtida hujum qilinayotgan resurslarga shubhalaniluvchi nazorat murojaatlaridagi izlar.

Tarmoq trafigidagi anomaliyalar tahlili – DDoS-hujumlarni aniqlashning yagona samarali usuli. Himoya nuqtai-nazaridan DDoS-hujumlari eng qiyin tarmoq tahdidlaridan biri hisoblanadi, shuning uchun ham samarali qarshi chora ko'rish internetga bog'liq faoliyat tashkilotlari uchun juda murakkab vazifa hisoblanadi. DDoS-hujumlar aniqlash va bartaraf etish juda qiyindir, chunki "zararli" paketlar "qonuniy" paketlardan farqlanmaydi. Tarmoqlararo ekran, "qor tuynukka" marshrutizatsiya va buzib kirishlarni aniqlash tizimlari (IDS) kabi tarmoq perimetrining xavfsizligini ta'minlash uchun odatiy texnik yechimlar va tarmoq qurilmalari tarmoq xavfsizligi umumiy strategiyasining muhim komponentlari hisoblanadi, biroq faqatgina bu qurilmalar DDoS-hujumidan to'liq himoyani ta'minlamaydi.

"Qora tuynukka" marshrutlash. "Qora tuynukka" marshrutlash jarayoni iloji boricha oldingi nuqtada maqsadli obyektga yo'naltirilgan umumiy trafikni bloklash uchun provayder xizmatlari qo'llaniladi. "Marshrutdan olingan" trafik provayder tarmog'i va boshqa mijozlarni himoyalash uchun "qora tuynukka" yo'naltiriladi. "Qora tuynukka" marshrutlashni samarali yechim deb bo'lmaydi, chunki g'arazli hujum trafikidan ishonchli paketlar ham yaroqsiz holatga keladi. Jabrdiydalar o'z trafiklaridan to'liq ayrilishadi va xaker g'alabani nishonlaydi.

Kompyuter tizimlari va vositalarining o‘ziga xos xususiyatlari chet el amaliyotida raqamli dalillarning maxsus sinfining ajralishiga va u bilan ishlash metodlari va texnikasi tasvirlanishiga sabab bo‘ldi. Asl raqamli dalilni, uning dublikatini va nusxasini ajratib ko‘rsatish kerak. Original raqamli dalillar ushbu tashuvchilar bilan bog‘liq holda olib qo‘yilgan (qabul qilingan) vaqtidagi moddiy tashuvchidir va bunday axborot obyektlari hisoblanadi. Duplikat - asl moddiy muhitda saqlanuvchi barcha axborot obyektlarining to‘liq raqamli qayta ishlangan variantidir. Nusxa esa moddiy vositadan mustaqil ravishda axborot obyektlarida joylashgan ma’lumotlarning aniq ko‘rinishidir.

Agar kompyuter texnologiyalari bilan ishlash jarayonida shakllanadigan axborot materiallarini alohida guruhga aylantiradigan bo‘lsak, ularni "axborot texnologiyalari" deb atash maqbuldir, chunki ushbu izlarning shakllanishi axborot texnologiyalarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi va ularni axborot texnologiyalari yordamida barcha uchun tushunarli shaklga keltirish mumkin. Kriminalistika nuqtai nazaridan bunday izlar qurollar, asboblar va mexanizmlar izlariga yaqin, chunki turli xil axborot texnologiyalari vosita sifatida ishlatiladi va muayyan foydalanuvchi harakatlarini bajarishda raqamli shaklda taqdim etilgan va saqlash vositasining xususiyatlarini va holatini o‘zgartirish orqali qayd etilgan ma’lumotlarning aniqligi ma’lum algoritm va qonuniyatlarga asosan shakllantiriladi.

Hozirgi vaqtda axborotni yozishning turli xil usullari va shunga muvofiq turli xil saqlash uskunalari va tashuvchi vositalari mavjud *:* qattiq magnit disklar, tezkor xotira, flesh xotira, optik va magneto-optik disklar.

Energiya bog‘liqligi prinsipiga ko‘ra, axborotni saqlash qurilmalari ikki turga bo‘lingan: energiyaga bog‘liq (tezkor xotira) va energiyaga bog‘liq bo‘lmagan (qattiq magnit disklar, flesh xotira, optik va magneto-optik disklar). Quvvat o‘chirilganda, energiyaga bog‘liq xotira o‘chiriladi, energiyaga bog‘liq bo‘lmagan xotiralar esa quvvat yopilganda ma’lumotni saqlaydi.

Axborotni saqlash uchun yozib oluvchi qurilmalar barqarorligiga ko‘ra, doimiy saqlash qurilmalariga (BIOS); yoziladigan (CD-R); ko‘p marta qayta yoziladigan (CD-RW, DVD-RW, qattiq magnit disklar, flesh xotira); operativ qurilmalarga bo‘linadi.

Saqlash uskunalari boshqa asoslarga ko‘ra tasniflanishi mumkin, ammo ular ushbu obyektlar bo‘yicha tadqiq qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini va qo‘llanilgan texnik vositalarni aniqlaydi. Axborotni saqlash qurilmalarini olib tashlashda, birinchi navbatda, energiyaga bog‘liq bo‘lgan xotira ichidagi ma’lumotlarni olib tashlash va saqlash tartibini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Kirish qurilmalari kiruvchi buyruqlarni ishlash uchun qulay bo‘lgan formaga aylantirish uchun mo‘ljallangan. Ularga klaviaturalar, manipulyatorlar, sensorli ekranli planshetlar (mobil qurilmalar bilan adashtirmaslik), interfaol dosklar, skanerlar, veb-kameralar, video ta’qib qilish qurilmalari, audio kirishli ovozli kartalar, smart-kartani o‘qiydigan asboblar, akselerometrlar va girodkoplar, yo‘ldosh

navigatsion qurilmalari , papillar va ko‘z to‘r pardasi naqshlari skanerlari, har xil sensorlar va o‘lchov asboblari, shuningdek boshqa qurilmalar kiradi. Ma’lumotlarni kiritish qurilmalarining asosiy elementi - bu analog va raqamli konverter bo‘lib, vazifasi turli tabiatdagi (mexanik, elektr, akustik va boshqalar) signallarni ishlash uchun mavjud bo‘lgan raqamli shaklga aylantirishdir.

Axborotni chiqarish qurilmalari raqamli formadagi ma’lumotni o‘qiladigan shaklga aylantirish uchun mo‘ljallangan. Bunga indikatorlar, monitorlar, proektorlar, printerlar, ovozli kartalar, bajaruvchi mexanizlar va telemexanika (masalan, turniket yoki elektron qulf) kiradi.

Axborotni qayta ishlash moslamalari algortim asosida kiruvchi axborotlarni qayd etish va nazorat qilish komandalarini shakllantirish uchun mo‘ljallangan. Shaxsiy kompyuterning tarkibiy qismlari orasida axborotni qayta ishlash qurilmasi misoli markaziy protsessor, grafik tekshiruvchi (video karta), ovoz protsessoridir (ovoz kartasi). Axborotni qayta ishlash qurilmalari odatda tezkor xotirani o‘z ichiga oladi, ular qayta ishlangan ma’lumotlarni saqlash uchun foydalaniladi (kesh, bufer). Deyarli har bir raqamli qurilma u yoki bu shaklda ma’lumotni qayta ishlovchi qurilma- mikrokontrollerga ega. U ma’lumotni mikrodasturda joylashgan va doimiy yodda saqlash qurilmasida (BIOS) saqlanuvchi algortim bo‘yicha qayta ishlaydi.

Aloqa kanallari orqali ma’lumotni uzatish qurilmalari signallarni ishlab chiqarish, ularni uzatish va turli xil aloqa kanallari (simli va simsiz) orqali qabul qilish uchun mo‘ljallangan. O‘zlarining tabiatiga ko‘ra ular kiruvchi ma’lumotlarni aloqa kanali (modulyatsiya) orqali uzatish uchun mos signalga aylantiradigan va uni uzatish, shuningdek signallarni qabul qilish va ularni qayta ishlash uchun mavjud bo‘lgan shaklga o‘tkazish (demodullash) ga aylantiruvchi ma’lumotli kirish/chiqarish moslamalaridir. Ma’lumot uzatish qurilmalari orasida modemlar, bluetooth-modullari, Wi-Fi routerlari va adapterlar, tarmoq kartalari, GSM-modullari, kommutator, marshrutizatorlar va infraqizil aloqa modullari mavjud .

Zamonaviy kompyuter, uning qurilmaviy xususiyatlariga (server, noutbuk, smartfon yoki planshet bo‘ladimi) qaramasdan, ro‘yxatdagi qurilmalarning barcha turlarini o‘z ichiga oladi va aslida birlashgan axborot kompleksi hisoblanadi. Ushbu axborot kompleksini boshqarish va komponentlarning o‘zaro ta’siri dasturiy ta’minot orqali amalga oshiriladi. Ushbu axborot tizimlarini qo‘llashning asosiy vazifasi axborotni qayta ishlash va foydalanuvchi tomonidan talab qilinadigan

natijalarni shakllantirishdan iborat. Shunga koʻra, har qanday axborot kompleksi yoki tizimining uchta asosiy komponenti mavjud: apparat, dasturiy va axborot.

Muhim maʼlumotlarni uzatish va saqlash nafaqat statsionar kompyuter texnikasi va tizimlari , ularning mahalliy va global tarmoqlar bilan munosabati uchun, balki hozirda keng tarqalgan mobil, uyali telefonlar, smartfonlar, planshetli kompyuterlar tadqiq qilish uchun eng muhim obyektlardir, negaki ular kriminalistika jihatdan qimmatli maʼlumotni tashuvchi va tarqatuvchi vosita boʻlish bilan birga jinoyatni sodir etish quroli hamdir. Ushbu qurilmalar endi elektron kompyuter sifatida tasniflana olmaydi, chunki ular tarmoq bilan doimiy aloqada boʻlib, uning bir qismi boʻlib hisoblanadi. Ular shaxsiy kompyuter, aloqa moslamasi, kommutatsiya kabilarni oʻz ichiga olgan integratsion qurilmalardir; muayyan dasturiy taʼminotdan foydalanadi; axborot tashuvchilarini (SIM-kartalar, xotira kartalari, USB-xotiralar) oʻz ichiga oladi; foto va video kameralar bilan jihozlangan global manzilni aniqlash tizimining (GPS) funksiyalarini bajaradi.

Raqamli shaklda saqlanadigan maʼlumotlarning oʻziga xos xususiyatlari quyidagicha:

– aniq boʻlmagan shakl, taqdim etish uchun maxsus vositalardan foydalanishga ehtiyoj;

– eng qisqa vaqt ichida va masofadan turib yoʻq qilish yoki oʻzgartirish imkoniyati;

– ushbu axborotdan foydalanishni cheklovchi maxsus vositalar mavjudligi;

– foydalanuvchi va turli operatsiyalar davomida doimiy axborot oʻzgarishi;

– aloqa kanallari orqali maʼlumotlarni uzatishda bir vaqtning oʻzida turli xil qurilmalarda oʻzaro bogʻliq axborotni shakllantirish.

Raqamli maʼlumotlarni roʻyxatga olish xususiyatlari raqamli dalillarni aniqlash va olishda, shuningdek, ularning sud-ekspertizasida maʼlum qoidalarga rioya qilishni talab qiladi.

5.3. Kompyuter texnik ekspertiza

Zamonaviy axborot texnologiyalari sohasidagi maxsus bilimlarni jalb qilmasdan, kompyuterdan ushbu jinoyatni tayyorlash, amalga oshirish yoki yashirish uchun foydalanilganda kompyuter

ma’lumotlariga ruxsatsiz kirishni o‘rganish va taftish etish mumkin emas.

Kompyuter texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlar ushbu sohada maxsus bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislarsiz to‘liq va obyektiv tekshirilishi mumkin emas. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bilan sodir hollarda maxsus bilimdan foydalanishning asosiy protsessual shakli kompyuter-texnik ekspertiza hisoblanadi.

Buning sababi shundaki, faqat mutaxassisning tahlili apparat vositalari, dasturiy ta’minot va kompyuter ma’lumotlarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Aynan mutaxassis izlanishi qo‘lga kiritilgan apparat, dasturiy ta’minot va kompyuter ma’lumotlariga dalil bo‘lish uchun qiymat beradi. Bunday hollarda tadqiq qilishchining asosiy vazifalari - zarur moddiy obyektlarini - axborot tashuvchilarni qidirish, aniqlash, olib tashlash va ularni topshirish hisoblanadi.

Kompyuter-texnik ekspertizasining quyidagi turlari mavjud:

- avtomatlashtirish vositalari (hisoblash tizimlari, ma’lumotlarni uzatish va nusxalash vositalari) yordamida tayyorlangan matnli va grafik hujjatlar (standart va elektron);
- ularning faoliyati uchun zarur bo‘lgan kompyuter dasturlari va yordamchi kompyuter ma’lumotlari;
- video va audio yozuvlar, multimedia formatida taqdim etilgan vizual va audio axborot;
- (ma’lumotlar bazalari) avtomatlashtirilgan saqlash, qidirish, ishlov berish va uzatishni ta’minlaydigan formatda taqdim etilgan kompyuter ma’lumotlari va hujjatlar;
- turli moddiy axborot tashuvchilar (magnit, magnit-optik, optik va boshqalar).

Shunga ko‘ra, kompyuter-texnik ekspertiza quyidagi vazifalarni hal qilishi mumkin deb aytiladi:

1. Moddiy axborot vositalarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarning to‘liq yoki qisman qayta takrorlanishi va nashr etilishi, shu jumladan matn bo‘lmagan shaklda.

2. Avvallari moddiy axborot vositalarida saqlangan va keyinchalik turli sabablarga ko‘ra o‘chirilgan yoki o‘zgartirilgan axborotni qayta tiklash.

3. Muayyan axborotni kiritish, o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki nusxalash vaqtini belgilash.

4. Kodlangan ma’lumotlarning parolini bekor qilish, parollar tanlash va axborotni himoya qilish tizimini ochish.

5. Hujjatlarni (fayllarni, dasturlarni) ishlab chiqarish, tayyorlash, joylashtirish vositalarini yaratish.

6. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining dasturiy-apparat komplekslarining texnik holatini, ularning sozligini, muayyan foydalanuvchi uchun moslashtirish imkoniyatini aniqlash.

Kompyuter vositalari (apparat, dasturiy, axborot) ni ta’minlash va uni har qanday kompyuter tizimlarini ishlab chiqish va ishlatish jarayoniga mos keladigan shaklda foydalanish asosida kompyuter texnik ekspertizasi turlarining tasniflanishini tashkil etish maqsadga muvofiq. Shuning uchun quyidagilarni ajratish mumkin: (ma’lumotlarni) **apparat-texnik va dasturiy-texnik ekspertiza**. Bundan tashqari tarmoq va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq faktlar va holatlarni o‘rganish uchun **kompyuter-tarmoq** ekspertizasini ajratish juda haqli ko‘rinadi.

Apparat-texnik ekspertizaning mohiyati texnik (apparat) kompyuter texnikasining vositalarini o‘rganishdir. Ekspertizaning maqsadi - kompyuter tizimi apparaturasi - kompyuter ma’lumotlariga ruxsatsiz kirish yoki haqiqat to‘g‘risida axborotni etkazib beradigan materiallarni etkazib beruvchilarning faoliyatiga tegishli qonunlarni o‘rganish asosida belgilangan faktlar va holatlardir.

Dasturiy-texnik ekspertizaning maqsadi bu funksional vazifasi, xususiyatlari va amalga oshirish talablarini, algoritm va kompyuter tarkibiy xususiyatlarini, taqdim etilgan tizim dasturiy ta’minotining hozirgi holatini o‘rganish hisoblanadi.

Kompyuter tarmoq ekspertizasi obyektlari internetga ulangan foydalanuvchilarning kompyuterlari va tarmoq provayderlari (Internet-provayderlar) ning turli xil resurslari, shuningdek ular tomonidan ko‘rsatiladigan axborot xizmatlari (elektron pochta, elektron xabarlar xizmati, yangiliklar guruhlari, WWW xizmatlari va boshqalar) bo‘lishi mumkin.

Apparat-texnik ekspertizasida mutaxassis oldiga quyidagi - quyidagi savollarni qo‘yish tavsiya etiladi:

1. Tadqiqotda qaysi kompyuter modeli namoyon bo‘ladi , atrof-muhit qurilmalarining parametrlari, kompyuter tarmog‘i gatexnik xususiyatlari qanday?

2. Kompyuter va uning komponentlari uchun texnik hujjatlar mavjudmi? Mavjud bo‘lganlar mos keladimi?

3. Kompyuterni va uning tarkibiy qismlarini yig‘ish uchun shart-sharoitlar qanday: markali yig‘ilish, boshqa kompaniyaning tarkibiy qismlaridan yig‘ish yoki qo‘l ishimi? Asosiy paketga kiritilmagan qo‘shimcha qurilmalar mavjudmi (asosiy paket hujjat bo‘yicha aniqlanadi)?

4. Ayrim jihozlar, magnitli saqlash vositalarining (turli test dasturlari tomonidan aniqlangan) kamchiliklari mavjudmi?

5. Kompyuter muayyan foydalanuvchilarga (chapaqay, ko‘zi ojizlar va boshqalar) moslashtirilganmi?

Dasturiy-texnik ekspertizaga quyidagi masalalar qo‘yiladi:

1. Kompyuterda ishlatiladigan operatsion tizimning turi nima?

2. Ushbu kompyuterda qaysi dasturiy mahsulotlar ishlatiladi? Ular litsenziyalanganmi, "pirat" nusxalarimi yoki ular aslmi? Dastur ma’lumotlari qachon o‘rnatilgan?

3. Dasturiy mahsulotlarni vazifasi nima? Ular qanday amaliy masalalarni hal qilish uchun mo‘ljallangan? Ma’lumotni kiritish va chiqarishning qanday usullari qo‘llaniladi? Dasturlarning ishlash natijalari kerakli harakatlarga mos keladimi?

4. Qaysi dasturiy ta’minotni himoya qilish usullari (parollar, identifikatsiyalash kodlari, xavfsizlik dasturlari va boshqalar) ishlatiladi? Ruxsatsiz kirish, parollarni aniqlash yoki boshqa urinishlar sodir etilganmi?

5. Yashirin fayllarda qanday ma’lumotlar mavjud? Avval o‘chirilgan fayllarni tiklash mumkinmi va uning mazmuni qanday bo‘ladi?

6. Anti-virus, fayllarning nazorat miqdorini tekshirish dasturlari natijalari qanday shaklda saqlanadi?

7. Ma’lum dasturlarda nosozliklar mavjudmi? Ushbu kamchiliklarning sabablari nima?

8. Magnit fayllardagi fayllar nimani o‘z ichiga oladi va uning holati qanday? Ushbu fayllar oxirgi marta qachon o‘zgartirilgan?

Tadqiqot amaliyotidan misol keltiramiz:

K... o‘zining kompyuteri orqali “Internet” tarmog‘iga ruxsatsiz kirishni amalga oshirgan. Bunda u “troyan oti” dasturiga o‘xshash zararli dastur yordamida nusxa olgan va qo‘lga kiritilgan login hamda parollardan foydalangan.

Ish bo‘yicha dasturiy ta’minot va texnik ekspertizani o‘tkazish tayinlangan. Ekspertga quyidagi savollar qo‘yilgan:

1. Tizim blokining ishlashi haqida taqdim etilgan qattiq diskda qanday dasturlar mavjud?

2. Ushbu tizimda Internetga kirish uchun ishlatiladigan dastur mavjudmi?

3. Masofadan kirish uchun belgilar tizim blokida mavjudmi?

4. Qaysi loginlar, parollar va kirish telefonlari (dialerlar) har bir belgiga mos keladi?

5. Kompyuter tarmoqlari va tizimlariga ruxsatsiz kirish uchun tizim blokining qattiq diskida dastur mavjudmi (skanerlash portlari, troyan otlari, keyloggerlar va h.k.)?

6. Elektron pochta va yangiliklar bilan ishlash uchun tizim birligida qanday dastur ishlatilgan?

7. Xabarlar qaysi elektron pochta manzilidan kelishi va qaysi e-pochta manzillariga yuborilganligi haqida ma’lumot bormi?

8. Qattiq diskda qanday pochta qayd yozuvlari mavjud?

9. E-pochtada zararli dasturlardan iborat fayllar mavjudmi?

10. Qabul qilingan xabarda Internetga kirish uchun parollar bormi?

Kompyuter-tarmoq ekspertiza davomida quyidagilar haqida savol berish zarur:

1. Kompyuter tarmog‘i faoliyati uchun qanday dastur ishlatiladi? Bu litsenziyalanganmi?

2. Kompyuterlar tarmoqqa qanday bog‘langan? Global kompyuter tarmoqlariga kirish imkoni bormi?

3. Qanday kompyuterlar tarmoqning serverlari hisoblanadi? Korxona, muassasa, tashkilot, firma yoki kompaniyada kompyuter tarmog‘ining tugunlarida axborot uzatish qanday amalga oshiriladi?

4. Axborotdan foydalanishni cheklash uchun kompyuter tarmog‘i parollari, identifikatsiya kodlari foydalanilganmi? Ular qanday shaklda ishlatiladi?

5. Alohida dasturlar va kompyuterlarning tarmoqning bir qismi sifatida ishlashida biron-bir nosozlik bormi? Ushbu kamchiliklarning sabablari nima?

6. Qaysi axborot kompyuter tarmog‘i orqali uzatiladi, qayta ishlanadi va o‘zgartiriladi?

Tadqiq qilishning muvaffaqiyatli natijasi ekspertning tekshiruv, qidiruv, olib qo‘yish va ma’lumotlarni kompyuter texnikasi yordamida o‘rganishidagi ishtirokiga bog‘liq.

Kompyuter-texnik ekspertiza bo‘yicha maxsus bilimlar elektronika, elektrotexnika, axborot tizimlari va jarayonlari, radiotexnika va kommunikatsiyalar, kompyuter texnologiyalari, jumladan, dasturlash va avtomatlashtirishdan iborat.

Ekspert xizmatlariga ehtiyoj. Texnika bugun ko‘p jihatdan inson mehnatini o‘rnini bosgan, axborotning katta miqdori endilikda axborot vositalarining turli xil tashuvchilarida saqlanadi. Shuning uchun, har qanday nizo yoki ish olib borishda kompyuter apparati va dasturiy ta’minot sohasidagi mutaxassis bilan maslahatlash ehtiyoji bor.

Jinoiy ishlarning daliliy asoslaridan tashqari, sud ishlarini yuritishning boshqa sohalarida ekspert tekshiruvi talab etiladi.

Sudgacha bo‘lgan bahs-munozaralarda, iste’molchining iltimosiga ko‘ra, kompyuter tizimlarining sifatini tekshirish natijalari (xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash va boshqalar) taqdim etiladi. Qoida tariqasida, bu holatda, mutaxassisning asosiy vazifasi, ularning narxini aniqlash uchun uskunaning kamchiliklarini tahlil qilishdir. Bu yerda kompyuter va komponentlar bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday muammolarning mavjudligi, ularning sifati o‘zgarishi, undan foydalanish imkoniyati masalalari va h.k. haqidagi umumiy xulosa talab etiladi. Bunday yo‘lda, nafaqat real vaziyat belgilanadi, balki zarar to‘lovlar (kompensatsiya) hajmi aniqlanadi.

Sud kompyuter-texnik ekspertizasi obyektlari.

Apparat obyektlari

- shaxsiy kompyuterlar (ish stoli uchun moslashgan, portativ);
- periferiya qurilmalari (printerlar, modemlar va h.k.);
- tarmoq uskunalari (serverlar, ishchi stansiyalari, faol uskunalar, tarmoq kAbellari va boshqalar);
- integratsiyalashgan tizimlar (tashkilotchilar, peyjerlar, mobil telefonlar va boshqalar);
- barcha komponentlarning to‘ldiruvchi vositalari (apparat bloklari, kengaytirish kartalari, xotira kartalari, magnit va lazerli disklar, magnit lentalar, kartalar va boshqalar).

Dastur obyektlari

- kompyuter tizimli dasturiy ta’minoti;

- kompyuter amaliy dasturiy ta’minoti.

Axborot obyektlari (ma’lumotlar)

- kompyuter vositalarini qo‘llab yaratilgan hujjatlar;
- kompyuter ma’lumotlarining multimediya formatida ma’lumotlar;
- ma’lumotlar bazasi va boshqa ilovalardagi to‘ldiruvchi xususiyatga ega kompyuterlashtirilgan ma’lumotlar.

1,2,3-ilovada raqamli kriminalistikada qo‘llaniluvchi apparat va dasturiy vositalar hamda ishlab chiqaruvchi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Ekspertiza turlari (23- rasm):



23- rasm. Ekspertizalarning ketma-ketligi

1. Apparat-kompyuter ekspertizasi, ya’ni apparat komponentlari, magnit materiallar, hujjatlarni tadqiq qilish.
2. Dasturiy-kompyuter ekspertizasi, ya’ni OS tadqiqotlari.
3. Axborot-kompyuter ekspertizasi – amaliy dasturiy ta’minot va h.k tahlili.
4. Keng ko‘lamli ekspertizalar bilimlarning chegara hududida olib boriladi.

5. Kompyuter-tarmoq ekspertizasi.

Apparat-kompyuter ekspertizasi apparat uskunalari va kompyuter texnologiyasidan foydalanish qonuniyatlarini aniqlash va o‘rganishdir. Apparat-kompyuter ekspertizasi jarayonida apparat vositasining markasini, turini, xususiyatlarini, shuningdek, ularning barcha texnik xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Ushbu turdagi ekspertiza kompyuterlarni o‘rganish, ya’ni qurilmaning namunasini, texnik ko‘rsatkichlarini, turini, modelini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, apparat-kompyuter ekspertizasi yordamida tarmoq yoki tizimdagi muayyan kompyuter qurilmasining funksional maqsadlari va funksional parametrlarini, dastlabki texnik holatini va apparatning konfiguratsiyasini, shuningdek, o‘rganilayotgan vaqtdagi holat va konfiguratsiyani o‘rnatish mumkin.

Ushbu turdagi ekspertiza predmeti kompyuter tizimini-jinoyat ish amalga oshirilgani to‘g‘risidagi ma’lumotni tashuvchi moddiy vositalarni qo‘llash bo‘yicha tahlil asosida aniqlangan faktlar va vaziyatlardir.

Bugungi kunda sud apparat-kompyuter ekspertizasi quyidagi vazifalarni hal qiladi:

– ba’zi funksional vazifalarning yechimlarini uchun apparat vositasining turi xususiyatlari, texnik va funksional belgilarini aniqlash;

– vositaning hozirgi holati va ishlashi, nuqsonlar mavjudligi aniqlash;

– aniqlovchi apparatlardan yakka yoki kompyuter tizimi tarkibi sifatida kompleks qo‘llash orqali mexanizm strukturasini va hodisa vaziyatini uning natijasiga asoslanib aniqlash;

– apparat vositasining o‘ziga xos qobiliyatlaridan foydalanish natijasi va ulardan foydalanish o‘rtasidagi sababchi munosabatlarni o‘rnatish;

– apparat vositasidan qo‘llash shartlarini (tuzilishini) aniqlash, ulardan foydalanishning xronologik ketma-ketligini tiklash, ishlatish va ishlash joyini aniqlash.

Dasturiy-kompyuter ekspertiza kompyuterlar dasturiy ta’minotini o‘rganadi. Ushbu ekspertiza dasturiy ta’minotni quyidagicha tahlil etadi:

– dasturiy ta’minot va uning komponentlarining umumiy xususiyatlari;

– ishlab chiquvchilar va huquq egalarining tafsilotlari;

– ishlab chiqarilgan sana, dasturning hajmi;

– apparatga qo‘yiladigan talablar, dasturiy ta’minot qobig‘i va ma’lum bir kompyuterda boshqa dasturlar bilan dasturiy muvofiqligi, dasturning ishlashi;

– o‘rganilayotgan dastur o‘zgarmaganmi, o‘zgartirilgandan so‘ng olingan dasturning yangi xususiyatlari, vaqti, maqsadlari, o‘zgarish tarkibi;

– zararli dastur yo‘qmi, uning foydalanish oqibatlari qanday.

Jinoiy ishda haqiqatni aniqlash uchun tadqiqotga taqdim etilgan dasturiy ta’minotning kompyuter tizimini ishlab chiqish va ulardan foydalanish qonunlari predmet hisoblanadi.

Dasturiy ta’minot va kompyuter ekspertizasining hal etiluvchi vazifalari quyidagilardan iborat:

– mazkur kompyuter sistemasining tashuvchilaridagi dasturning asli va nusxasini aniqlash;

– umumiy belgilar asosida dasturiy ta’minotning guruhga tegishli ekanligini belgilash;

– mualliflikni aniqlashga olib keluvchi dasturning ma’lum belgilarini aniqlash;

– o‘rganilayotgan kompyuter muhiti bilan o‘zaro bog‘liqlikni aniqlshga olib keluvchi dasturning ma’lum belgilarini aniqlash;

– operatsion tizimning asosiy belgilarini aniqlash;

– dasturiy ta’minotning funksional xususiyatlarini, sozlamalarini, o‘rnatilish vaqtini (mashina tashuvchisiga o‘rnatilish) aniqlash va o‘rganish

– dastur obyektining holatini, unga tegishli fayllar tarkibini, ularning parametrlarini (hajm, yaratilish sanasi, qurollari), ma’lumotni kiritish/chiqarish usullarini, tur parametrlaridan farqlanishning mavjud yoki yo‘qligi;

– dastur mahsulotining (dastur mahsuloti, grafik yoki matnli fayl shaklidagi) algoritmini tashxis etish;

– dastur mahsulotini (algoritmi) ishlab chiqishda qo‘llanilgan qurol turlarini aniqlash;

– dastur mahsulotini qo‘llab-quvvatlovchi apparat-dastur platformalarining turlarini aniqlash;

– dasturning ilk holati (masalan, ilk o‘rnatilishdagi) va keyingi sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni (yangilanish, tarkib o‘zgarishi) belgilash;

– dasturiy ta’minotning holati va xususiyatlarini o‘zgartirishning maqsadi va shartlarini aniqlash (ma’lum funksiyalarning atayin o‘zgartirilishi, aniq bir apparat muhitiga konfiguratsiyalash);

– dasturda o‘zgartirishlarni amalga oshirish usullarini aniqlash (masalan, zararli dastur ta’siri, dastur muhitidagi nosozliklar, ruxsatsiz kirish)

– qayta ishlanayotgan ma’lumotlar (xizmat, tizim fayllari tarkibiga ko‘ra), ta’minlovchi apparat vositalariga asosan dasturning xususiyatlari va holatini aniqlash;

– dasturiy ta’minotning harakatdagi faoliyati natijasiga ko‘ra mexanizm strukturasini aniqlash;

– kompyuter tizimi foydalanuvchisining dasturiy ta’minotga nisbatan bajargan ishlari va oqibatlar o‘rtasidagi aloqani aniqlash.

Axborot-kompyuter ekspertizasi kompyuter-texnik ekspertizaning asosiy turi hisoblanadi. Bu axborotni kompyuterga oid diagnostika va identifikatsiyalash masalalari bilan yakuniy hal qilish orqali dalil bazasining ajralmas qismini to‘ldirishga imkon beruvchi tekshiruvdir. Ushbu turdagi ekspertizalar foydalanuvchi ma’lumotlari va dastur tomonidan yaratilgan axborotlarni tekshiradi.

Bunday ekspertiza maqsadi kompyuter axborot jarayonlarini tashkil etish uchun foydalanuvchi yoki dasturlar tomonidan hosil qilingan (yaratilgan) axborotni izlash, aniqlash, tahlil qilish va baholash hisoblanadi. Axborot -kompyuter ekspertizasi davomida quyidagilar aniqlanadi:

– tashuvchiga yozilgan qayd turlari;

– ma’lumotlarning jismoniy va mantiqiy joylashuvi;

– tashuvchidagi ma’lumotlarning xususiyatlari, belgilari, turi va parametrlari;

– ma’lumotlarning barcha uchun ochiqligi, himoya vositalarining mavjudligi, vositalardan o‘tish belgilarining borligi;

– axborot mazmuni, uning operatsiya ma’lumotlari bilan amalga oshirilgan ilk holati, amaliyot, ya’ni, nusxa ko‘chirish, o‘zgartirish, bloklash, yo‘q qilish, bu operatsiyalar xronologiyasi.

Oldingi tarmoqlardan farqli ravishda, **kompyuter-tarmoq ekspertizasi** asosan, ba’zi tarmoq axborot texnologiyasini amalga oshiradigan kompyuter vositalarining funksional maqsadlariga asoslanadi. Kompyuter tarmog‘i ekspertizasi predmeti tarmoq va

telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq faktlar va sharoitlardir.

Kompyuter - tarmoq ekspertiza quyidagi vazifalarni hal qilish uchun o‘tkaziladi:

– apparat vositasi va dasturiy ta’minot xususiyatlari va belgilarini aniqlash, o‘rganilayotgan obyektning tarmoqdagi o‘rni, roli va funksional vazifasini aniqlash (masalan, dastur vositasi uchun- tarmoq operatsion tizimiga nisbatan; apparat vositasi uchun- server, ish stansiyasi, faol tarmoq moslamasiga nisbatan);

– hisoblash tizimi belgi va xususiyatlarini aniqlsh, uning arxitekturasi, konfiguratsiyasini belgilash, joylangan tarmoq komponentini aniqlash, ma’lumotlarga kirishni tashkillashtirish;

– vositaning ilovadagi server yoki mijoz qismiga tegishli ekanligi;

– tarmoq vositasining holati va sozligini, jismoniy nuqsonlar mavjudligini, tizim jurnalining holatini, kirishni nazorat qilish komponentlarini aniqlash;

– hisoblash tizimining umumiy va har bir tizim vositasi uchun alohida ilk holatini, xarid uchun joy, ilk konfiguratsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlarni (masalan, qo‘shimcha tarmoq vositalarini, server yoki ish stansiyasiga kengaytma qurilmalarini kiritish) aniqlash;

– hisoblash tizimidagi o‘zgarishlar sababini aniqlash (masalan, foydalanish darajasini nazorat qilish bo‘yicha, tarmoqdan foydalanish tartibining buzilishi, tashqi (begona) dasturlarni qo‘llash faktini (izlari) belgilash);

– hisoblash tizimining holati va xususiyatlarini ma’lumot tashuvchilaridagi axborotga asosan aniqlash (masalan, raid-massivlar, qattiq disklar, floppy-disklar, CD-rom, zip-to‘plovchilar va h.k.)

– mexanizm strukturasi va tarmoqdagi hodisa oqibatlarini natijalarga asosan aniqlash (masalan, ruxsatsiz kirish, zararli funksiyalarning tarmoqda tarqalish mexanizmi ssenariysi);

– ma’lum apparat-dasturiy hisoblash tizimi vositalaridan foydalanish va buning natijasi orasidagi aloqani aniqlash.

Sud amaliyotini tahlil qilgandan so‘ng, bugungi kunda dasturiy-kompyuter ekspertizasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat degan xulosaga kelinadi:

– umumiy tashxis va dasturiy ta’minot vazifalarini belgilash;

– dasturiy ta’minot mahsulotining algoritmini foydalanuvchining tegishli ruxsatnomasisiz tanadagi imkoniyatlarini (modifikatsiya qilish, blokirovkalash, nusxalash) aniqlash uchun tashxis etish;

– zararli dasturlar belgilarini aniqlash;

– mahsulot kelib chiqishining bir umumiy manbaini aniqlash.

Shuni ta’kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan kompyuter-texnik ekspertiza masalalarini hal qilish uchun dasturiy ta’minot, algoritmlashtirish, ma’lumotlar bazalarini yaratish, dasturiy ta’minotni tasniflash va shu kabi sohalarda maxsus bilimlarga ega bo‘lish lozim.

Ekspert dasturlari. Ekspertiza davomida kompyuter ma’lumoti tashuvchisini tahlil qilish uchun qo‘llaniladi.

Keng tarqalgan ekspert dasturlari:

– ProDiscover dasturlari oilasi.

– SMART (Storage Media Analysis Recovery Toolkit).

– «AccessData» Encase firmasinign Forensic Toolkit (FTK)– mutaxassis tizimi

– SATAN (System Administrator Tools for Analyzing Networks) -UNIX OT uchun kompyuterdan to‘liq ma’lumotni olish vositasi.

– Helix - Linux asosidagi o‘rnatiluvchi kompakt diskdagi mutaxassis to‘plamidir.

5.4. Tadqiq qilish turlari va toifalari

1. **Texnik tizimlarning apparat ekspertizasi** jinoyatga oid moddiy axborot tashuvchilarining to‘g‘ri ishlashini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu bosqichdagi asosiy masalalari quyidagilardir:

- uskunaning texnik va funksional xususiyatlarini aniqlash;
- texnik holatni tekshirish;
- apparatdan foydalanish natijalari asosida hodisaning sxemasi va shartlarini belgilash;
- qurilmadan foydalanish va buning natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash;
- xronologiyani yaratish;
- topilgan funksiyalar bo‘yicha apparatning spetsifikatsiyasi.

2. **Dasturiy ta’minotga asoslangan kompyuter-texnik ekspertizasi (KTE)** jinoyat yoki fuqarolik tekshiruvlarida haqiqatni aniqlash uchun kompyuter dasturlarini ishlab chiqish va qo‘llashning

qonuniyatlarini o‘rganadi. Ushbu bosqichda amalga oshirilgan algoritmning funksional vazifalari va funksional xususiyatlarini, kompyuter tizimining dasturiy xususiyatlarini va hozirgi holatini o‘rganish kerak.

3. **Ma’lumotlar tahlili -** ekspert kompleksidagi asosiy baholash, negaki u dalillar bazasini to‘liq holatini taqdim etish uchun imkon beradi. Bunga kompyuter ma’lumotlariga taalluqli diagnostika va identifikatsiyalash masalalarini bajarish orqali erishiladi. Ushbu bosqichning maqsadlari foydalanuvchi yoki axborot jarayonlarini tashkil qilish dasturlari tomonidan ishlab chiqarilgan (yaratilgan) kompyuter tizimi tomonidan tayyorlangan axborotlarni qidirish, aniqlash, tahlil qilish va baholashni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot usullari. Bugungi kunda kompyuter ekspertizasi metodologiya shakllanish bosqichini boshidan kechirmoqda. Ammo apparat, dasturiy ta’minot va ma’lumotlar bazalari tadqiqot usullarini allaqachon ajratish mumkin.

Apparatning funksionalligini tekshirish vositalari quyidagilar:

- funksiyalarni almashtirishning matematik usullari;
- BIS va BIS xotirasini sintez qilish va qurish usullari;
- mikroprosessorning me’moriy usullari;
- raqamli tugunlarni sintez qilish usullari;
- audio va video media uchun signalni ishlash usullari;
- optik usullar va boshqalar.

Dasturiy ta’minotni tadqiq qilish protseduralari o‘zaro tekshiruv uchun taqdim etilgan obyekt turiga qarab tasniflanishi mumkin:

- yuk modullarini va dastur algoritmlarini o‘rganish usullari;
- boshlang‘ich kodni o‘rganish.

Qimmatli axborotni (ma’lumot) tekshirish usullari quyidagi kompleks ko‘rinishida bo‘lishi mumkin:

- erkin foydalanish va ma’lumotlarni qidirish usullari;
- tiklash va arxivlash usullari;
- axborotni manipulyatsiya qilish usullari (tahrirlash, ko‘chirish, nusxalash).

Kompyuter-texnik ekspertizaning maxsus usullariga ma’lumotlarni qayta ishlashni tarqatish; iyerarxiyalash; topologiya; marshrutlash; kommutatsiya va boshqalar kiradi. Har qanday aloqa (mobil aloqa, sun’iy yo‘ldosh, magistral, simsiz va boshqalar) sinovlardan o‘tgan hollarda telekommunikatsiya usullari oldinga chiqariladi:

1. Protokollash.

2. Axborot uzatishning raqamli va analog usullari.
3. Ma’lumotlarni siqish va himoya qilish usullari.
4. Kodlash va dekodlash.
5. Signallarning modulyatsiyasi va demodulyatsiyasi va h.k.

Eng ishonchli tadqiqot usullari orasida kompyuter tarmog‘i muhitidagi tajriba deb atash mumkin. Dasturiy internet-kiritmalarni o‘rganish davomida olib boriladi. Internet tarmog‘ining ishtirokchilari o‘rtasida aloqaga taqlid qilish uchun mo‘ljallangan bir necha kompyuterlardan iborat internet tarmoqg‘i segmenti hosil qilinadi.

Ulardan birinchisi muayyan provayder orqali bog‘langan obyekt, ikkinchisi - ushbu provayderning serveridir. Uning yordami bilan, dasturiy ta’minot yorlig‘i orqali Internetdagi boshqa kompyuterlar haqidagi internet ma’lumotlarini topish mumkin.

Ikkinchi kompyuter server domeniga, uchunchisi foydalanuvchiga taqlid qiladi. Uning manzili bo‘yicha kiritma dasturidan olingan ma’lumotlar uzatiladi. Shu tarzda, foydalanuvchi yoki boshqa axborot haqidagi ma’lumotni uning kompyuteridan boshqa tashuvchi vositalarida qabul qilinishini aniqlash mumkin. Yuqoridagi barcha usullar hech qachon yolg‘iz foydalanilmaydi. Ishonchli va malakali natijaga erishish uchun faqatgina kompleks yondashuvni amalga oshirish mumkin.

Kompyuter mutaxassisi qanday muammolarni hal qilish kerak? Sud kompyuter-texnik ekspertizasi (SKTE) tadqiq qilishchi (yoki sud) tomonidan taklif qilinishi mumkin, lekin uni mas’ul mutaxassis yoki mutaxassislik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi. Tadqiqot protokoli ishni tasdiqlash dalili bo‘lib xizmat qiladi. Fuqarolik-huquqiy sohadasi sud, bir tomon yoki notarius so‘rovi bo‘yicha ekspertiza tayinlanishi mumkin.

Mutaxassis-ekspert oldida turgan savollar:

1. Sudda foydalanilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarning o‘rganilayotgan obyektlarida mavjud bo‘lishi (maxfiy yoki ochiq).
2. Mutaxassislik obyektlarini muayyan maqsadlar uchun ishlatish (masalan, tarmoqqa ulanish uchun).
3. O‘rganish obyekti bilan qandaydir harakatni amalga oshirish ehtimoli.
4. Kompyuter dasturlarining xususiyatlari, shu jumladan ularning zararli dasturlardan foydalanishi.

5. Dasturlar, hujjatlar, kompyuter foydalanuvchilarini aniqlash.

Shu bilan birga, bu holatda ekspertning vakolatiga kirmaydigan bir nechta fikrlar mavjud, shuning uchun protokolda ularning mavjudligi noto‘g‘ri deb hisoblanadi. Bunga quyidagilar kiradi:

1) Dasturiy ta’minotning o‘ziga xosligi (litsenziyalash).

2) O‘rganilayotgan obyektlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan harakatlarning qonuniyligi.

3) Apparatlar, vositalar va dasturlarning narxi.

4) Topilgan matnlar, hujjatlar va boshqalar.

Ekspert bahosi sudda e’tirof etilishi uchun barcha qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Bunday holatlarda xatoga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Ekspert bahosi bo‘yicha ko‘proq uchraydigan savollar. Ishning barcha sharoitlarini aniqlash uchun, bugungi kunda mutaxassis quyidagi savollarga javob topishi kerak:

✓ Ushbu kompyuter vositasi Internetda ishlashining isboti bormi?

✓ Internet tarmog‘iga qanday vosita yordamida ulaniladi?

✓ Tayyor internet-aloqaning mavjudligi, ularning xususiyatlari (yaratilgan sana, foydalanuvchi nomlari, parollar, provayder koordinatalari va boshqalar).

✓ Masofaviy erkin foydalanish dasturlari va aloqa protokollari parametrlarining mazmuni.

✓ Ushbu kompyuter foydalanuvchisi qaysi saytlarga tashrif buyurdi?

✓ Elektron to‘lovlar yoki kredit kartochkalari haqida ma’lumotlar mavjudligi.

✓ Elektron pochta xabarlari (qabul qilingan va yuborilgan).

✓ Maxsus aloqa dasturlari orqali yuborilgan xabarlar, ularning mazmuni.

5.5. Tadqiq qilish jarayoni

Tadqiq qilish davomida mutaxassislar quyidagi harakatlarni amalga oshiradilar:

1. Vaziyatni baholash - tadqiq qilishning ko‘lamini va olinadigan xatti-harakatlarini tahlil qilish.
2. Ma’lumotni to‘plash, dalillarni himoya qilish, to‘plash va saqlash.

3. Ma’lumotlarni tahlil qilish, real qiziqish uyg‘otuvchi, keyinchalik ish jarayonini tushunishga imkon beruvchi hodisa va raqamli dalillarni tahlil qilish va o‘zaro bog‘lash.

4. Amalga oshirilgan tadqiq qilish bo‘yicha hisobot tayyorlash - axborotni to‘plash va tashkillash, yakuniy hisobotni tayyorlash.

Tadqiq qilishni boshlashdan oldin tadqiq qilish jarayoniga turtki berish kerak. Avval siz advokatlarni tajovuzkorning ma’muriy (jinoiy) ishi bilan shug‘ullanishi uchun jalb qilish masalasini aniqlashtirishingiz kerak. Agar ha bo‘lsa, huquq tartibot idoralarini jalb qilish lozim. Biroq bu tadqiq qilishning keyingi bosqichlarida amalga oshirilishi mumkinligini yodda tutish zarur. Birinchi navbatda, tajovuzkorlar tomonidan keltirilishi mumkin bo‘lgan kelajakdagi zararni bartaraf etish kerakligini anglash kerak. Albatta, davlat xavfsizligi manfaatlariga xilof bo‘lmasa, eng muhimi, tashkilotni mumkin bo‘lgan zararlardan himoya qilishdir.

Rahbariyatni xabardor qilish. Agar xavfsizlik siyosati Insident ruxsatini o‘z ichiga olmasa, korxona boshqaruvidan Insidentning ichki tekshiruvi uculiga ruxsat olish talab qilinadi. Bunday holatda vaziyatni to‘liq baholash va keyingi bosqichlarni aniqlash kerak. Buning uchun quyidagilar bajariladi.

a) Agar tashkilotda muayyan Insidentga javob berish siyosati bo‘lmasa, boshqaruvni yozma ravishda xabardor qilish va vakolatli shaxsdan kompyuterni tadqiq qilish qilish uchun yozma ruxsat olish kerak.

b) Tadqiq qilish davomida u bilan bog‘liq barcha harakatlarni hujjatlashtirish kerak. Insident davomida yuz bergan barcha hodisalar va unga javobning qonuniy tafsilotiga ega bo‘lishingiz zarur. Tadqiq qilish jarayonidagi harakatlarni tasvirlash uchun keyinchalik bu hujjat ishlatilishi mumkin.

c) Insident kontekstiga ko‘ra va davlat xavfsizligiga tahdid bo‘lmaganda tashkilotni kelajakdagi zararlardan himoyalash asosiy vazifaga aylanadi. Tashkilotning xavfsizligi kafolatlangandan so‘ng, ishni tiklash va Insidentni tekshirish kerak.

Sizning yechim va dalillaringiz sud davomida shubhaga olinishi mumkin, negaki kompyuter dalillarini to‘plash jarayoni qiyin bo‘lib, turli usullar turli natijalarni berishi mumkin.

Siyosatlar va protseduralarga umumiy nazar. Kompyuter tadqiq qilishiga o‘tishda, jarayon davomida murojaat qilinishi mumkin

bo‘lgan korxonada qabul qilingan siyosat va protseduralarni tushunish o‘ta muhimdir. Quyidagi muhim masalalarga e’tibor bering.

1. Tadqiq qilish uchun qonuniy vakolatlaringiz bormi?
2. Maxfiy ma’lumot bilan ishlashni yorituvchi qoidalar tashkilotda qabul qilinganmi?
3. Insident yuzaga kelgan taqdirda ichki tekshiruv o‘tkazish qoidalalri ushbu siyosat va protseduralarda tasvirlanganmi? Sir emaski, ko‘plab tashkilotlarda bunga mos siyosat va protseduralar mavjud emas yoki ko‘rib chiqilmagan yoki yuristlar bilan muhokama qilinmagan. Bundan tashqari, xodimlar va tashrif buyuruvchilarning hammasi ham bulardan xabardor emas. O‘z vakolatlaringiz xususida ishonchingiz komil bo‘lmasa, ma’muriyat yoki yuristlar bilan maslahatlashing.

Tadqiq qilish natijalarini noto‘g‘ri qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni bartaraf etish uchun advokatlar bilan maslahatlashing. Bunday muammolarni keltirib chiqaradigan omillar orasida quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- jabrlangan mijozlarning shaxsiy ma’lumotlari;
- har qanday davlat qonunlarining buzilishi;
- elektron xabarlarni qo‘lga kiritganlik jinoiy yoki ma’muriy javobgarlik;
- ommaviy bo‘lmagan ma’lumotlarni ko‘rish. Agar tadqiq qilish davomida to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llanilsa, mijoz maxfiyligini xavfga solishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar hujjat tadqiq qilishiga bog‘liq bo‘lak sifatida ommaga ochiq bo‘lishi mumkin.

Kelajakda quyidagilar mijoz ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash uchun zarur:

- barcha ma’lumotlar ishonchli tarzda saqlanishi va erkin foydalanishi cheklanishi kerak;
- tadqiq qilish oxirida, barcha hujjatlar, shu jumladan, advokatlar bilan kelishilgan yoki qonunga muvofiq barcha ma’lumotlar kuchli nazorat ostida saqlanishi kerak. Agar jinoiy ishning potensial bo‘lagi bo‘lsa – qonun tartiboti organlari bilan maslahatlashish lozim.

Da’vo yuzaga kelgan bo‘lgan taqdirda, barcha dalillarning raqamli nusxalari ehtiyotkorlik bilan saqlanishi kerak. Agar siz dalillarni saqlashni kafolatlamasangiz, tadqiq qilish davomida topilgan

dalillar ishonchli ekanini kafolatlamaysiz. Dalillarni saqlash tekshiriladigan hujjatlarning mavjudligi bilan ta’minlanadi.

Tadqiq qilish guruhini tuzish. Ichki kompyuter tekshiruvini muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun Insidentga javob berish guruhini tuzish kerak. Haqiqatdan ham tadqiq qilish qilishga ehtiyoj tug‘ilishidan oldin, guruhni oldindan tuzish yaxshidir. Guruh a’zolari bunday tekshiruvlarni o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi muhimdir. Quyidagilarni e’tiborga olish lozim.

✓ Tadqiq qilish qanday bo‘lishini tushunuvchi vakolatli xodimlarni aniqlash. O‘quv kurslarida o‘qish buning uchun ideal bo‘ladi. Sud muhokamasi o‘tkaziladigan bo‘lsa, jarayonni amalga oshirgan tadqiq qilish xodimining qobiliyatlari va malakasi yaxshilab tekshiriladi.

✓ Tadqiq qilish guruhiga a’zolar tayinlang va ularning mas’uliyatini aniqlang.

✓ Jamoa a’zolaridan birini texnik boshqaruvchi sifatida belgilang.

Odatda texnik boshqaruvchi tadqiq qilishlarda ishtirok etish tajribasi va yetarli texnik bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Tadqiq qilish guruhining a’zolari gumondorlardan ko‘ra ko‘proq malakali bo‘lishi kerakligini unutmang.

1. Tadqiq qilish guruhi a’zolari ma’lumotlarini va shaxsiy xavfsizligini himoya qilish uchun jamoani yashirin saqlash kerak.
2. Tadqiq qilish o‘tkazilishi holatida ish guruhining har bir a’zosi muammoni hal qilish uchun yetarli ko‘nikmaga ega ekanligi ta’minlanishi kerak. Ushbu punkt tashqi ekspertlarning tadqiq qilish o‘tkazish uchun jalb qilinishida juda muhimdir.

Vaziyatni to‘liq baholash. Tegishli ishlarni birinchi o‘ringa qo‘yish va tadqiq qilish guruhiga mablag‘ ajratish uchun vaziyatni batafsil baholash kerak. Ushbu baholash Insidentning tashkilotning faoliyatiga hozirgi va potensial ta’sirini belgilaydi, ta’sir ostidagi infratuzilmani aniqlaydi va imkon qadar vaziyatni baholaydi. Shu bilan birga, bu ma’lumot tegishli ish yo‘nalishini tezda aniqlab olishga imkon beradi.

Vaziyatni to‘liq baholash uchun quyidagi harakatlar talab etiladi.

- Barcha potensial xavflar, potensial jalb etilgan tomonlar, va iloji bo‘lsa, shubha ostidagi tomon to‘g‘risida ma’lumotni o‘rganish

- Tashkilotga potensial ta’sirni o‘rganish. Mijoz ma’lumotlari, moddiy holati yoki tashkilotning maxfiy ma’lumotlari Insidentda ta’sir ostiga tushganmi yoki yo‘qligini baholash. Bu baholash axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi xizmati vakolatining chegarasidan tashqarida bo‘lishi mumkin va kompaniya boshqaruvi hamda yuristlar yordamida amalga oshirilishi kerak.
- Tadqiq qilish davomida tashkilot faoliyatiga ta’sirini tahlil qilish va Insident asoratlarini to‘liq yo‘q qilish uchun ketadigan resurslar, to‘xtalish vaqti, zararlangan qurilmalar narxini sanang, daromaddan yo‘qotishlar va maxfiy ma’lumotni tarqatish narxini aniqlang.
- Moddiy bo‘lmagan yo‘qotishlarni - tashkilot nufuziga ta’sir va boshqalarni tahlil qiling. Ushbu yo‘qotishlarni baholash axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi xodimlari vakolatidan tashqarida bo‘ladi hamda yuristlar va boshqa bo‘limlardagi xodimlar bilan birga boshqaruv tomonidan bajariladi.

Insident ta’siriga tushgan tarmoq infratuzilmasi va kompyuterlarni aniqlash, tahlil qilish va hujjatlashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

1. Insidentda qatnashadigan zararlangan kompyuterlarning soni, turlarini va rollarini aniqlash.
2. Tarmoq topologiyasini, shu jumladan serverlar, tarmoq apparatlari, xavfsizlik devorlari va internet aloqalari haqida batafsil ma’lumotni

tekshirish.

3. Tashqi xotira qurilmalarini aniqlash.
4. Kompyuter tarmog‘iga ulangan masofadagi kompyuterlarni aniqlash.
5. Zarurat paydo bo‘lsa tarmoq trafikini qo‘lga olish. Tarmoqda hali ham shubhali trafik mavjud bo‘lsa, ushbu turdagi tahlil qilish.
6. Tadqiqot tarkibiga kirgan kompyuterlarda ilovalar va operatsion tizimlarning holatini o‘rganish uchun vositalardan foydalanish.

Bunday holda, Windows, Windows Sysinternals PsTools jurnal

fayllari foydali bo‘ladi.

7. Ta’sir ostidagi fayllar va dastur serverlarini tadqiq qilish va hujjatlashtirish uchun Windows Sysinternals asboblar

to‘plamidan foydalanish: PsTools, PsFile, ShareEnum va Windows log fayllari.

Vaziyatni to‘liq anglash uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- Vaqtinchalik trafikni tuzish. Bu global inqirozlar uchun ayniqsa muhimdir. Ushbu hujjatda ish stansiyalaridagi sana va vaqt hamda Windows Server xizmatining vaqti orasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nomuvofiqliklar bo‘lishi kerak.
- Insidentga jalb etilgan shaxslar doirasini aniqlang va ular bilan suhbatlashish. Bu vaziyatni tushunish uchun juda muhimdir.
- Intervyudagi barcha natijalarni hujjatlashtiring. Keyinchalik ular vaziyatni to‘liq tushunish uchun talab qilinadi.
- Tarmoqning tashqi va ichki vositalaridagi, masalan, hujum yo‘lida joylashishi mumkin bo‘lgan tarmoq himoyasi tizimi va marshrutizatorlaridagi ma’lumotni (jurnal fayllari) tiklash va saqlash.
- Windows Sysinternals Whois yordamida omma uchun ochiq ma’lumotni, masalan, ip-manzil va domen nomi turidagi axborotni hujumchini aniqlash uchun qo‘lga kiritish mumkin.

Dalillarni to‘plash. Raqamli dalillar mahalliy holatda yoki tarmoq orqali amalga oshiriladi. Biroq mahalliy ma’lumotlarni yig‘ish har doim ham mumkin emas. Tarmoqda ma’lumotlarni yig‘ish taqdirida to‘plangan ma’lumotlar turi va sarflangan kuch hisobga olinishi kerak.

Ma’lumotlarni to‘plashning tavsiya etilgan jarayoni:

1. To‘plangan dalillarning haqiqiyligini tasdiqlaydigan aniq hujjat yaratish. Tadqiq qilish jarayonida har qanday potensial qiziqarli elementlarga e’tibor berish va keyinchalik muhim deb hisoblash mumkin bo‘lgan har qanday xatti-harakatlarni qayd etish muhimdir. Muvaffaqiyatli tekshiruvning kalitlari quyidagilardan iborat:

1) Kim harakatni amalga oshirdi va nima uchun?
2) Ular shu yo‘l bilan nimaga erishmoqchi bo‘ldilar?
3) Bu harakat qanday amalga oshiriladi?
4) Qanday vositalar va tartiblar ishlatilgan?
5) Harakat qachon (sana va vaqt) bajarilgan?
6) Qanday natijalarga erishildi?

2. Zarur tadqiq qilish usullarini aniqlash. Odatda, avtonom va interaktiv usullarning kombinatsiyasi qo‘llaniladi.

✓ Avtonom tekshiruvlar o‘tkazishda, dastlabki dalillarning yagona nusxasi bo‘yicha qo‘shimcha tahlillar amalga oshiriladi. Avtonom

tekshiruv usuli iloji doim qo‘llaniladi, chunki bu asl dalillarga zarar yetkazish xavfini kamaytiradi. Biroq ushbu usulni faqat tegishli nusxa ko‘chirish mumkin bo‘lgan va ba’zi bir quvvatga bog‘liq ma’lumotlarni yig‘ish uchun ishlatib bo‘lmaydigan holatlarda foydalanish mumkinligini hisobga olish kerak.

✓ Avtonom tekshiruv o‘tkazishda tahlil asl operatsion dalillar asosida amalga oshiriladi. Dalillarni o‘zgartirish xavfi tufayli tadqiq qilishga jalb qilingan xodimlar ayniqsa ehtiyot bo‘lishi kerak.

3. Potensial ma’lumot manbalarini hujjatlashtirish va aniqlash, bunga quyidagilar kiradi:

- serverlar; ma’lumotlar server roli, log fayllari, ma’lumotlar fayllari, ilovalarni o‘z ichiga oladi;
- tashqi va ichki tarmoq qurilmaning log fayllari;
- ichki apparat komponentlari (masalan, tarmoq adapterlari);
- tashqi portlar - Firewire, USB va PCMCIA;
- saqlash uskunalari, shu jumladan qattiq disklar, tarmoq uskunalari, olinadigan media;
- portativ mobil qurilmalar - Pocket PC, Smartphone i MP3-pleyerlar.

4. Quvvatga bog‘liq ma’lumotni yozishda ma’lumotlarni yig‘ish tartibi diqqat bilan ko‘rib chiqilishi kerak. Shuni e’tiborga olish kerakki, quvvat o‘chirilganda, quvvatga bog‘liq dalillar osongina yo‘qoladi .

5. Ma’lumotlar to‘plashning quyidagi usullaridan foydalanish zarur:

- Agar biron-bir ichki xotira qurilmasini olib tashlash kerak bo‘lsa, barcha quvvatga bog‘liq ma’lumotlar aniqlanganligini tekshirishingiz kerak, shundan so‘ng kompyuterni o‘chirish lozim.
- Saqlash qurilmasini olib tashlash yoki ma’lumotlarni belgilash uchun o‘z tizimingizdan foydalanishni hal qiling. Ehtimol, saqlah qurilmasini apparat bilan mos kelmasligi sababli o‘chira olmasligingiz mumkinligini inobatga oling.
- zaxiradagi ma’lumot tashuvchi vositalarda dalillarning yagona nusxasini yaratib, asl nusxasini himoyalang. Barcha keyingi ma’lumotlarni tahlil qilish asl nusxada emas, balki ushbu nusxada amalga oshirilishi kerak.
- Saqlash moslamalarini hujjatlashtirishda konfiguratsiya ma’lumotlarining mavjudligiga ishonch hosil qiling. Ishlab chiqaruvchi

va jihozlar modeliga, ulanish sozlamalari, qurilma hajmiga, interfeysning turiga va diskdagi holatga e'tibor bering.

6. To'plangan ma'lumotlarni tekshirish. Agar iloji bo'lsa, to'plangan ma'lumotlarning original bilan bir xil bo'lishini ta'minlash uchun nazorat summalari va raqamli imzolarni yarating. Ba'zi hollarda (masalan, ma'lumotni saqlash vositalarida nosoz sektor mavjud bo'lsa) mutlaq nusxasini yaratishning ilojisi yo'q. Biroq siz mavjud vositalar yordamida olinishi mumkin bo'lgan eng yaxshi nusxasini olganingizga ishonch hosil qiling.

Saqlash va arxiv. Dalillar to'planib, kanallar hosil qilib bo'lingach, butunligini ta'minlash maqsadida arxivlash va ularni saqlash juda muhimdir.

Ma'lumotlarni saqlash va arxivlashning eng ishonchli usullarini sanab o'tamiz.

1. Ma'lumotlarni jismonan xavfsiz joyda saqlash.
2. Ma'lumotlarga jismoniy va tarmoqdan foydalanish ochiqligini hujjatlashtirish.
3. Tasdiqlanmagan shaxslarning tarmoq yoki boshqa vositalar orqali dalillarga kirishiga imkon bermaslik.
4. Dalilarni saqlovchi vositalar joylashgan xonalar va uskunalarni elektromagnit maydon va statik elektr ta'siridan saqlash.
5. Tadqiq qilish davomida kamida ikki nusxadagi dalillarni to'plash. Shu bilan birga, nusxalaridan biri asosiy binoning tashqarisida xavfsiz joyda saqlanishi kerak.
6. Dalillar ham moddiy shaklda (masalan, seyfga joylashtirilgan), va ham raqamli shaklda (masalan, parol axborot vositalari uchun tayinlangan) saqlanganligi.
7. Barcha dalillarni saqlash jarayonini hujjatlash.
8. Quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan nazorat jurnalini yaratish:
   - dalillarni tadqiq qilish qiluvchi shaxsning nomi;
   - dalil bilan ish boshlash sanasi va vaqti;
   - uning omborga qaytarilgan sanasi va vaqti;

5.6. Forensic Toolkit raqamli sud-tibbiyot ekspertizasi

Forensic Toolkit (Cud vositalar to'plami), ***FTK*** – AccessData tomonidan ishlab chiqilgan kompyuter ekspertiza dasturlari. Ushbu dastur qattiq diskni skaner qilish imkonini beradi, bu esa turli

ma’lumotlarni topish jarayonini osonlashtiradi. Masalan, o‘chirilgan elektron pochta manzillarini yoki parol lug‘ati sifatida foydalanish uchun matn satrlari uchun diskni topish.

Vositalar to‘plami «The FTK Imager» (FTK tasvirini) disk ko‘rinishini hosil qilish avtonom dasturini ham o‘z ichiga oladi. U qattiq disk tasvirini keyinchalik tiklashning imkoni bo‘lgan fayllarda yoki segmetnlarda saqlovchi oddiy, ammo foydalanishi qulay dasturdir. Bundan tashqari xesh qiymatini hisoblaydi va fayllarni yopishdan oldin ma’lumotlarning butunligini tekshiradi. Natija - bir necha formatlarda saqlanishi mumkin bo‘lgan obraz fayllari, jumladan, xom DD ma’lumotlari.

Cud vositalar to‘plami (FTK) raqamli kriminalistikada qo‘llaniladigan dunyoda tan olingan standart dasturiy ta’minot bo‘lib, tezkor, barqaror va qulay foydalanish uchun mo‘ljallangan sud tomonidan raqamli tadqiqotning yagona tan olingan yechimidir. O‘zining intuitiv interfeysi, pochta tahlili, ma’lumot tushunchasining o‘zgaruvchanligi va turg‘unligi bilan dunyoda tan olingan FTK o‘zining strukturasini kengaytirish imkonini beradi.

Forensic Toolkit (FTK) dasturiy ta’minoti ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi sud ekspertlari uchun ajralmas vositadir. Forensic Toolkit - butun dunyo bo‘ylab sud ekspertlari sohasida dunyo standarti tomonidan tan olingan keng qo‘llaniluvchi kompyuter ekspertizasi vositasi. Dastur ma’lumotning sud-tibbiyot jihatdan aniq va keng qidiruvini amalga oshiradi, moslashtirish yo‘li bilan parollarni deshifrlaydi va buzadi, raqamli kriminalistika ekspertizalarini o‘tkazishda muhim asbob hisoblanadi. Forensic Toolkit dasturiy ta’minot muhitida ishlash vaqtini tejash orqali dasturda ishlashni osonlashtiradigan shaxsiy sozlash imkoniyati bilan intuitiv interfeysga ega.

Dastur yirik kompaniyalarda ishlatilishsh uchun o‘lchov qobiliyatiga ega bo‘lgan ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish imkonini berishi tufayli tashkilotda muayyan ehtiyojlar bo‘lgan taqdirda kompyuter ekspertizasi ko‘lamini yanada kengaytirish imkoniyatini beradi. Sud-meditsina vositasi bugungi kunda kompyuter va texnik mutaxassislik uchun eng zamonaviy dastur hisoblanadi. Ilgari, odatda, faqat boy kompaniyalar huquqni muhofaza qilish idoralarida, ta’lim muassasalarida, davlat idoralarida, korporatsiyalarda ishlovchi xodimlar yoki kompyuter xizmatini ko‘rsatuvchilar tomonidan qo‘llanila oluvchi dasturdan foydalana olardi. Bugun esa, hatto kichik firmalar

bunday dasturlardan foydalanishi mumkin. Bu ushbu dasturiy ta’minotning yana bir afzalligidir.

AccessData Forensic Toolkit - kompyuter tekshiruvlarini o‘tkazish uchun dasturiy ta’minot, xotira dampining tahlilini ta’minlaydi, kuchli qidiruv vositasidan foydalanadi, arxiv ma’lumotlarini oladi va sud-ekspertizaning bir qismi sifatida to‘liq kompyuter ishini olib boradi. FTK parolni tiklash va parolni deshifrlash uchun AccessData firmasi mahsuloti bilan integrallashadi (Password Recovery Toolkit).

FTK xususiyatlari:

1) Ishlatishdada qulaylik:

a) Stellent’s Outside In Viewer Technology yordamida 270 dan ziyod fayllar formatlari va kodirovkalarni ko‘rib chiqish.

b) Ekspertiza paytida bajarilgan barcha harakatlar va operatsiyalarning natijalarini qayd etadi.

c) Tegishli hisobotlarni ishlab chiqaradi.

d) Tadqiq qilingan media bo‘yicha matnli ma’lumotlarning to‘liq indeksatsiyasi kontekstli qidirish natijalarini darhol namoyish etish imkonini beradi.

ye) JPEG formatidagi grafik tasvirlar va veb-sahifalar matn elementlari - fayllar uchun mukammal qidiruv rejimi.

f) Ko‘rsatilgan parametrlarga ko‘ra axborotni qidirish.

g) Axborotlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilishda foydalanish uchun ularni ekspertizadan o‘tkazish odatiga ega bo‘lgan fayllar kutubxonasini (hashsets) yaratish.

2) Fayl tizimlari va ommaviy axborot vositalarining nusxalari bilan ishlash:

a) Quyidagi fayl tizimlarida ishlashni qo‘llab-quvvatlaydi: NTFS, siqilgan NTFS, FAT 12/16/32 i Linux ext2 i ext3.

b) Quyidagi pochta mijozlari dasturlarini qo‘llab-quvvatlaydi: Outlook, Outlook Express, AOL, Netscape, Yahoo, Earthlink, Eudora, Hotmail df MSN.

c) Elektron pochta ma’lumotlar bazasidan elektron pochta yoki kiritmalarni ko‘rish, qidirish, chop etish va eksport qilish imkonini beradi.

d) Qoralamalar papkasida joylashgan yoki o‘chirilgan elektron pochta xatlarini qayta tiklaydi.

e) Quyidagi dasturlar yaratgan arxivdan fayllarni avtomatik ravishda chiqaradi: PKZIP, WinZip, WinRAR, GZIP i TAR.Known File Filter (KFF):

f) NIST va Hashkeeper tomonidan yaratilgan Hash Sets ma'lumotlar bazasini qo'llab-quvvatlaydi.

g) O'zining bazalarini yaratadi.

Registry Viewer quyidagilarni ta'minlaydi:

✓ Axborotga to'g'ridan-to'g'ri kirish va axborot tashish vositalaridagi shifrlangan ma'lumotlarning parolini deshifrlash

✓ Tizim retstri fayllarini ko'rish.

✓ Hisobotni yaratish.

✓ Ushbu dastur boshqa AccessData dasturiy mahsulotlar bilan mos keladi.

Forensic Toolkit (FTK)ning xususiyatlari:

Kompyuter texnik ekspertizasi uchun keng qamrovli yechim. Tasvir yaratish, ro'yxatga olishni tahlil qilish, tekshiruvlarni olib borish, fayllarni deshifrlash, parollarni buzish, steganografiyani tanib olish va hisobotlarni tuzish. 100 dan ortiq ilovalar uchun parollarni tiklash, tarmoqdagi to'xtashlar vaqtida parol shifrini aniqlash va lug'at bo'yicha hujum amalga oshirish uchun protsessorning hisoblash kuchini qo'llash. 45-million xeshlardan iborat xesh kutubxonasi.

Katta korxona arxitekturasi. Juda katta, eng murakkab ma'lumotlar ketma-ketligini qo'llab-quvvatlash. Dasturning moduli bir-biridan mustaqil ekan, muvaffaqiyatsizlik taqdirida ishning natijalari yo'qolmaydi. Ishning rezerv nusxasini yaratish va arxivlash mumkin. Har bir FTK nusxasi tarqalgan qayta ishlashni amalga oshirish uchun 4 ta agentni o'z ichiga oladi: 1- mutaxassis mashinasida, qolgan 3 shaxsiy kompyuterlarda joylashgan (xohishga ko'ra mutaxassislar sonini oshirish mumkin). Tarqatish jarayoni kuchli apparat va tarmoq texnologiyalarini talab qiladi. I/O operatsiyalari juda jadal bo'lgani uchun, axborotni qayta ishlash tez diskni talab qiladi. Bundan tashqari, Processing Manager ishlovchi mashina guruhdagi eng katta tezlikka (CPU) ega bo'lishi lozim. Dasturiy yechim laboratoriya imkoniyatlarini qo'shib osonlik bilan kengaytiriladi. Bu hukumat tuzilmalari va huquqni muhofaza qilish organlari uchun muhimdir.

Kuchli va tez qayta ishlash vositalari.

1. Tezkor javob qaytarish xususiyatiga ega grafik interfeys.

2. Tarqatilgan qayta ishlash vaqtini sezilarli darajada kamaytirish va katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish uchun 3 tagacha kompyuterni ishlatishga imkon beradi.

3. Ko‘p protsessorlik va ko‘p tarmoqlilikni qo‘llab-quvvatlaydi.

4. "Bekor qilish jarayoni / to‘xtatib turish / davom ettirish" variantlari.

5. CPU ga yuklashni taqsimlash.

6. Qayta ishlash tugallanishi haqida elektron pochta orqali xabar qilish imkoniyati.

7. Ma’lumotlarni tanlashning rivojlangan mexanizmi kerak bo‘lmagan ma’lumotni tashlab yuborish uchun tanlangan/tanlanmagan maydondan quyidagi talablarga javob beruvchi ma’lumotni tanlaydi: fayl hajmi, ma’lumotlar turi, va hokazo.

8. dt Search bilan yaxshilangan integratsiya tezlik bilan indekslash va qidiruv natijalarini olish imkonini beradi.

Operatsion ma’lumotlarni oldindan ko‘rish, yig‘ish va tahlil qilish. Qurilmalardan, mantiqiy hajmlardan va tezkor xotiradan ishonchli ma’lumotlarini kriminalistik aniqlik bilan xavfsiz olishni amalga oshiradi. Dastur agenti oson o‘rnatiladi. Noqulay o‘rnatish va autentifikatsiya qilish jarayonini talab qilinmaydi. Masofali qurilmalar xavfsiz o‘rnatiladi.

Ko‘p funksionallikka ega intuitiv interfeys. Moslashtirilgan ma’lumotlar formatlari, rivojlangan filtrlash, ko‘chiriladigan oyna va avtomatlashtirilgan ma’lumotlar tasnifiga ega osonlashtirilgan va oson ishlatiladigan grafik interfeys.

5.7. EnCase Forensic texnologiyasi yordamida kompyuter ekspertizasi

Hozirgi vaqtda va uzoq yillardan buyon Guidance Software kompyuter ekspertizasi uchun vositalarni ishlab chiqaruvchi yetakchilardan biri hisoblanadi. Ishlanmalarning sezilarli, katta qismi - kompyuter mutaxassislarini o‘qitish dasturlari va vositalari.

EnCaseForensic dasturiy vositalari va texnologiyalari yordamida har qanday bosqichda har xil turdagi tadqiqotlar o‘tkazish va aniq turli ekspert maslahatini berish imkoniyati bor.

Guidance Software firmasi mahsulotlari va EnCaseForensic maxsus texnologiyalari bilan sud tibbiyoti mutaxassislarini o‘qitish

mumkin. Barcha sertifikatlangan mutaxassislar va umuman barcha mutaxassislar butun dunyo bo‘ylab kompyuter ekspertizasi va axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yurituvchi Guidance Software kompaniyasidan ekspert sertifikatini qo‘lga kiritislari mumkin.

Kompyuter ekspertizasining barcha bosqichlarini o‘tkazish uchun texnologiya va dasturlar to‘plami - EnCase o‘zi nima?

EnCase Forensic - bu raqamli dalillarni izlash va sudga ma’lumotlarni taqdim etish bo‘yicha xalqaro standart bo‘lgan kompyuter va texnik ekspertiza uchun lokal dasturiy ta’minotdir. EnCase Forensic mutaxassislar tomonidan tayyorlangan filtrlar va modullarning ko‘plab ma’lumotlarini olish, qattiq diskda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarning sud-tahlilini o‘tkazish orqali potensial dalillarni aniqlash va olingan natijalarning ishonchliligi va yaxlitligini ta’minlashda natijalar haqida to‘liq hisobotlarni tayyorlash imkonini beradi.

Kompyuter-texnik ekspertizani o‘tkazish standartiga aylangan va vaqt o‘tishi bilan sinalgan mahsulot yordamida dalillarni izlash to‘griligining kafolatini beradi.

– qidirish mexanizmlarini keng ko‘lamli yordamida maslahatlar olish imkonini beradi.

– umumiy vazifalari avtomatlashtirish hisobiga tadqiq qilishni tezlashtiradi.

– EnCase bazasidagi yagona konteynerda dalillarni saqlaydi.

EnCase Forensic kriminalistik ekspertizasining barcha prinsiplariga va sudda foydalanish imkoniyatlariga muvofiq topilgan barcha dalillarni bitta faylda saqlaydi.

Kuchli va samarali kriminalistik ma’lumotlarni qidirish va kompyuter Insidentlarini o‘rganish natijasida EnCase Forensic korporativ tekshiruv va ma’lumotlar auditi bo‘yicha standart vositaga aylangan.

Ushbu ham dasturiy va ham apparat vosita - maxsus dasturlarga qo‘shimcha ravishda, FastBloc qurilmasidan foydalanib, manbalarga va saqlash vositalariga kirish uchun o‘z texnologiyasiga ega. EnCase dasturiy vositalari kabi, FastBloc ham MSWindows ishlaydi, uning muhitida natijalarni ko‘rsatadi. Va bu mutlaqo aniq - mutaxassis va huquqiy nuqtai nazardan - axborot tashuvchilariga va ulardagi axborotlarga kirishni ta’minlaydi, dastlabki ma’lumotlar tashuvchilari va ularning tarkibidagi ma’lumotlarni buzmasdan tadqiqotni va nusxa ko‘chirishni amalga oshiradi.

Ma’lumotlar original axborot vositalaridan, kompyuter ekspertizasi qoidalariga muvofiq, muayyan tarzda qayd qilingan barcha qadamlar bilan nusxa ko‘chirilib, dastlabki ma’lumotlarni ekspertiza qilish uchun olingan holda saqlaydi. EnCase texnologik vositalarining faoliyati Case-metodologiyaga asoslangan, u tadqiq qilish jarayonida va keyin tadqiq qilishning obyektlari bo‘lmish ma’lumot va uning tashuvchisini ilk holatdagidek saqlashga mas’uldir.

EnCase dasturiy ta’minotining texnologik imkoniyatlari va Case-metodologiyasi. EnCase va ularning metodologiyasi – tadqiq qilish uchun mo‘ljallangan boshqa vositalr bilan taqqoslaganda ekspertizaga ijodiy va ko‘p qirrali yondashishga ko‘proq mos keladi. Ko‘plab xorijiy ekspertlar allaqachon EnCasening chiqqan versiya majmualari bilan ishlash tajribasiga ega, ular o‘z vazifasini yangi ma’lumot tashuvchilarida, bugunda kompyuter ekspertizasi ko‘rib chiqishi kerak bo‘lgan yangi fayl turlari va vaziyatlari bilan muvaffaqiyatli choralar ko‘radi.

Ushbu texnologiyaning imkoniyatlarini yanada yaxshiroq tushunish uchun, ular tomonidan taklif qilinadigan vazifalarni ko‘rib chiqaymiz:

– EnCase bazasida chuqur sozlash va o‘z vositalarini yaratish imkoniyati. EnCase tizimiga joylangan ESCRIPT deb nomlanuvchi dasturlashning makrotili dasturni sozlovchi va imkoniyatlarini kengaytiruvchi dastur va filtrlarni yaratadi. Shu yo‘l bilan EnCaseda zamonaviy metodlarni zamonaviy sharoitlarda qo‘llashga yo‘l beradi;

– turli formatdagi media, eski va yangi formatlar, turli xil apparat platformalarida, operatsion tizimlar nuqtai nazaridan turli muhitlarda, statsionar va harakatlanuvchi media turlarining turli xil ko‘rinishlari bo‘yicha axborotni tahlil qilish va qidirish. Har xil turdagi qattiq va almashinuvchi drayvlar va boshqa tashuvchilar turlari;

– grafik tasvirlar bilan ishlashda grafik fayllarni tanib olish, ularni avtomatik ravishda belgilash va nusxalash uchun katta imkoniyatlar yaratadi;

– tashuvchi tarkibini ekspert o‘rganish uchun maxsus mo‘ljallangan stend disklariga aniqlik bilan to‘liq nusxasini ko‘chirish;

– qattiq diskning to‘liq nusxalari va uning tarkibi, mantiqiy birlik va bo‘limlar bilan ishlash uchun moslashuvchan operatsiyalar;

– RAID-massivlar va u bilan turli yo‘nalishda ishlash - qo‘llab quvvatlanadi;

– mutaxasis va kriminalistlar uchun tashuvchida mavjud ma’lumotlarni oldindan va tezda hamda o‘zgartirishlar kiritmay ko‘rib chiqish muhim hisoblanadi. Buning uchun EnCaseda maxsus texnologiyalar mavjud. Materiallar daxlsizligicha qolaveradi, ayni paytda ma’lumot tashuvchi vositalarni ba’zi mazmunli ma’lumotlarning mavjudligigatezda tekshirib ko‘rishingiz mumkin;

– FastBloc markasidagi apparat vositalari bilan istalgan turdagi qattiq disklarga har tomonlama xavfsiz va aniq kirishni ta’minlash mumkin.

Bu savol va vazifalarni hal qilish, tashuvchilar bilan ishlash, ularga kirish, ularni tahlil qilish, butun EnCase tizimini yanada samaraliroq ishlash uchun yaratish va EnCase- ni zamonaviy kompyuter mutaxassisliklarida ishlatish bilan bog‘liq. Kompyuter mutaxassisligi bo‘yicha alohida, mutaxassislarni albatta qiziqtiruvchi, bu turdagi murakkab kompleks ishining bo‘limi - bu uning fayl va fayllar tizimi bilan ishlash qobiliyatidir.

EnCase dasturidan foydalangan holda fayllar bilan xilma-xil ishlash va kompyuter ekspertizasi. Kompyuter ekspertizasi imkoniyatlari, turli yo‘nalishlarda, sud yoki suddan tashqari, hukmi ko‘pincha fayllar va fayl tizimlari bilan ishlash uchun foydalaniladigan dasturiy ta’minot tizimlari imkoniyatiga bog‘liq. Fayllarni sozlash va fayllar bilan ishlash qanchalik mos bo‘lishi mumkin, fayllar tuzilmasi, fayl turlari va tarkibini tahlil qilish qanchalik tez amalga oshirilishi mumkin - qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda mutaxassislarning imkoniyatlari chegaralangan yoki chegaralanmagan bo‘lishi shularga bog‘liq.

Fayllar bilan ishlashga kelganda Guidance Softwarning EnCase dasturi quyidagi imkoniyatlarga ega, ularning bari tashuvchi holati va ilk olingan ma’lumotga putur yetkazmasdan amalga oshiriladi:

– har qanday fayllarning tarkibini, yaratilish, o‘zgartirish sanalari va boshqa attributlarni aniqlash;

– fayllarni ochmasdan, fayl tizimining strukturasini o‘zgartirish xavfsiz, himoya mexanizmlari va boshqa dasturlarni ishga tushirmasdan fayldagi kalit so‘zlar, izlanuvchi so‘zlar, matn, alifbo-raqamli ma’lumotlarini izlash;

– siqilgan, berkitilgan, arxivlangan, operatsion tizim ro‘yxatida qayd etilgan, maxsus va keng tarqalgan xususiyatli turli fayllar kabi fayllarni tezkorlik bilan izlash, nusxalash, ajratish, o‘rganish;

– e-pochta va xabarlarni boshqa yo‘llar bilan tarqatish usullari bilan ishlashda – qo‘shilgan va turli xil shakl, formatdagi fayllarni tahlil qilish;

– barcha ma’lumot va barcha fayllar tashuvchilarining nusxasini o‘rganish maqsadida grafik ko‘rinishda ko‘rsatish

Sektorlar va klasterlarning tuzilishini ko‘rsatish. Har qanday faylning joylashuvini grafik va axborot aks ettirish:

– belgi, tanlash, nusxa ko‘chirish, uzatish va eksport fayllar, fayl strukturasi va katalog daraxti, fayllar individual parchalar qismlari;

– turli fayllarni imzolar bilan ilmiy-tadqiqot ishlari, EnCase mavjud bo‘lgan fayl imzolari kutubxonasini kengaytirish va o‘zgartirish;

– ekspert ishlov va ma’lumotni avtomat ravishda tanishni qulaylashtirish uchun kutubxona qurilishi, fayllarning strukturasi, formati, tipiga ko‘ra maxsus joylashtirish;

– spooler-fayllar, slack-fayllar, swap--fayllar va hokazolar sirasiga kiruvchi fayllarning tarkibini o‘rganish imkoni. Shuningdek, o‘chirish, savatga ko‘chirish va hokazo;

– EnCase tizimida ish tugaganda vaqt va sanalar qo‘shilgan to‘liq hisobotni tuzishga yordam berishga mo‘ljallangan qulay vositalar ko‘zda tutilgan. Bu yuridik va mutaxassislik yuzasidan to‘g‘ri xulosalarni sud va boshqa maxsus instansiyalarga topshirish uchun katta qulayliklar beradi.

Interfeys. Ekspert uchun EnCase dasturiy vositalarining muhim va qulay xususiyatlari. Ushbu sohadagi ishlar bilan yaqindan tanish bo‘lmagan va uning turli xil nozik xususiyatlaridan bexabar bo‘lgan ekspertlar uchun ushbu ro‘yxatdagi turli punktlarda qanday imkoniyatlarning muhokama qilinganligini misollar bilan tushuntirish foydali bo‘lishi mumkin. Ushbu dasturning asosiy afzalliklaridan birini aniqlaymiz. Bizga ko‘rinib turibdiki, EnCase ning qulayligi, asosan, grafik interfeyslarning qulayligi - mediadan nusxalarning va har qanday fayllarning mazmunini va boshqa ma’lumotlarni ko‘rsatish turlari bilan bog‘liq.

«EnCase" to‘plamidan foydalanib, "ijodiy" tadqiqot o‘tkazish qobiliyati haqida gapirganda, dasturni makrotilidan foydalanib uni ichki

sozlashni, turli turli operatsiya va holatlar uchun operativ interfeys nuqtai nazaridan dastur va ma’lumotlar, jumladan tashqaridan qabul qilinuvchi axborot bilan ishlashni o‘zgartirishni tushunamiz. Bundan tashqari, zamonaviy mutaxassislar uchun ma’lumot "foydalanuvchi interfeysi" ning qulay ko‘rinishida taqdim etilishi muqobilroq. Misol uchun, EnCase interfeysi quyidagi xususiyatlarga ega: CaseTab tanlovi yordamida standart Windows Explorer kuzatuvchisidagidek fayllarni namoyish qilishingiz mumkin. Chapda papka va fayllar daraxtini olsangiz, o‘ng tomonda Report, Timeline, Gallery, Table (hisobot, xronologiya, galereya, stol) singari qo‘shilmalar haqida ma’lumot mavjud. View File Structure buyrug‘i yordamida arxivlangan va siqilgan fayllarning mazmunini "ma’lumotlarga tegmasdan"ko‘rish juda oddiy.

Turli xususiyatlar va atributlarga tayangan holda, fayllarni tashkil qilish va va ularni TableView funksiyasi yordamida qulay grafik interfeys ko‘rinishida jadval orqali dastur oynasining yuqori qismida namoyish qilish mumkin. Bundan tashqari, u oynaning pastki qismida mazmuni jihatdan jismoniy disk ko‘rinishini ham nazarda tutadi.

KeywordsTab dan foydalanib, qiziqtiradigan kalit so‘zlar, ularning toifalari va qidiruvi bilan juda qulay ishlash mumkin. Kerakli ma’lumotlarni kodlashni tanlash, keyingi ishlar uchun yangi kalit so‘zlar kategoriyalarini yaratish imkoni mavjud.

Qo‘shilma jadvali Bookmarks Tab barcha topilgan mosliklar uchun qo‘shilmalar jadvali ko‘rinishini taklif qiladi. Havolalar turli papkalarda taqsimlanishi, qo‘shilmalar turli xil shakllarda tashkil qilinishi va ularning turli ko‘rinishi belgilanishi mumkin: Report, Timeline, Gallery, va Table. Ushbu usullar turli xil fayllarni namoyish qilish, ularning vaqt oralig‘ini ko‘rish uchun mo‘ljallangan - sizni qiziqtirgan vaqtlarni sozlash qobiliyati ham mavjud.

Asosiy xulosalar

Topilgan ma’lumotlar tufayli o‘tkazilgan kriminalistik tadqiq qilish dallil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Har xil tashuvchi vositalarda saqlangan, o‘chirilgan yoki shikastlangan ma’lumotlarni qayta tiklash quyidagilarni qayta tiklash orqali amalga oshiriladi: turli xil o‘chirilgan fayllar; kompyuter viruslari ishidan keyingi ma’lumotlar; fayl tizimlarining mantiqiy shikastlanishidan keyingi ma’lumotlar; nosoz kompyuterda saqlangan ma’lumotlar; dastur xatoligi tufayli zararlangan fayllar.

Kriminalistik ahamiyatli ma’lumotlarni yuborish va olishni nafaqat statsionar kompyuter vositalari va tizimlari, balki mobil aloqa telefonlari, smartfonlar, planshet kompyuterlari uchun ham ko‘rib chiqish kerak, negaki ular faqatgina ahamiyatli ma’lumot tashuvchi yoki uzatuvchisi bo‘lib qolmay, balki jinoyat sodir etish predmeti va quroli bo‘lishi ham mumkin.

Quyidagi ekspertiza turlari mavjud:

- apparat - kompyuter ekspertizasi;
- dasturiy - kompyuter ekspertizasi;
- axborot - kompyuter ekspertizasi;
- kompyuter - tarmoq ekspertizasi;
- kompleks ekspertiza.

Texnik tizimlarni apparat ekspertizasidan o‘tkazish jinoyat sodir etilganligi to‘g‘risidagi axborotni saqlovchilarning to‘g‘ri ishlashini o‘rganishga qaratilgan.

Dasturiy - kompyuter ekspertizasi jinoiy yoki fuqarolik ishlarida haqiqatni aniqlash uchun mo‘ljallangan kompyuter dasturlarini ishlab chiqish va qo‘llash qonunlarini o‘rganadi.

Axborot-kompyuter ekspertizasi kompyuter ma’lumotlariga oid diagnostika va identifikatsiyalashning ko‘plab muammolarini yakuniy hal etish orqali dalil bazasini yaxlitlashni yakunlash imkonini beradi.

Kompyuter-tarmoq ekspertizasi har qanday tarmoq axborot texnologiyasini amalga oshiradigan kompyuter vositalarining funksional maqsadlariga asoslangan.

Ichki kompyuter tekshiruvini muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun Insidentga tezkor javob beruvchi guruhni tuzish kerak.

Raqamli kriminalistikada qo‘llaniladigan tan olingan dasturiy vositalar to‘plami (FTK) tezkor, barqaror va qulay foydalanish uchun mo‘ljallangan sud tomonidan tan olingan dastur bo‘lib, u kriminalistik aniqlik bilan ma’lumotlarni tahlil qiladi, parollarni deshifrlaydi va buzadi.

Kompyuter ekspertizasining barcha bosqichlarini amalga oshiruvchi texnologiyalar va dasturlar (EnCase Forensic) ekspertlarga tayyor filtr va modullarning keng ko‘lami yordamida ma’lumot olishga, qattiq diskdagi axborotning kriminalistik tahlili asosida potensial dalillarni topishga, olingan natijalar bo‘yicha hisobot tayyorlashga, shu bilan birga, olingan dalillarning yaxlitligi va ishonchliligini ta’minlashga imkon beradi.

Nazorat uchun savollar

1. Kompyuter axboroti va hisoblash texnikasi vositalarini kriminalistik tadqiq qilish nimaga asoslangan?

2. Ma'lumotlar qanday tiklandi?

3. Sud kriminalistika ekspertizaning asosiy prinsiplari.

4. Raqamli ko'rinishda saqlanuvchi dalillarning o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'ting.

5. Kompyuter -texnik ekspertizaning mohiyati.

6. Texnik tizimlarni apparat ekspertizasining asosiy vazifalari.

7. Kompyuter mutaxassisi qanday muammolarni hal qilishi kerak?

8. Sud ekspertlari uchun qanday vositalar mavjud?

9. O'rganish turi, kategoriyalari va vazifalarini sanab o'ting

10. Tadqiq qilish jarayonida qanday bosqichlar mavjud?

11. Raqamli dalillarni to'plash jarayoni qanday amalga oshiriladi?

12. Forensic Toolkit raqamli sud-tibbiyot ekspertizasi qanday vazifalarni hal qiladi?

13. *EnCase Forensic kompyuter ekspertizasini o'tkazish uchun texnologiyasi va dasturi qanday imkoniyatlarni taqdim etadi?*

6. KIBER JINOYATCHILIK MUAMMOLARI

6.1. Zamonaviy kiber jinoyatchilik

2015-yilda 2,5 milliard odam yoki sayyoramiz aholisining uchdan bir qismidan ko‘pi Internetga kirish imkoniga ega edi. Internetdan foydalanuvchilarning 60 foizdan ortig‘i rivojlanayotgan mamlakatlarda yashamoqda va Internetdan foydalanuvchilarning 45 foizini 25 yoshgacha bo‘lganlar tashkil qiladi. Hisob-ktiobga ko‘ra, 2019 yilga borib, jahon aholisining 70 foizigacha mobil kengmiqyosli internetdan foydalanish imkonini qo‘lga kiritadilar. 2020 yilga borib, tarmoq qurilmalari soni («Internet buyumlar») aholi sonidan olti barobar ortadi, bu Internetning joriy tushunchasini butunlay o‘zgartiradi.

Tarmoqqa o‘ta ravishda ulangan kelajak dunyosida internet-protokolga (IP) ulanish bilan bog‘liq elektron dalillar bilan birga uchramaydigan “kompyuter jinoyati” va balki umuman har qanday jinoyatni tasavvur qilish qiyin.

Kiber jinoyatning ta’rifi ushbu termini qanday maqsadda ishlatilishi bilan belgilanadi.

Tor ma’nodagi kiber jinoyat (kompyuter jinoyati) - bu kompyuter tizimi va u qayta ishlovchi ma’lumotlarga nisbatan yo‘naltirilgan elektron operatsiyalar ko‘rinishidagi har qanday noqonuniy harakat. **Keng ma’nodagi kiber jinoyat** (kompyuterlarni qo‘llash bilan bog‘liq jinoyat) - bu kompyuter tizimi yoki tarmoq yordamida yoki ular bilan birgalikda amalga oshiriluvchi har qanday noqonuniy harakat, jumladan, kompyuter tizimi yoki tarmoq yordamida ma’lumotning noqonuniy qo‘lga olinishi, taklif qilinishi yoki tarqatilishi.

Kiber jinoyatning asosi kompyuter ma’lumotlarining yoki tizimlarining maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligiga nisbatan cheklangan qator tadbirlar hisoblanadi. Ammo bu bilan cheklanmasdan, kompyuterdan shaxsiy yoki moliyaviy foyda ko‘rish, shaxsiy yoki moliyaviy zarar yetkazish maqsadida kompyuterdan foydalanishni, jumladan, shaxsiy ma’lumotlarni ishlatish, kompyuter ma’lumotlari tarkibi bilan bog‘liq kirdikorlarni (ularning bari “kiberjinoyat”ning keng tushunchasiga kiradi) qo‘shsak, barchasini qoplovchi huquqiy ta’rifini topish qiyinlashadi. Kiber jinoyatlarning asosini tashkil etuvchi jinoyatlar uchun ba’zi ta’riflar kerak. Biroq kiber jinoyatchilik “ta’rifini” aniqlash biron bir jinoyatni sodir etishning elektron dalillarini topish bilan ko‘proq bog‘liq bo‘lgan

qator maxsus tergov vakolatlarini va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini aniqlash kabi boshqa maqsadlardan juda muhim emas. Shu sababli “kiberjinoyat” tushunchasiga harakat va faoliyatlar birlashmasi deb qarash maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlardan tashqari, kompyuter texnologiyalari va Internet ham, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning imkoniyatlarini kengaytiruvchi boshqa vositalar kabi, jinoyatlarni sodir etishda ishlatilishi mumkin. Kompyuter yordamida amalga oshiriluvchi jinoyatlar yoki kompyuter jinoyatlar nisbatan uzoq vaqtdan beri davom etayotgan hodisani tashkil etsa-da, global tarmoqqa ulanishning o‘sib borishi zamonaviy kiber jinoyatlarning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Zamonaviy kiber jinoyatchilikning asosi - global axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yaqinlashuvi transmilliy miqyosda jinoyatlarni sodir etish uchun ishlatilishi mumkin degan fikrdir.

Bunday jinoyatlar yuqorida ko‘rsatilgan barcha kompyuter jinoyatlarini, shuningdek, kompyuter yoki Internet-kontent bilan bog‘liq, shaxsiy yoki moliyaviy daromad uchun kompyuterdan foydalanish kabi ko‘plab boshqa jinoyatlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Shunga qaramay, bugungi kundagi va ayniqsa ertangi kiber jinoyatchilikning markaziy elementi sifatida global tarmoqqa ulanish ko‘rilishi kerak. Kibermakon va IP-trafikning kengayishi hamda simli ulangan qurilmalarga nisbatan simsiz ulangan qurilmalarning trafigi ortishi, kompyuter bo‘lmagan qurilmalar internet-trafigining ko‘payishi bilan bir qatorda, global tarmoqqa IP-ulanishsiz ro‘y bergan kompyuter jinoyatlarini tasavvur qilish qiyin. Mobil qurilmalarning maxsus moslashtirilganligi va maishiy texnika yoki shaxsiy buyumlarning internet-prorokollariga ulanishi elektron ma’lumot va ularning uzatilishi deyarli har bir inson xatti-harakatlarining, u qonuniy yoki noqonuniy bo‘lsin, ajralmas qismi bo‘lishiga olib keladi.

Kiber jinoyatlar o‘sishining asosiy sabablari. Kriminologiya nuqtai nazaridan, axborot-kommunikatsiya tizimlari va Internetdan foydalanishning ko‘payishi jinoyatchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratilishiga va jinoyatlar o‘sishini rag‘batlantirishga sabab bo‘lishi mumkin (24- rasm).

Garchi bu holatda bir qator kriminologik nazariyalar qo‘llanilishi mumkin bo‘lsa-da, kiber jinoyat "yangi va turli xil jinoyat turi" bo‘lishi jinoyatchilikning umumiy nazariyasini qo‘llash orqali o‘zgaruvchan vaziyatni oldindan ko‘ra bilishda va bunday jinoyatlarning oldini olishda muammolarni keltirib chiqaradi.



24- rasm. Kiber jinoyatlar sodir etilishining ehtimolli sabablari

Asosiy taxminlardan biri “kiberjamiyatning” rivojlanishi kompyuter tizimlarining mavjudligi, kompyuterlar taqdim etuvchi bevosita jinoyat imkoni bilan bog‘liq bo‘lmagan yangi fenomenlarning shakllanishiga olib keladi. Inson jismoniy dunyoga nisbatan kibernetika ichida qonuniy va noqonuniy xatti-harakatlar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatishi mumkin. Masalan, kiber makonda odamlar jismoniy dunyoda o‘z maqomlari va pozitsiyasi tufayli sodir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etishlari mumkin. Bundan tashqari, identifikatsiyalash moslashuvchanligi, dissotsiyativ anonimlik va cheklovlar yo‘qligi kibernetika sohasidagi jinoyatiy xatti-harakatlarni rag‘batlantirishi mumkin.

Odatiy ishlarning konsepsiyasi ham kiber jinoyatlarning asosiy kuchlarini aniqlashga yordam beradi. Kundalik faoliyat konsepsiyasi

jinoyatchilik xavfi o‘zaro aloqa bilan ortib borayotganligini ko‘rsatadi: manfaatdor jinoyatchi, mos qurbon va samarali advokatning yo‘qligi. Kiber jinoyat holatida ko‘plab mos keluvchi qurbonlar global tarmoq o‘tkazilayotgan vaqtining va bank, xarid qilish va fayllarni almashish kabi onlayn xizmatlardan foydalanishning ko‘payishi tufayli foydalanuvchilarning fishing yoki firibgarlik qurbonlari bo‘lish xavfini yuzaga keltirishi mumkin.

Shu jumladan, «Twitter» va «Facebook» singari ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi millionlab potensial firibgarliklar yoki qurbonlar shakllanishiga sabab bo‘ladi. Agar foydalanuvchilar faqatgina "do‘stlar" doirasidan tashqaridagi muloqotni cheklovchi sozlamalarni ishlatmasalar, bunday ijtimoiy tarmoqlar ularni darhol ko‘plab potensial qurbonlarga ulanish imkonini beradi. Bundan tashqari, odatda ijtimoiy tarmoqlardagi profillarini o‘zining qiziqishlari va joylashuvi asosida joylashtirishi jinoyatchilarga muayyan xatti-harakat yoki biografik ma’lumotlar bilan birlashtirilgan qurbonlarga hujum qilish imkonini beradi. Mavjud “himoya” choralari, masalan, antivirus dasturlari va jinoyatni to‘g‘rilash tadbirlari (nisbatan katta bo‘lmagan) yirik foyda ko‘rishni maqsad qilgan qonunbuzarni to‘xtashish uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin.

Tashkillangan guruhlar tomonidan sodir etiladigan kiber jinoyatlarning asosiy sabablariga global tarmoqqa ulanish va o‘ziga o‘xshashlar bilan ma’lumot almashinish kiradi. Bundaylarga yana bir misol, “karding” yoki o‘g‘rilangan ma’lumotlarni almashish uchun kredit kartalari ma’lumotlarini o‘g‘irlovchi firibgarlardir. Kredit kartalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘g‘rilovchi firibgarlar forumlari ko‘pincha “tartibsiz” strukturada boshqaruv zanjirisiz shaklda hosil bo‘ladi, bunda firibgarlar bilimlarni almashish va xizmatlarni taklif qilish uchun bir-birini izlashadi vaglobal tarmoqda “uchrashishadi”. Keyinchalik, forumlar yanada yuqori darajadagi tashkilotga ega "markaz" vazifasini bajaradigan ko‘proq nazorat qilinadigan jinoiy guruhlarga aylantirildi. Ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy-targ‘ibot va shaxsiy jinoyatchilar va jinoyatchi guruhlar o‘rtasidagi muloqot uchun ham ishlatilishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham kiber jinoyatlarning o‘sishini rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Xususiy sektor korxonalari harajatlarni kamaytirishga va xodimlar sonini qisqartirishga majbur bo‘ladigan holat, masalan, xavfsizlikning kamayishi, axborot va aloqa tizimlarida zaif nuqtalardan foydalanishga olib kelishi mumkin. Kompaniyalarning chetki xodimlar yoki vaqtinchalik pudratchilarni

yollashi yoki kompaniyalar ishchilari o‘rtasida ish haqining pastligi va ish joyini yo‘qotishdan qo‘rqqani sababli noroziliklari mavjudligi sababli kompaniyalarning muayyan "ichki a’zolari" yoki jinoiy guruhlarning ularga ta’siri xavfli bo‘lishi mumkin. Kiber xavfsizlik bilan shug‘ullanuvchi ba’zi kompaniyalar shtat qisqarishiga duchor bo‘lgan xodimlar iqtisodiy pasayish davrida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavflarni tug‘dirishidan xavotirlanadilar. Shuningdek, uyushgan jinoyatchilik uchun yangi manbaga aylanishi mumkin bo‘lgan, oliy ma’lumotga va kompyuterga ega bo‘lgan ishsiz yoki yarim kunlik talabalar soni ortib bormoqda.

6.2. Kiber jinoyatchilikning klassifikatsiyasi

Xalqaro elektraloqa ittifoqi (MSE) kiber jinoyatchilikning quyidagi batafsil klassifikatsiyasiini taklif qiladi:

1. Kompyuter ma’lumotlarining yoki tizimlarining maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligiga qarshi jinoyatlar

- kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish (xakerlik, shifrni buzish);
- kompyuter ma’lumotlariga noqonuniy kirish, ularni qo‘lga olish yoki tutish (axborot josusligi);
- ma’lumot yoki tizimga noqonuniy aralashuv;
- kompyuterdan qonuniy foydalanish vositalarini ishlab chiqarish, tarqatish va saqlash;
- ma’lumotlar himoyasi choralarini yoki maxfiyligini buzish.

2. Kompyuterdan foydalanish bilan bog‘liq jinoyatlar

- kompyuter firibgarligi yoki qalbakilashtirish;
- shaxsiy ma’lumotlar bilan bog‘liq kompyuter jinoyatchiligi;
- mualliflik huquqi yoki tovar belgilari bilan bog‘liq kompyuter jinoyatchiligi;
- spamni tarqatish yoki tarqatishni nazorat qilish;
- shaxsiy jabr maqsadida kompyuterdan foydalanish harakatlari;
- bolalarni jalb qilish va gruming maqsadida kompyuterni qo‘llashni nazarda tutuvchi harakatlar.

3. Mazmun bilan bog‘liq jinoyatlar

- nafratni targ‘ib qilish bilan bog‘liq jinoyatlar;
- bolalar pornografiyasini ishlab chiqish, tarqatish va saqlash uchun kompyuterdan foydalanish;
- jinoyatda hamkorlik uchun kompyuterdan foydalanishni nazarda tutuvchi harakatlar;

- diniy jinoyatlar;
- tuhmat va qalbaki ma’lumotlar;
- spam va u bilan bog‘liq jinoyatlar.

4-ilovada ushbu harakatlarning har birining batafsil tavsifi keltirilgan. Maqsad “kiber jinoyatchilik” atamasiga kiritilishi mumkin bo‘lgan taxminiy harakatlar ro‘yxatini tuzishdir.

Shu bilan bir qatorda, shuni ta’kidlash kerakki, internet va shaxsiy kompyuterlarning keng tarqalishi komyuter yoki tizim ma’lumotlari har qanday turdagi jinoyatlarni sodir etish uchun qo‘llanilishi mumkin. Shuning uchun konsepsiya jihatdan farqlansada, elektron dalillar sohasi kiber jinoyatchilik bilan bog‘liq. Elektron dalillarni to‘plash va taqdim etish kiber jinoyatni tergov qilish va sud tomonidan taftish etilishining ajralmas qismidir. Bundan tashqari, bu borgan sari odatiy jinoyatlar, jumladan kissavurlik, o‘g‘rilik yoki o‘g‘rilik va buzish hamda turli xil tashkiliy jinoyatlarga tegishli bo‘lmoqda. Telefon orqali suhbatlar, elektron pochta, aloqa jurnallari, SMS-xabarlar, mobil telefonlarning manzillari va kompyuter fayllarini kompyuter yozuvlari deyarli har qanday turdagi jinoyatda shubhalanuvchining joylashuvi, maqsadi, jinoyat sodir etilgan hududda bo‘lganligi yoki unga jalb qilinganligi yuzasidan dalillarni saqlashi mumkin.

14 jinoyat turidan iborat ro‘yxat to‘liq deb hisoblanilmaydi. Kiber jinoyat deb qaralishi mumkin bo‘lgan boshqa qilmishlar: “moliyaviy vositalar va to‘lov vositalari bilan bog‘liq noqonuniy ishlarni amalga oshirish maqsadida kompyuter vositalaridan foydalanish”, “onlayn rejimda qimor o‘yinlari”, “odam savdosi maqsadida axborot texnologiyalari birliklarini qo‘llash”, “kompyuter yordamida giyohvand moddalar savdosi bilan noqonuniy shug‘ullanish”, “kompyuter yordamida talon-taroj qilish”, “parollarni noqonuniy tarqatish” va “maxfiy axborotdan foydalanish”.

Ba’zi hollarda qilmishlarga yuqorida sanab o‘tilgan kiber jinoyatlarning maxus shakli yoki variant deb qaralishi mumkin. Masalan, moliyaviy jinoyatni sodir etish uchun kompyuterni talab qiluvchi vosita sifatida foydalanish kompyuter firibgarligi yoki qalbakilashtirishning keng tushunchasiga kiritilishi mumkin. Maxfiy ma’lumotlarga kirish kompyuter ma’lumotlariga noqonuniy kirish turlaridan biri deb hisoblanishi mumkin. Parollarni noqonuniy tarqatilishi kompyuterlarni noto‘g‘ri ishlatish vositalaridagi ayrim qoidalarni qamrab olgan.

Internetga dunyo bo‘ylab har yerda kirish uchun sharoitlar yaratilar ekan, kiber jinoyat tushunchasini turli bosqichlarda qo‘llash ehtiyoji

tug‘ilishi mumkin: alohida kiber jinoyatlarni aniqlashda tushunchaning aniq va to‘liq tasviri zarur, bundan tashqari to‘xtovsiz real hayotdan global tarmoqqa ko‘chuvchi jinoyatlarga nisbatan butunjahon hamkorligining tergov o‘tkazish huquqlari va mexanizmlarini qo‘llash uchun samarali himoya mexanizmlari mavjud holatda keng yondashuv talab etiladi.

Kriminallashtirish. Tahlil qilish maqsadida tuzilgan savolnoma yordamida kiber jinoyat sohasidagi jinoiy qonunchilik ma’lumotlariga asosan hamda mamlakatlar qonunchiligi to‘g‘risida mavjud bo‘lgan hozirgi ma’lumotlarni qo‘llagan holda asosiy manbalarni o‘rganish orqali odatda kiber jinoyatchilik tushunchasi tarkibidagi 14 ta jinoyat belgilandi. So‘rovda ishtirok etgan davlatlar shuni ko‘rsatdiki, ushbu 14 jinoyat keng miqyosda kriminallashtiriladi, yaqqol istisno sifatida spam bilan bog‘liq jinoyatlar, bir qancha darajada kompyuterdan noqonuniy foydalanish bilan, millatchilik va irqchilik bilan, internetdan bolalarni jalb qilish va “gruming” uchun foydalanish qayd etildi. Davlatlar so‘rovnomada keltirilmagan ba’zi jinoyat turlarini keltirishdi. Ular asosan kompyuterda saqlanuvchi ma’lumotlarga tegishli edi, xususan, nomaqbul materiallar, onlayn qimorbozlik va giyohvandlik va odam savdosi bozori singari noqonuniy onlayn bozorlar shularning jumlasidandir. Ko‘rsatilgan 14 ta jinoyatga to‘xtalganda esa, davlatlar shuni xabar berishdiki, maxfiylik, ma’lumotlar yaxlitligi, kompyuter tizimlarining keng tarqalganligiga nisbatan asosiy kiber jinoyatlar uchun kiber jinoyatchilik sohasidagi maxsus jinoyatlar qo‘llaniladi. Kiber jinoyatning boshqa turlariga nisbatan kiber jinoyatchilikka bog‘liq bo‘lmagan umumiy turdagi qonunbuzarliklar qo‘llaniladi. Shu bilan birga, kompyuterdan shaxsiy hayotga aralashish, firibgarlik yoki qalbakilashtirish, shaxsiy ma’lumotlar bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etishda foydalanilganda ikkala yondashuv qo‘llaniladi.

Kompyuter tizimlari va ma’lumotlariga noqonuniy kirish jinoyat obyekti (axborot, tizim ma’lumotlari) va “shunchaki” kirish yoki yo‘qotish , zarar yetkazishning qo‘shimcha niyatlari bilan amalga oshirilgan ishning kriminalizatsiyasiga qarab farqlanadi. Kompyuter tizimlari yoki ma’lumotlari faoliyatiga aralashuv kriminallashtirilganda niyatning mavjudligiga yondashuv turlicha bo‘ladi. Ko‘plab mamlakatlarda aralashuv atayin uyushtirilgan bo‘lishi lozim bo‘lsa, boshqalarida ehtiyotsizlik tufayli yuzaga kelgan kirish ham hisobga olinadi. Kompyuter ma’lumotlariga aralashuv, o‘chirish va zarar yetkazishdan tortib to o‘zgartirish, bloklash, kiritish va tarqatishgacha

bo‘lgan qilmishlarni qamrab oladi. Ma’lumotning noqonuniy qo‘lga olinishining kriminallashuvi omma uchun mo‘ljallanmagan ma’lumotning qo‘lga olinishi bilan cheklangan yoki cheklanmaganligi, hamda ma’lumot “texnik vositalar” yordamida qo‘lga olinganligiga binoan farqlanadi. Barcha davlatlarda ham kompyuterning noqonuniy qo‘llanishi vositalari kriminallashtirilmaydi. Bu kriminallashtiriladigan davlatlarda jarayon jinoyatning kompyuter dasturlari va kirish kodlarini saqlash, tarqatish yoki foydalanishiga qarab bir-biridan ajraladi. Butunjahon hamkorligi nuqtai nazariga ko‘ra, bunday farqlanish ikki karra jinoiy javobgarlikka ta’sir qilishi mumkin.

Qator mamlakatlarda maxsus kiber jinoyatlarga: kompyuter firibgarligi, qalbakilashtirish va shaxsiy ma’lumotlardan foydalanishga nisbatan munosabat qabul qilingan. Boshqa davlatlarda firibgarlik va o‘g‘rilikka nisbatan umumiy munosabat belgilanadi yoki asos tariqasida qilmishning markaziy elementini aks ettiruvchi jinoyat, jumladan, shaxsiy ma’lumotlarga bog‘liq holatda noqonuniy kirish, ma’lumotlarga aralashish va qalbakilashtirish olinadi. Ma’lumotlarning mazmuni, xususan, bolalar pornografiyasiga aloqador jinoyatlar kriminallashuvi juda keng tarqalgan. Biroq "bola" atamasi ta’rifida, vizual materiallarga nisbatan cheklovlar yoki simulyatsiya qilingan materiallar yo‘qligi hamda harakatlarga nisbatan ham nomuvofiqliklar mavjud. Garchi ko‘pchilik davlatlar bolalar pornografiyasini ishlab chiqarish va tarqatish qilmishlarini jinoyat deb hisoblasa-da, saqlash va foydalanishning kriminallashuvida sohasidagi keng qamrovli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Kompyuter jinoyatlariga kelsak, mamlakatlar ko‘pincha mualliflik huquqi va tovar belgilari bilan bog‘liq bo‘lgan qilmishlar ular qasddan va tijoriy maqsadda qilinsa umumiy jinoiy javobgarlikka tortilishini xabar qiladilar.

Ijtimoiy tarmoqlar va foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan Internet kontentining ortib borayotgan ommaviyligi ko‘plab mamlakatlarda jazo qonunchiligi ko‘rilishiga olib keldi, bu esa so‘z erkinligi huquqlarini hurmat qilishga chaqirgan tartibga solish choralarini ko‘rishga sabab bo‘ldi. Respondent davlatlar so‘z erkinligini cheklashning turli darajalari, jumladan, ifloslanish, hurmatsizlik, tahdidlar, nafratni qo‘zg‘atish, diniy his-tuyg‘ularni haqorat qilish, odobsiz materiallarni tarqatish va jamoatchilikning xavotirlanishiga barham berish haqida hisobot beradi. Ba’zi cheklovlarning ijtimoiy-madaniy elementi nafaqat milliy qonunchilikda, balki ko‘p tomonlama hujjatlarda ham namoyon bo‘ladi. Bu borada, kiber jinoyatlarga qarshi

kurash bo‘yicha mintaqaviy hujjatlarda jamoat axloqi, pornografik materiallar va diniy, oilaviy prinsiplar yoki qadriyatlarning buzilishi bilan bog‘liq umumiy jinoyatlarni ko‘zda tutilgan.

6.3. Kiber jinoyatlarning oldini olish

"Jinoyatchilikning oldini olish" atamasi jinoyatchilik xavfini kamaytirishga qaratilgan strategiyalar va tadbirlarni va jinoyatchining ko‘plab sabablarini bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar orqali shaxslar va jamiyat uchun mumkin bo‘lgan zararli oqibatlarni qamrab oladi. Jinoyatchilikni oldini olish bo‘yicha ko‘rsatmalar jinoyatchilikning oldini olishda davlat organlarining boshqaruvchi funksiyalari vazirliklar va idoralar, shuningdek, davlat organlari va jamoat tashkilotlari, nohukumat tashkilotlari, biznes va jismoniy shaxslar o‘rtasida hamkorlik va sheriklik munosabatlarida muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi (25- rasm).



25- rasm. Jinoyatchilikning oldini olish tamoyillari, tashkiloti, usullari va yondashuvlari

Jinoyatchilik oldini olishning samarali yo‘li asosiy prinsiplarga (masalan, yetakchilik, hamkorlik va qonun ustuvorligi), tashkilot shakllarini (masalan, jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha harakatlar rejalari) va metodlarni (masalan, mustahkam ma’lumot bazasini yaratish) va yondoshuvlarni (jumladan, jinoyatchilik imkoniyatlari va jinoyat qurbonlarini himoya qilishni kuchaytirish) asoslangan.

Kiber jinoyatlarning oldini olishda bir qator muammolar mavjud. Bunga ko‘plab potensial jabrdiydalarni taqdim etadigan Internet qurilmalarining mavjudligi va tarqalganligi; jismoniy shaxslarning global tarmoqda o‘zini “qaltis” ko‘rsatishga istagining nisbatan yuqori darajadaligi; huquqbuzar shaxslar tomonidan anonimligi va qo‘rqitishining ehtimoli; ko‘plab kiber jinoyatlarning transmilliy xarakteri; va jinoyatchilik yangiliklarining yuqori darajasi kiradi. Ushbu muammolarning har biri kiber jinoyatlarning oldini olish sohasidagi tashkilot, *usul* va *yondashuvlarga* ta’sir qiladi.

Shunday qilib, *tashkiliy* tuzilmalar kiber jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy darajada hamkorlik qilish zarurligini aks ettirishi kerak. *Uslublar* kiber-faktlar tahdidining doimiy yangilanib turishini ta’minlashi kerak va *yondashuvlar* bir qator manfaatdor tomonlarning, xususan, Internet-infratuzilmasi va xizmatlarni boshqaradigan xususiy sektor tashkilotlarining ishtirokini o‘z ichiga olishi kerak.

Axborot xavfsizligi sohasidagi xavflarga ta’sir qiluvchi hozirgi davrning ikki o‘zgarishiga bulutli hisoblash xizmatlaridan foydalanishning ortishi va xodimlar tomonidan o‘zlarining raqamli vositalaridan (ayniqsa smartfon va planshetlar) foydalanish kiradi.

Oxirgi paytlarda xavfsizlik masalalariga bulutli hisoblashlarning ta’siri oshayotgani sezilmoqda. Masalan, texnologiya masalalari bo‘yicha kompaniya-konsultantlardan biri shuni ta’kidladi: ”Kichik kompaniyalar uchun kiber jinoyatchilik nuqtai nazaridan bulutli texnologiyalardan foydalanish buni server yordamida yerto‘lada amalga oshirishdan xavfsizroqdir. Kiber xavfsizlik bo‘yicha ekspertlarning soni har bir kompaniyani ta’minlash uchun yetarli emas va aniqki bu qimmatga tushadi. Shuning uchun himoya va javob berish nuqtai nazaridan, bunday resurslarni “Amazon”ga jamlash maqbulroqdir. Ammo bu hujum jabrdiydalarining paydo bo‘lishiga olib kelish ehtimoli bor, chunki kichik mahalliy magazin himoyasidan ko‘ra, yirik xizmat ko‘rsatuvchini buzish manfaatliroq”.

Boshqa muammo xodimlarning shaxsiy vositalaridan foydalanishidir. Texnologiya bo‘yicha kompaniya-konsultant shuni qayd etgan: "Men xavf shaxsiy qurilmalardan foydalanishda to‘planadi deb hisoblayman. Barcha keng ko‘lamdagi funksiyalarni bajaruvchi, simsiz tarmoqlarga ulanuvchi, ishda va shaxsiy hayotda ijtimoiy tarmoqlar va elektron pochta orasida bog‘lanishni hosil qiluvchi vositalarni ish joyiga olib keladi. Shuning uchun, o‘ylashimcha, asosiy xavf muammoni tushunish madaniyatining yo‘qligidadir”.

So‘nggi paytlarda kompaniyalar tomonidan to‘plangan ma’lumotlardan foydalanib hujumlarga javob berish imkoniyatlari ko‘rib chiqilmoqda. Bir qator tashkilotlar korxonalarga huquqbuzarlarning profillarini va ularning hujumlari sabablarini tuzishda yordam beradi. Bu ma’lumotlar, texnik muhofaza qilish va sud jarayonlari sifatini yaxshilash, firibgarlik huquqbuzarni aldash uchun kompaniyalar o‘z tarmoqlarida noto‘g‘ri ma’lumotlarni joylashtirish, hujumni iloji boricha ko‘p resurs talab qiluvchi faoliyatga aylantirish maqsadida qo‘llaniladi. Ba’zi kompaniyalar xakerlarga qarshi qaratilgan "teskari xakerlik hujumi" imkoniyatini ko‘rib chiqmoqdalar, lekin bu qanchalik qonuniy va texnik jihatdan imkoni borligi hali aniq emas.

Umumiy nigohda kiber jinoyatni oldini olish aralash xarakterga ega. Katta kompaniyalar, ayniqsa moliyaviy xizmatlar sohasida, foydalanuvchilarni avtorizatsiya qilish uchun apparat xavfsizligi kalitlari kabi maxsus xavfsizlik texnologiyalaridan foydalangan holda yanada murakkab kiber jinoyatchilikni oldini olish bo‘yicha strategiyalarga rioya qilishadi. Xavfsizlik masalalari bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar faol monitoring olib borshadi va yangi tahdidlar shakllanishi haqida hisobotlarni doimiy e’lon qilib borishadi, bir qator texnologik kompaniyalar esa sudlarga bot-tarmoqlarni yo‘q qilish, spammerlar va firibgarlarni kuzatish to‘g‘risidagi da’volar bilan faol murojaat etishadi. Bundan tashqari, kichik kompaniyalar juda yaxshi himoyalanmagan va ba’zilari xavfsizlik choralari bilan bog‘liq xavflarni aniq tushunchasiga ham ega emas.

Internet xizmatlari va xostingni taqdim etuvchilar tomonidan kiber jinoyatchilikning oldini olish. Internet-insfrastruktaralarida Internet xizmatlarini taqdim etuvchilar alohida o‘ringa ega. Ular yuqori sig‘imli optik tolali kanal va serverlar, kommutatorlar va marshrutizatorlar hamda *radiosotlar* (mobil tarmoq operatorlari holatida) va boshqa asosiy elementlarni sotib oladi yoki ijaraga oladi, bu bilan tarkibni qo‘yish va tarqatish, stol va cho‘ntak uskunalarini Internetga

ulash imkonini beradi. Bir tomondan, xizmat koʻrsatuvchi provayderlar kiber jinoyatlarning oldini olishda rol oʻynashi aniq, ammo boshqa tomondan, xizmat koʻrsatuvchi provayderlarning masʼuliyati va Internet-kontent uchun javobgarlik muammolari ham mavjud. Kiber jinoyatlarning oldini olishda xizmat koʻrsatuvchi provayderlarning imkoniyatlarini koʻrib chiqish uchun birinchi navbatda bir nechta texnik jihatlarni qisqacha tahlil qilish kerak.

Internet-provayderlar foydalanuvchilarni Internetga ulaydi va global tarmoq, elektron pochta va ovozli IP (VoIP) serverlari orqali foydalanuvchilar va qurilmalar oʻrtasida maʼlumotlarni uzatadi. Agar foydalanuvchi virtual xususiy tarmoq, proksi-server yoki maʼlumotlar almashinuvida ishlatiladigan dasturiy taʼminotga biriktirilgan vazifalar yordamida maʼlumotlarni shifrlamasa, Internet xizmati provayderlari baʼzi trafikni tahlil qilishi mumkin. Internet xizmatlarini koʻrsatuvchilar uchun maʼlum boʻlgan foydalanuvchi maʼlumotlariga axborot almashinuvi tarkibi, yaʼni veb-sayt va elektron- pochtadagi shifrlanmagan matnlar va suratlar, kontekstual maʼlumotlar, misol uchun abonent qaysi serverlarga tashrif buyuradi, elektron pochta xabarlarining manbasi va yoʻllanish manzili, turli xizmatlardan foydalanishning vaqti va davomiyligi kiradi. Shu vaqtning oʻzida, bunday maʼlumotlar shifr qoʻllash holatida ham provayder uchun maʼlum boʻladi. Umuman olganda, tarkib faqatgina joʻnatilish vaqtida qoʻllanila oladi, keyinchalik esa faqat foydalanuvchi ulanishlarining aniq monitoring va maxsus qurilmalarni qoʻllagan holda maʼlumotlarni saqlashda amalga oshadi. Istisno sifatida provayder elektron pochta serverini boshqarish holati hisoblandi, negaki bunda xabar uzoqroq muddat saqlanadi.

Bir kishiga koʻpincha bir nechta Internet-provayderlar tomonidan xizmat koʻrsatiladi, chunki kirish turli joylardan amalga oshiriladi. Koʻpincha uy uchun Internet xizmatlarini bitta provayder, mobil qurilmalar uchun esa boshqasi taʼminlaydi. Uchinchi provayder ish joyida Internetga kirish uchun foydalanilishi mumkin va mahalliy kafe ichidagi simsiz tarmoqqa ulanishda boshqa internet-provayder bunday ulanishni taʼminlash uchun ishlatiladi. Shuning uchun, bir shaxsning faoliyati toʻgʻrisida maʼlumot turli xil xizmat koʻrsatuvchi provayderlarga tegishli boʻlishi mumkin.

Yetkazib beruvchi Internet hosting veb-saytlar va boshqa xizmatlarda qoʻllaniluvchi tizimlarni nazorat qiladi. Internet-servis provayderlari va ularning abonentlari oʻrtasidagi munosabatlarda boʻlgani kabi, xizmat koʻrsatuvchi

provayderlar hosting xizmati mijozlarning barcha kiruvchi va chiquvchi trafiklarini kuzatish uchun noyob imkoniyatga ega. Shuning uchun ular bunday xizmatlardan noqonuniy foydalanishni to‘xtatish yoki blokirovka qilish uchun texnik imkoniyatlarga ega. O‘zlarining xizmat shartnomalarida, hosting kompaniyalari, odatda, o‘z serverlarida joylashtiriladigan xizmatlarning tabiatiga, odatda ma’lum miqdordagi spam yoki noqonuniy elektron pochta xabarlarini yuborish, noqonuniy kontentni o‘rnatish yoki mualliflik huquqining buzilishi kabi ma’lum nomaqbul xatti-harakatlarga qo‘yilgan cheklovlarni yoritadi.

Xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar ikki asosiy sohada kiber jinoyatlarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydilar:

– keyinchalik kiber jinoyat tergovida huquq-tartibot idoralari foydalanishi uchun foydalanuvchi ma’lumotlarini saqlash;

– avvalo kiber jinoyatning oldini olish uchun internetdagi ma’lumotlar almashinuvi yoki ma’lumotlar tarkibini faol «filtrlash».

Ma’lumotlarni saqlab turish. Internet-provayderlar tarmog‘i orqali o‘tadigan trafik miqdori hisobga olinsa, ular barcha trafiklarning to‘liq ro‘yxatini saqlay olmaydilar. Ba’zi mamlakatlar murakkab internet monitoringi tizimlarini joriy qildilar, ammo texnologik cheklovlar tufayli katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish qiyin bo‘lishi mumkin. Unchalik ikir-chikirli ma’lumotni (masalan, ayrim foydalanuvchilarga belgilangan vaqtda berilgan IP-manzillar kabi) ro‘yxatga olish uzoq vaqtni qamrab olishi mumkin. Internet-provayderlar odatda "real vaqtda" ma’lumotlarning manzil monitoringini amalga oshirish imkoniyatiga ega va ho‘pgina mamlakatlardagi "qonuniy ushlab turish" qoidalarini internet-provayderlar odamni yoki xonadagi ulanishlarni real vaqt rejimida to‘liq monitoring qila olishi kerakligini ta’kidlaydi.

Ma’lumotlarni himoyalash. Ko‘p mamlakatlarda Internet xizmatini ko‘rsatuvchi provayderlar tomonidan ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilik tomonidan belgilanadi, u shaxsiy ma’lumotlarni qo‘llash va himoyalashga doir sohada talab qo‘yadi. Xavfsizlik tamoyili shuni belgilaydiki, kartotekalar” noqonuniy kirish, ma’lumotlardan noqonuniy foydalanish va kompyuterlarga virus kiritish kabi inson faoliyati bilan bog‘liq xavflardan holi bo‘lishi kerak”.

Biroq shaxsiy ma’lumotni ma’lumotlarni himoyalash doirasidagi maqsadlar uchun kerak bo‘lmagan shaxsiy ma’lumotlarni o‘chirish majburiyati politsiya organlari tomonidan kiber jinoyatni tergov qilish

jarayoniga ta’sir qilishi mumkin. Masalan, bir qator huquqni muhofaza qilish idoralari internet-provayderlar tomonidan qisqa muddatli ma’lumotlarni saqlab qolish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar haqida xabar berishgan, bu esa ayrim holatlarda ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlaydigan barcha tashkilotlarga va shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari Internet-servis provayderlari tomonidan ro‘y beruvchi kiber jinoyatlarning oldini olishda yordam beradi, negaki ular foydalanuvchi ma’lumotlarining xavfsizligi va yaxlitligini ta’minlash uchun ma’lumotlarni qayta ishlash standartlarini belgilab qo‘yadi.

Ma’lumotlarni saqlash. Ma’lumotlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablarini katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlashning moliyaviy oqibatlari bilan birgalikda hisobga olgan holda, Internet-provayderlar ma’lumotni cheklanmagan vaqt davomida saqlamaydilar. Huquqni muhofaza qilish organlariga tergov o‘tkazishda yordam berish uchun ba’zi mamlakatlarda ma’lumotlar himoyasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga nisbatan istisnolardan foydalanildi, unga muvofiq Internet-provayderlar Internet-obunachilarning ma’lum turdagi aktivligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarini belgilangan vaqt oralig‘ida (masalan, bir yil) saqlaydi, bu vaqt ichida tergov organlari ushbu ma’lumotlardan sud yoki ma’muriy organlarning ruxsati bilan foydalanishlari mumkin.

Ma’lumotlar xavfsizlik tizimlarini zararlanganligi haqida xabar berish. Va nihoyat, "axborot xavfsizligi tizimlariga ziyon yetkazish to‘g‘risida majburiy xabar berish to‘g‘risidagi" talablar Internet-provayderlarning abonent ma’lumotlarini saqlashga ta’sir qilishi mumkin. Ta’sirlangan shaxslarga va tartibga solish organlariga ma’lumotlar xavfsizligi tizimiga yetkazilgan zarar haqida, xususan, shaxsiy ma’lumotlarning oshkor etilganda majburiy bildirishnoma berish bir qator mamlakatlarda keng qo‘llab-quvvatlandi. Bildirishnoma bunday zarar oqibatida zarar ko‘rgan tomonga bunday hodisaning oqibatlarini yumshatish uchun xavfsizlik nuqtai nazaridan maslahatlar berish (masalan, parollarni yoki foydalanuvchining shaxsiy kodini o‘zgartirish yoki to‘lov kartalarini qayta berish uchun murojaat etish), xavfsizlik tizimlarini takomillashtirish uchun kompaniyalarga raqobatbardoshlikni kuchaytirish va ma’lumotlarni muhofaza qilish va hayotiy infrastruktura uchun mas’ul boshqaruvchilarning say-

harakatlarini qo‘llab-quvvatlash chora tadbirlarini ko‘rish imkonini beradi.

Axborot xavfsizligining buzilishi to‘g‘risidagi xabarnomalar axborot xavfsizligi tizimining muhim elementi, shu jumladan Internet-provayderlarga nisbatan, bunday qonunlar «xavfsizlikka ziyon» atamasini belgilashda ehtiyotkor yondashuvni ta’minlab berishi va bir qator boshqa choralar bilan ,jumladan, ma’lumotlarni muhofaza qilishning samarali qonunlari birgalikda ishlatilishi lozim.

Internet-kontentni filtrlash. Internet provayderlari ma’lumotlarni jinoyatchilikning oldini olish uchun yordam berishda saqlash imkoniyatidan tashqari Internetdagi ma’lumot almashinuvi va uzatilayotgan shaxsiy ma’lumotning aktiv tahlilini qo‘llashi mumkin. Bunda asosiy tamoyillardan biri bu internet-provayderlari tomonidan internet-mazmunni “filtrlash” hisoblanadi. Internet-ulanishlarning filtrlanishi har qanday tarmoqda ma’lum darajada o‘rin egallaydi. Faoliyat samaradorligini oshirish va xavfsizlikni ta’minlash uchun qo‘llaniluvchi filtrlashning boshlang‘ich darajasi bu noto‘g‘riyoki boshqa yo‘lda zararlangan ma’lumotni bloklashdir. Internet-provayderlar noqonuniy yoki zararli tarkibni aniqlash maqsadida axborotni filtrash texnik imkoniga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, ko‘plab internet-provayderlar o‘zlarining obunachilarining elektron pochta xabarlarini filtrlash va viruslar yoki xakerlar hujumlari bilan bog‘liq ma’lum zararli trafikdan himoya qilish uchun bunday turdagi trafikni tashishdan voz kechib asosiy spam-filtrlardan foydalanishi mumkin.

Spam va bot-tarmoqlar. Spam-filtrlash - kunlik yuborilgan va olingan spam xabarlarning katta hajmini hisobga olgan holda barcha elektron pochta xizmati provayderlari uchun jiddiy muammo bo‘lib kelmoqda. Spam filtrlash vositalari turli va murakkabdir. Bunga ma’lum spam manbalarini aniqlash uchun pochta xabarlarini jo‘natuvchilarni tahlil qilish, shuningdek, standart so‘z birikmalarini va xabarlar tarkibini aniqlash uchun matnlarni tahlil qilish kiradi. Spam sifatida tasniflangan xabarlar ba’zan to‘liq bloklanadi yoki foydalanuvchining "spam-jildiga" yuboriladi.

Internet-provayderlar internet-trafik tuzilishiga yoki xabarnomaga asosan, ularning tarmog‘idagi qurilmaning bot-tarmoqning bir qismi bo‘lib qolgani yoki boshqa xavfli dastur bilan zararlanganligi haqida xabar topganda, mumkin bo‘lgan harakat variantlardan biri ushbu manzildan keluvchi zararli trafik qisman yoki to‘liq blokirovkalash, shu

paytning o‘zida obunachiga zararli dasturni o‘chirish uchun kerakli choralar haqida ma’lumot berishni o‘z ichiga oladi. Bunday xabarnomalar zararli dasturlarni "tuzoq qurilmalari" kabi texnik vositalar yordamida bot-tarmoqlarni aniqlash maqsadia monitoring o‘tkazuvchi xavfsizlik bo‘yicha javobgar kompaniyalardan tomonidan kelishi mumkin. Internet-provayderlar, shuningdek, trafikda taniqli imzolar mavjudligini kuzatish orqali buzilgan qurilmalarni faol aniqlash uchun choralar ko‘rishlari mumkin, ammo bunday harakatlarning samaradorligi uchun ma’lum darajadagi manzillik talab etiladi.

Ma’lumot tarkibini filtrlash. Quyida aytib o‘tilganidek, Internet-provayderlarning majburiyatlari to‘g‘risida gap ketganda, ba’zi davlatlarning qonunlari internet-provayderlar bolalar pornografiyasi kabi noqonuniy kontentdan foydalanishni taqiqlashini talab qiladi. Internet-provayderlar buni amalga oshirishining turli usullari mavjud, turli usullar esa tezlik, harajat, samaradorlik va aniqlik nuqtai nazaridan murosali variantlarni taklif qiladi. *DNS filtrlarini* ishlatish Internet-provayderlarga DNS-serverlarining o‘z abonentlariga yuboradigan javoblarini nazorat qilish va ma’lum bir sahifaga yoki qidiruv natijalari to‘plamiga emas, balki «google.com»kabi domenga kirishni cheklash imkonini beradi. Bunday cheklovlar atrofdagilar tomonidan osonlik bilan chetlab o‘tilishi mumkin, chunki foydalanuvchilar asl natijalarni beradigan boshqa DNS-serverlarini ishlatishlari mumkin.

IP- sarlavhalari bo‘yicha filtrlash alohida kompyuterlarni manzillariga qarab bloklash yoki hatto Internet yoki elektron pochta kabi muayyan xizmatlarni qisman blokirovka qilish uchun ishlatilishi mumkin. Bir internet-serverida bir qator veb-saytlar joylashgan bo‘lishi mumkin, shu sababli bu muammo tegishli bo‘lmagan veb-saytlarga ta’sir qilishi va ba’zan ularning soni juda oshishi mumkin. Internet-trafikning asosiy mazmunini tahlil qilish uchun *chuqurroq ma’lumot paketi tekshiruvidan* foydalanish mumkin. Bu filtrlash uchun juda moslashuvchan yondashuvga imkon beradi, lekin yuqori tezlikdagi ISP-kanallarga o‘rnatilishi kerak bo‘lgan qimmatbaho uskunalarni talab qiladi va bu barcha obunachilar ulanishini sekinlashtiradi. Amaliyotda filtrlashning ko‘plab rejimlari gibrid filtrni hosil qilgan holda ushbu usullarni birgalikda qo‘llashni nazarda tutadi. Masalan, DNS- ga asoslangan oddiy filtrlar odatda murakkab filtrlarni sinab ko‘rish uchun yuborilishi kerak bo‘lgan trafikni aniqlash maqsadida ishlatiladi. Ushbu gibrid yondashuv kerakli resurslarni sezilarli darajada kamaytirish bilan murakkab filtrlashni ta’minlaydi.

Umuman olganda, Internet-provayderlar va hosting provayderlari odamlar va tashkilotlarni Internetga ulagan holda, kiber jinoyatlarning oldini olishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Ular jinoiy tekshiruvlarda ishlatilishi mumkin bo‘lgan jurnallarni saqlab turishlari; mijozlarga buzilgan kompyuterlarni aniqlashda yordam berish; spam kabi muayyan noqonuniy kontentlarni bloklash; o‘z mijozlari uchun xavfsiz axborot-kommunikatsiya muhitini yaratishda umumiy yordam berishlari mumkin. Ko‘pgina mamlakatlarda axborotni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari Internet-provayderlarning mijozlar ma’lumotlarini himoya qilishini talab qiladi va tergov kuchlari politsiyaning bu ma’lumotlardan foydalanishiga mos proporsional belgilanadi. Internetda erkin axborot oqimiga cheklashlarni belgilovchi qonunchilikda so‘z erkinligi prinsipi ham e’tiborga olinishi lozim. Internet-provayderlari va boshqa vositachilar javobgarlikdan himoya qilish onlayn xizmatlarning tez o‘sishida asosiy omil bo‘ldi, lekin Internet-provayderga mualliflik huquqi buzilishi va boshqa qonunbuzarliklardan ogohlantirilgan taqdirda choralar choralar ko‘rish kabi ma’suliyat yuklatildi.

Kiber jinoyatlarning oldini olishda ilmiy jamoatchilik ishtiroki. Ilmiy muassasalari va hukumatlararo tashkilotlar kiber jinoyatning oldini olish va unga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi. Bunday muassasalar, xususan, axborot bazasi va bilimlarni almashish, qonunchilik va siyosatni ishlab chiqish, texnologiyalar va texnik standartlarni ishlab chiqish, huquqni muhofaza qilish idoralari bilan texnik yordam ko‘rsatish va hamkorlikni rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

Axborot bazasini rivojlantirish va bilimlarni almashish: Davlat muassasalari va xususiy korxonalar tomonidan kiberxavfsizlik sohasida malakali kadrlar va xodimlarni rivojlantirishga bo‘lgan talabga javoban, ilmiy muassasalar bilim va tadqiqot natijalarini mustahkamlash va soha hamda fanlararo birikishning ta’sirini kuchaytirish uchun maxsus o‘quv dasturlari, o‘quv rejalari va kadrlarni tayyorlash markazlari yaratdilar. Kiber xavfsizlik va kiber jinoyatlar sohasida diplomlar, sertifikatlar va o‘quv mashg‘ulotlarini «xavfsiz kompyuter amaliyoti va texnik aspektlari masalalari bo‘yicha yosh mutaxassislar va bo‘lajak ekspertlar uchun ta’lim va professional tayyorlov» maqsadida taklif etadigan universitetlar soni ortib bormoqda. . Seminar va konferensiyalarni tashkil qilish orqali universitetlar shuningdek, kiber jinoyatlarga qarshi kurashish uchun

ijtimoiy tarmoqlarning amaliy ta’limi va rivojlanishini rag‘batlantiradilar. Bunday tadbirlar axborot almashish va jinoyatchilikning oldini olish va javob berish bo‘yicha tavsiyalar beradi, bu esa norasmiy hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi, ba’zida tegishli organlarga ma’lum jinoyatlar haqida axborot berish va texnik yechimlarni ishlab chiqish mexanizmlarini taklif etadi.

Qonunchilik va siyosatni ishlab chiqish: Universitet mutaxassislari loyihalarni ishlab chiqish va qonunchilik, siyosatga o‘zgartirishlar kiritishda katta hissa qo‘shmoqdalar. Milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda olimlar keng ko‘lamli masalalar, shu jumladan kriminallashtirish, maxfiylik va shaxsiy hayot huquqi, konstitusiyaviy hamda huquqiy himoya qilish masalalari bo‘yicha qonun loyihalarini tayyorlashda maslahat berishadi va ishtirok etishadi. Bunday maslahat turli mexanizmlar orqali, shu jumladan konsultativ va maxsus ishchi guruhlar, institutlar va individual mutaxassislar darajasidagi aloqalarni va texnik yordam dasturlari orqali ta’minlanadi. Ilmiy muassasalardan birining respondentlaridan biri, masalan, maxsus kiber muhit masalalari bilan shug‘ullanuvchi tadqiqot markazlari ko‘pincha " kiber jinoyatlarga oid muammolar (huquqiy, kriminalistik, texnik ekspertiza) bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator tor doiralarda tadqiqotchilarning faoliyati" uchun koordinator bo‘lib xizmat qilishi aytgan .

Texnologiyalar va texnik standartlar: Universitetlar kompyuter texnologiyalari sohasida ilmiy ishlarni mahalliy yoki xorijiy homiylarning moliyaviy ko‘magida xususiy sekto va (yoki) davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda, yoki universitet xavfsizligini ta’minlash doirasida olib boradilar. Bundan tashqari, universitetlar kompyuter kriminalistikasi, dalillar tahlili va tashkilot ma’lumotlari tahlili kabi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘z hissalarini qo‘shishlari mumkin. Universitetlar va alohida mutaxassislar darajasida olib borilgan tadqiqotlar bilan bir qatorda, universitetlar ham standartlar o‘rnatish uchun mas’ul bo‘lgan professional tashkilotlar va tashkilotlarda, hamda texnik ishchi guruhlarda ishtirok etishda hamkorlikning muhim hamkorlar va hamkorlikning tashkilotchilari hisoblanadi.

Huquqni muhofaza qilish idoralari bilan hamkorlik: Huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlari universitetlar bilan hamkorlik qilish, universitetlarda kiber jinoyatlarda va kiberxavfsizlik sohasidagi to‘plangan tajribani inobatga olgan holda, hamkorlik qilishdan manfaatdor bo‘lishi mumkin. Oliy o‘quv yurtlari vakillarining respondentlari huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda

bilimlar bazasini, texnik standartlarni va texnik yordamni ishlab chiqishda hamkorlik qiladilar, biroq ko‘plab ilmiy jamoatchilik vakillari ham huquqni muhofaza qilish idoralari bilan bevosita aloqada bo‘lmaganligini qayd etdilar. Olimlar bunday ta’lim dasturlari va axborot almashinuvini kengaytirish uchun resurslarning mavjudligiga doir muammolar ularni bezovtalikka solishini ta’kidlashadi. Masalan, respondentlardan biri: “Hamkorlik uchun umumiy rasmiy asoslar yo‘q - davlat muassasalari universitetlar bilan hamkorlik qilish uchun standart yoki byudjetga ega emas. Shuning uchun barcha mavjud aloqalar va axborot almashinuvi norasmiydir” deb aytib o‘tgan. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yordam berish uchun “mablag‘ ajratish, xodimlar soni va tor doira mutaxassislarining mavjudligi” ishlashni yaxshilash uchun zarur bo‘lgan omillar sifatida qaraladi, bu ayniqsa "sud ekspertizasi va kriminalistik analiz vositalari, kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish masalalari bo‘yicha moliyalashtirishni oshirish"ga tegishlidir. “Qo‘shimcha resurslar, tartibni saqlash organlari tomonidan hamkorlikka tayyorlikni ko‘rsatish va ilmiy muassasalardagi izlanishlar” ga bo‘lgan talabga qaramay, davlat tashkilotlari va tartibni saqlash organlari bilan hamkorlikni kengaytirishga imkoniyat kattadir.

Kiber jinoyatchilar va kiber-terrorchilar doimiy ravishda yangi amaliyotlarni, dasturiy yechimlarni va texnologik yangiliklarni qabul qilmoqda. Bularning barchasi moliyaviy tizimda yangi shifrlash usullari, transaksiyalar va boshqalar kirib kelishi bilan bog‘liq moliyaviy inqilobning fonida yuzaga keladi. Bunday sharoitda kiberxavfsizlik strategiyasi va ularning tegishli standartlari, protseduralari va dasturiy ta’minoti, shuningdek stressni tahlil qilish va kadrlarni o‘qitish tizimlari davriy tekshirishni va yangilanishni talab qiladi. Kiber xavfsizlik sohasidagi dasturiy ta’minot, apparat, tashkiliy, boshqaruv va kadrlar yechimlari doimiy o‘zgarishi bilan xavflarni ko‘paytirishi, tahdidlarni kuchaytirishi va kiber muhitda tez o‘zgarishga moslashish mumkin. Iqtisodiyotning boshqa moliya sektorlarida, ayniqsa energetika va telekommunikatsiya tarmoqlarida mavjud muammolar, moliyaviy sektorda kiberxavfsizlik holatiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun moliya institutlarining menejerlari va aksiyadorlari, davlat organlarining yuqori mansabdor shaxslari kiber xavfsizlik masalalarini nafaqat rivojlanish, balki jamiyat, biznes va davlatning omon qolishida muhim masalalar sifatida ko‘rib chiqishlari kerak. Biznes, milliy xavfsizlik, davlat xizmati sohalaridagi har qanday boshqaruv jarayonlarida kiber xavfsizlik masalalari o‘z o‘rnini topishi lozim.

Jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha eng so‘nggi texnologiyalardan foydalanish.

Ayni paytda, Buyuk Britaniyadagi jinoyat bo‘yicha ma’lumot omborlarining kamida 70% ni video va foto-fayllar tashkil etadi. 100 mingdan ziyod aholiga ega Buyuk Britaniya shaharlari va butun mamlakat transport kommunikatsiyalari 100 foizli video kuzatuvga o‘tishi bilan (2018 yildan kechikmay) Buyuk Britaniyada aynan video fayllar jinoyatchilikning oldini olish va tergov qilishda asosiy ma’lumot elementi va materialiga aylanadi. Ayni paytda, Buyuk Britaniyadagi adliya va huquqni muhofaza qilish tizimi oldida nafaqat ushbu chaqiriqqa texnik jihatdan javob berish, balki matn va audio ma’lumot bilan bir qatorda video ma’lumotdan to‘laqonli foydalanishning imkonini beruvchi qurilmalar bilan ta’minlanish vazifasi turmoqda. Britaniya politsiyasi nafaqat dasturiy ta’minotni, balki jismoniy texnologiya kabi katta ma’lumot va texnologiyadan foydalanadi. Ba’zi bir mamlakatlardan farqli o‘laroq, Britaniya jinoyati politsiyadan jihozlanish bo‘yicha quyi turadi. Bu huquqni qo‘llash amaliyotida muayyan afzalliklarni beradi.

Katta ma’lumotlarni tahlil qilish. Elektron qurilmalar yangi ma’lumotlarni aql bovar qilmas tezlikda yaratadilar. Ma’lumotlarning katta qismi jinoyatchilikning oldini olish uchun ishlatilishi mumkin. Agar jamoat avvalo shaxsiy va korporativ ma’lumotlarga kirishga qiziqish ko‘rsatgan bo‘lsa, kelgusi yillarda huquqni muhofaza qilish organlarining video ma’lumotlarini uzatish, to‘lov tizimining protokollari va, albatta, “Internet buyumlar” protokollariga kirishini tartibga solish zarur. Bugungi kunda smartfonlardan olingan geolokatsiya ma’lumotlari bizga juda ko‘p jiddiy jinoyatlarni aniqlash va oldini olish imkonini beradi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda axborot texnologiyasidan foydalanishning keng tarqalganligi va favqulodda vaziyatlar tufayli, quyidagilarni amalga oshirishning imkoni paydo bo‘ldi:

– jinoyatlarning oldini olish uchun videoma’lumotning avtomatik tahlilini amalga oshirish;

– jinoyatlar tergovini 10-30 marotaba jadallashtirish;

– qarorlar qabul qilishni tezlashtirish uchun bashoratni avtomatlashtirish, assotsiativ aloqalari qidiruvi, ma’lumotlarni guruhlash texnologiyasidan foydalanish;

– favqulodda vaziyatlar uchun javob qoidalarini qurish jarayonini avtomatlashtirish;

– voqealar rivojini hamda kuch va vositalarning joylashuvini hozirgi vaqtda namoyon etish.

Sun'iy intellekt. AQShning bir qator shtatlarida politsiya Visual Mining texnologiyasi (vizual tahlil) bilan birgalikda real vaqt rejimida jinoyatchilik bilan bog'liq axborotni belgilash uchun Text Mining texnologiyasining (intellektual matn tahlili) klasterlash va tasniflash usullari va algoritmlarini qo'llaydi , bu avtomatik rejimda jinoyatlarning oldini olish va tekshirish bo'yicha analitik ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichda bajarishga imkon beradi. Ushbu imkoniyat real vaqtda jinoiy tahlil qilishning RICAS (Real-time Intelligence Crime Analytics System) aqlli tizimida amalga oshiriladi, u geografik makon, vaqt, yuzlar va hodisalarni bir vizual ekran maydonida bog'lash imkonini beradi.

RICAS - jinoiy ma'lumotlarni tahlil qilishning aqlli tizimi bo'lib, yagona makonda asosiy va eng samarali real vaqtdagi kriminal tahlil va analitik qidiruvning metod va metodiklarini birlashtirgan, bu issiq izlar va avval ochilmagan jinoyatlar bo'yicha jinoyatni fosh qilishning samaradorligi va natijaviyligini oshiradi va kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini oladi.

Global navigatsiya tizimi - makon va zamon ma'lumotini belgilashni tartiblash, qonunni muhofa qilish organlari tomonidan olinishini ta'minlovchi metodlar, dasturiy va texnik vositalar majmuidir. Bunady tizimni yaratishdan maqsad tergovni olib boorish va jinoyatning oldini olish jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining information-analitik ta'minoti darajasini ko'tarishdir.

Global navigatsiya tizimi - bu makon-zamon ma'lumotni qayta ishlash va uzatish uchun mo'ljallangan daturiy-apparat kompleksi, qabul qilish vositalari to'plami hisoblanadi. Makon-zamon ma'lumotlarni olish uchun vositalar majmuasi quyidagi tizimostilarni o'z ichiga oladi: GLONASS, statsionar aloqa tizimosti vositasi, mobil aloqa tizimosti vositasi, radio chastotani identifikatsiya qilish tizimosti vositasi, videoyozuvlar tizimosti vositasi, murojaat qilish va shaxsiylashtirish tizimosti vositasi.

Neyron tarmoqlari bazasi asosida jinoyatchilarning yuzlarini tanish. 2014 yilda AQSH Federal Tergov Byurosi (FTB) ***tanib olish tizimini yangi avlodi (NGI)*** muvaffaqiyatli ishga tushirilganini e'lon qildi**.** Uning maqsadi fuqarolarning identifikatsiyalash bo'limini

mustahkamlashdir. NGI ning asosiy xususiyati - biometrik ma’lumotlarni avtomatik ravishda qabul qilish va qayta ishlash. Tizim butun mamlakat bo‘ylab CCTV (yopiq elektron televizion tizim) kameralaridan olingan ma’lumot hisobiga ishlaydi. U insonning noyob xususiyatlarini aniqlaydi va ularni ma’lumotlar bazasida saqlaydi. Keyin, jinoyatni tergov qilish paytida, u rasmlarni tez tahlil qilish va buzg‘unchini aniqlashi mumkin bo‘ladi. Biror kishini aniqlash uchun, masalan, yuzidagi xarakterli chandiqni yoki uning tanasidagi tatuirovkani aniqlash kifoya.

Yuzni tanib olishdan tashqari, NGI o‘z shaxsni qo‘z qorachig‘iga qarab aniqlashga qodir. So‘nggi paytlar Amerika qamoqxonalaridagi mahbuslarning ko‘z qorachig‘i suratlari faol ravishda to‘planadi. Nazariy jihatdan, ular jinoyat sodir etgan joyda tajovuzkorlarni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin.

Jinoiy xatti-harakatni bashorat qilishning yangi texnologiyalari. Shanxay transport universiteti olimlari jinoyatchilar va qonunga bo‘ysunuvchi fuqarolarning yuzlarini tekshirish uchun turli xil mashina ko‘rish algoritmlarini qo‘lladilar va keyin ular mashina farqni sezish yoki sezmasligini tekshirishdi.

Insondan farqli o‘laroq, tasvirni tasniflash uchun kompyuterlashtirilgan algoritm subyektivlik yuki bilan yuklangan emas, o‘tgan tajriba, irqiy, diniy yoki siyosiy imtiyozlar, jinsi, yoshi va boshqalar bilan bog‘liq his-tuyg‘ular va noaniqliklarga ega emas, u charchamaydi va uyqu yoki oziq-ovqat yetishmovchiligi unga ta’sir etmaydi, deb yozadi Xitoy olimlari. Ular o‘zlarining yuz suratlari asosida jinoiy moyilliklarni bashorat qilishning avtomtlashgan tizimini taklif etmoqda.

Cloud Walk kompaniyasi (XXR), yuzni tanib olish avtomatlashtirilgan, shuningdek potensial jinoyatchilarning xavf darajasini kuzatish uchun katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va baholashni tizimlarini o‘rgatishni amalga oshiradi. Qurol-yaroq do‘konlariga tashrif buyuruvchilar yoki turli transport markazlariga tez-tez kelib turadiganlar tizim tomonidan belgilanishi ehtimoli yuqoridir. Hatto uy jihozlari do‘koni ham "shubha" ostida qolishi mumkin, chunki bu joylar hukumat tomonidan "yuqori xavfli" zonalar deb hisoblanadi.

"Albatta, agar kimdir oshxona pichog‘i sotib olsa, bu yerda hech qanday jinoyat yo‘q. Lekin agar bu kishi qo‘shimchasiga qop va bolta ham xarid qilsa, keyin u tizim uchun shubhali bo‘ladi" – deydi Cloud Walk kompaniyasi vakili.

Mutaxassislarning fikriga koʻra, bunday tadqiqotlar keyingi oʻrganishlarni talab etadi va agar muvaffaqiyatli boʻlsa, bunday tadqiqot jinoyatni aniqlash va oldini olish uchun yangi vositani taqdim etishi mumkin.

Asosiy xulosalar

Tor maʼnodagi kiber jinoyat (kompyuter jinoyat) – bu kompyuter tizimlari va ular qayta ishlovchi maʼlumotlar xavfsizligiga qarshi qaratilgan elektron operatsiyalar shaklidagi har qanday noqonuniy xatti-harakatlardir.

Keng maʼnodagi kiber jinoyat (kompyuterlarni qoʻllash bilan bogʻliq jinoyat) - bu kompyuter tizimi yoki tarmoq yordamida yoki ular bilan birgalikda amalga oshiriluvchi har qanday noqonuniy harakat, jumladan, kompyuter tizimi yoki tarmoq yordamida maʼlumotning noqonuniy qoʻlga olinishi, taklif qilinishi yoki tarqatilishidir.

Zamonaviy kiber jinoyatchilikning asosi - global axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining transmilliy miqyosda yaqinlashuvi jinoyatlarni sodir etish uchun ishlatilishi mumkin degan fikrdir.

Kompyuter maʼlumotlari yoki tizimi maxfiyligi, yaxlitligi, ochiqligiga qarshi qaratilgan, shaxsiy yoki moddiy foyda olish, kompyuter maʼlumotlariga doir shaxsiy yoki moddiy zarar yetkazish maqsadida kompyuterdan foydalanishni nazarda tutuvchi xatti-harakatlar kiber jinoyat hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya tizimlarini va Internetdan keng foydalanish jinoyatchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi va jinoyat oʻsishini tezlashtirdi.

Shaxsiy qurilmalardan foydalanishda xavf toʻplanadi. Asosiy xatar bu muammoni tushunish madaniyatining yoʻqligidadir.

Kiber jinoyatlarning oldini olishning eng yaxshi amaliyotlari orasida qonunlarni qabul qilish, samarali rahbarlik, jinoiy adliya va huquqni muhofaza qilish organlari salohiyatini rivojlantirish, xabardorlikni oshirish, hukumatlar, jamoalar, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar darajasida oʻzaro mustahkam bilimlar bazasi va hamkorlikni oʻrnatish kiradi.

Internet va hosting provayderlari kiber jinoyatlarni oldini olishda muhim rol oʻynashi mumkin. Ular jinoiy faoliyatni tekshirishda talab qilinadigan aloqa jurnallarini saqlab turadi; hujum qilingan kompyuterlarni aniqlashda abonentlarga yordam beradi; spam kabi muayyan noqonuniy kontentlarni bloklaydi; va umuman, mijozlari uchun xavfsiz aloqa muhitini taʼminlaydi.

Ilimy tashkilotlar bilim bazasini rivojlantirish va ulashish, adliya bazasi va siyosatni ishlab chiqish, texnologiyalarni yaratish va texnik standartlarni tayyorlash, texnik yordam ko‘rsatish va qonunni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish orqali kiber jinoyatning oldini olishda muhim hamkor hisoblanadi.

Jinoyatning oldini olishda eng so‘nggi texnologiyalar: katta ma’lumotlar tahlili, aqlli tizim, global navigatsiya tizimi, neyron tarmog‘i.

Nazorat uchun savollar

1. *Kiber jinoyatlarning asosini nima tashkil etadi?*
2. *Global tarmoqqa ulanish kiber jinoyatchilikka qanday ta’sir qiladi?*
3. *Kiber jinoyatlarning o‘sishining asosiy sabablari.*
4. *Kompyuter ma’lumotlarining yoki tizimlarining maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligiga qarshi jinoiy harakatlar.*
5. *Kompyuterni shaxsiy yoki moddiy foyda ko‘rish yoki shaxsiy yoki moddiy zarar yetkazish uchun ishlatish bilan bog‘liq voqealarni keltiring.*
6. *Kompyuter ma’lumotlarining mazmuni bilan bog‘liq amallarni bajaring.*
7. *Kiber jinoyatni kriminallashtirish nimani anglatadi?*
8. *"Jinoyatchilikni ogohlantirish" atamasi nimani o‘z ichiga oladi va bu nimaga asoslanadi?*
9. *Internet-provayderlar va xosting tomonidan kiber jinoyatlar bo‘yicha ogohlantirish berish ketma-ketligini tushuntiring.*
10. *Ilmiy jamoatchilikning kiber jinoyatlarning oldini olishda ishtirokini tushuntiring.*

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги Фармони
2. Агибалов В. Ю. Виртуальные следы в криминалистике и уголовном процессе / В. Ю. Агибалов. - М.: Юрлитинформ, 2012.- 152 с.
3. Аграновский А.В., Балакин А.В., Грибунин В.Г., Сапожников С.А., Стеганография, цифровые водяные знаки и стеганоанализ, Монография, 2009 г.
4. Андреев Б.В. Расследование преступлений в сфере компьютерной информации. М.: Юр- литинформ, 2001. 250 с.
5. Бегларян М.Е. Судебная компьютерно-техническая экспертиза: научно-практическое пособие -М.: Юнити-Дана, 2014. 71 с.
6. Белкин А.Р. Криминалистические классификации. -М., 2000.
7. Быстряков Е.Н., Иванов А.Н., Климов В.А. Расследование компьютерных преступлений. Учебное пособие / Саратов: СГАП, 2000. - 112 с.
8. Волеводз А.Г. Следы преступлений, совершенных в компьютерных сетях // Российский следователь. 2002. № 1.С. 4–12.
9. Всестороннее исследование проблемы киберпреступности. Доклад управления организации объединенных наций по наркотикам и преступности. Организация Объединенных Наций, февраль 2013 г.
10. Гаврилов М.В., Иванов А.Н. Осмотр места происшествия при расследовании преступлений в сфере компьютерной информации. – Саратов, СГАП, – 2006, 2008 г. 136 с.
11. Гатин Р.Б. Расследование преступлений связанных с внедрением новейших технологий / Науки и жизнь. 2001 - 45 с.
12. Конахович Г.Ф., Пузыренко А.Ю. Компьютерная стеганография. Теория и практика. - К.: МК-Пресс, 2006. - 288 с.
13. Криминалистика. Учебник / под ред. Ищенко Е.П., Филиппов А.Г. – М.: изд-во «Проспект», 2007.
14. Криминалистическая видеозапись: Учебное пособие (курс лекций) / под ред. Трубицина Р.Ю. – М.: изд-во «Щит и меч», 2004.

15. Криминалистика: учебник для вузов / Т. В. Аверьянова, Р.С. Белкин, Ю.Г. Корухов, Е.Р. Россинская. - 4-е изд., перераб. и доп. - М.: Норма: Инфра-М, 2014. - 928 с.

16. Криминалистика: информационные технологии доказывания: учебник под ред. В.Я Колдина. М.: Зерцало, 2007. 752 с.

17. Кэрриэ Б. Криминалистический анализ файловых систем. СПб.: Питер, 2006. 480 с.

18. Мещеряков В.А. Преступления в сфере компьютерной информации: правовой и криминалистический аспект. Воронеж: ВГУ, 2001. 255 с.

19. Мещеряков В.А. Преступления в сфере компьютерной информации: основы теории и практики расследования. Воронеж: ВГУ, 2002. 408 с.

20. Нехорошев А.Б. Компьютерные преступления: квалификация, расследование, экспертиза: в 2 ч. / А.Б. Нехорошев; под ред. В. Н. Черкасова. Саратов: СЮИ МВД России, 2004. Ч. 2. Расследование и экспертиза. 372 с.

21. Нехорошев А.Б., Шухнин М.Н., Яковлев А.Н., Юрин И.Ю. Практические основы компьютерно-технической экспертизы (учебно-методическое пособие). Саратов: Издательство «Научная книга», 2007. – 266 с.

22. Овчинский В.С. Криминология цифрового мира: учебник для магистратуры. - М. : Норма : ИНФРА-М, 2018. - 352 с.

23. Протасевич А.А. Борьба с киберпреступностью как актуальная задача современной науки / А.А.Протасевич, Л.П.Зверянская // Криминологический журнал Байкальского государственного университета экономики и права. 2011. № 3. С. 28–33.

24. Россинская Е. Р. Судебная компьютерно-техническая экспертиза / Е. Р. Россинская, А. И. Усов. -М.: Право и закон, 2001. -416 с.

25. Савельева М.В., Смушкин А.Б. Криминалистика. Учебник. М,: Издательство Издательский дом «Дашков и К». - 2009 г. – 608.

26. Семикаленова А. И. Мобильные телефоны сотовой связи - новые объекты судебной компьютерно-технической экспертизы / А.И. Семикаленова, К.А. Сергеева // Законы России, опыт, анализ, практика. 2011. № 12. С. 89–94.

27. Федотов Н.Н. Форензика. Компьютерная криминалистика. М.: Юридический Мир, 2007. - 432 с.

28. Чернышов В.Н., Сысоев Э.В., Селезнев А.В., Терехов А.В. Технико-криминалистическое обеспечение следствия: Учебное пособие. Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2005.

29. Caloyannides M.A. Privacy Protection and Computer Forensics (Second Education). –«Artech House Publishers», 2004.

30. C.Altheide & H. Carvey. Digital Forensics with Open Source Tools, Syngress, 2011. ISBN: 9781597495868. (Required textbook).

31. Carvey H. Windows Forensics and Incident Recovery. O'Reilly, 2004.

32. Computer Forensics: Principles And Practices, 1st Edition By Linda Volonino, Reynaldo Anzaldua, Jana Godwin. 2012.

33. Gottschalk L, Liu J, Dathan B, Fitzgerald S, Stein M. Computer forensics programs in higher education: a preliminary study, SIGCSE Technical Symposium on Computer Science Education, 2005. 203–231.

34. Kent K., Chevalier S., Grance T., Dang H. Guide to Integrating Forensic Techniques into Incident Response – Recommendations of the National Institute of Standards and Technology (NIST), Publ. 800_86. 2006.

35. Keith John Jones, Richard Bejtlich, Curtis W. Rose. Real Digital Forensics. Mit DVD: Computer Security and Incident Response. Addison Wesley Professional, 2006 - Computers - 650 pages.

36. Panagiotis Kanellis, Evangelos Kiountouzis, Nicholas Kolokotronis. Digital Crime and Forensic Science in Cyberspace. 2013.

37. Spivey M.D. Practical Hacking Techniques and Countermeasures. – "Auerbach", 2008.

ILOVALAR

Ilova 1. Raqamli kriminalistika apparat vositalarining namunalari

iStorage diskAshur –
Parol bilan himoyalangan qattiq disk

Tugmali PIN-kodga ega himoyalangan flesh xotiralar, bu qurilma ma’lumotlarni ruxsatsiz kirishdan saqlashning eng ishonchli usuli hisoblanadi. Hattoki apparat shifrlovchisi bilan birga diskni o‘girlatilib qo‘yilishi yoki yo‘qotilishi holatlarida ham, agarda disk korpusdan olib tashlangan bo‘lsa ham diskdagi barcha ma’lumotlar begona shaxslar tomonidan o‘qilmasligiga ishonch hosil qilish mumkin.

iStorage diskAshur himoyalangan fleshkasining xususiyatlari:

- PIN kodini kiritish uchun o‘rnatilgan raqamli klaviatura (6-16 belgilar);
- real vaqtda apparat ma’lumotlarini shifrlash;
- keyloggerlar va qo‘pol kuch (*brute force*) hujumlaridan himoya qilish;
- yo‘q qilingach ma’lumotlarni qayta tiklab bo‘lmaydigan;
- suvga va zarbga chidamli alyuminiy sumkasi;
- drayverlarni o‘rnatishni talab qilmaydi;
- barcha turdagi operatsion tizimlar bilan ishlash qobiliyati;
- o‘lchami va og‘irligining kichikligi.

EPOS eFlash –
Flash-xotirasi

Ma’lumotlarning kafolatli yo‘q qilinish xususiyatiga ega EPOS

eFlash barcha flesh xotira yacheykalaridagi, shu jumladan, yashirin va xizmat ko‘rsatish joylaridagi ma’lumotlarni tezda yo‘q qilish imkonini beradi. EPOS eFlash maxsus drayverlar va dasturiy ta’vinotni talab qilmaydi.

Drayver bilan ishlash uchun kompyuterni USB portiga yetkazib berish to‘plamiga kiruvchi kabel yordamida ulash kerak. Ma’lumotni yo‘q qilish uchun faqat flash korpusidagi yashirin tugmani bosish kifoya, bunda qurilma kompyuterga ulangan bo‘lishi kerak.

EPOS eFlash ning asosiy xususiyatlari:

1. Flash faoliyatini qayta tiklash bilan birga ma’lumotlarni kafolatli yo‘q qilish.
2. Maxsus drayverni o‘rnatish talab qilinmaydi.
3. Yuqori tezlikda ma’lumotlarni o‘chirish.
4. Transportirovka jarayonida favqulodda ma’lumotlarni yo‘q qilish uchun avtonom quvvatlanishning mavjudligi.
5. Hajmi va vaznining kichikligi.

LAVINA - Ma’lumotlarni yo‘q qilish qurilmasi

"LAVINA"da xotiraga kuchli elektromagnit zarbaning ta’siriga asoslangan jismoniy ma’lumotlarni yo‘q qilish usulidan foydalanadi. Natijada, tashuvchining barcha domenlari to‘yingan holatga teng ravishda magnitlangan. Bu ma’lumotlar kodlangan magnit o‘tishini yo‘qotilishiga olib keladi. Shunday qilib, tashuvchidagi dastlabki magnit tuzilishining to‘liq qirg‘ini vositaga yozilgan ma’lumotlarning to‘liq yo‘qolishiga olib keladi. “LAVINA”, bundan tashqari, magnit yozuv printsipidan foydalanuvchi boshqa qurilmalarda: ZIP, Jazz-disk, kassetalar va hokazolarda axborotni o‘chirishda qo‘llanilishi mumkin.

Asosiy xususiyatlari:

1. Kuchli elektromagnit impuls bilan tezda (0.1 sek) ma’lumotlar yo‘qolishi.

2. Ma’lumotlarning tiklash imkoniyatisiz ularni yo‘q qilish kafolati.
3. Ma’lumotlarni ham yaroql, ham nosoz tashuvchilarda yo‘q qilish imkoniyati.
4. Ma’lumotlarni ommaviy yo‘q qilish imkoniyati - 100 dona/soatda.
5. Qo‘llashni osonligi.
6. Kichik o‘lcham va kam og‘irligi.

EPOS DiskMaster Portable

EPOS DiskMaster Portable kompyuterlar xizmat ko‘rsatish markazlari, AT xizmatlari va korxonalarning xavfsizlik xizmatlari mutaxassislari uchun qattiq disklarni ishlatish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kompleks ishlarni amalga oshirishni ta’minlovchi universal vosita sifatida ishlab chiqilgan. Qurilma barcha qattiq disklar, PATA, SATA, eSATA interfeyslari bilan ishlab chiqaruvchi, model va imkoniyatlardan qat'iy nazar ishlash imkonini beradi.

Shu kabi funksionallikka ega dasturlardan farqli o‘laroq, qurilma qattiq disklarining maxfiy maydoni HPA (Host Protected Area) da, shuningdek, sirtdagi nuqsonli qattiq disklarda ma’lumotlarni nusxalash va yo‘q qilishni ta’minlaydi.

EPOS DiskMaster Portable xususiyatlari uni keng ko‘lamdagi ilovalar bilan ishlashini ta’minlaydi:

- xavfsiz saqlash va axborot tarqalishini oldini olishni ta’minlash uchun - qattiq diskdagi ma’lumotni yo‘q qilish uchun;

- AT insidentlarni (computer forensic) tekshirish - qattiq disklardan ma’lumotlar yozishni, shu jumladan HDD ning himoyalangan hududlaridan ma’lumotlarni o‘chirishni muhofaza qilish;
- ma’lumotni tiklash va HDD ni ta’mirlash uchun - zarar yetkazilgan qattiq disklardan ayovchi rejimida ko‘chirib olish, shuningdek nuqsonli tarmoqlarni yashirish uchun.

IM Solo-4 Forensic Super Kit - Ma’lumotlarni ko‘chirib olish laboratoriyasi

IM Solo-4 Forensic, nusxa olishdan avval, o‘rganilayotgan HDD ma’lumotlarini va fayl mazmunini tahlil qilish , shuningdek, telefonlardan, smartfonlardan, kompakt shaxsiy kompyuterlardan va boshqa mobil qurilmalardan ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishim ikonini beradi .

IM Solo-4 Forensic Super Kit asosiy xususiyatlari:

- *Eng yaxshi tezlik*

IM Solo-4 Forensic ma’lumotlarni nusxa ko‘chirish, ma’lumotni yo‘q qilish, maksimal tezlikda 18 GB/min gacha tezlikda tekshirishni amalga oshirish imkonini beradi.

- *Drayverlarning keng doirasi*

IM Solo-4 Forensic SAS, SATA, e SATA, USB 2.0, SCSI, USB 3.0, FireWire 400/800 qurilmalari bilan ishlashni qo‘llab-quvvatlaydi.

- *Nusxalash usullari*

- Single Copy. Bitta o‘rganilayotgan drayverni bitta qabul qiluvchiga nusxalash va bir vaqtning o‘zida uchta shunday vazifani bajarishi mumkin.
- Multy Copy. Bitta o‘rganilayotgan drayverni ikkita yoki uchta qabul qiluvchiga nusxalash.

- Parallel Copy. Ikkita o‘rganiluvchi drayverni ikki qabul qiluvchiga masalan, RAID katalogidagi ma’lumotlarni olishda nusxalash.
- Drive Spanning. Ko‘p miqdordagi kichikroq qabul qiluvchilarga katta hajmli manbalarni nusxalash.

RoadMASSter-3 X2 - Kriminalistik laboratoriya

ROADMASST-3X2 laboratoriyasi elektromagnit nurlanishdan himoyalanish bilan mustahkamlangan holda maxsus portativ shaxsiy kompyuter, apparat, dasturiy ta’minot asosida ishlaydigan ko‘p funksiyali tizimdir.

RoadMASSter-3 X2 Forensic ning asosiy xususiyatlari va funksiyalari:

- *Ma’lumotlarni nusxalash.* RoadMASSter-3 X2 Forensic deyarli barcha turdagi HDD (SAS, SATA, PATA, SCSI, USB, FireWire), SSD, flesh drayverlar, CD/DVD disklari, RAID massivlari (RAID 0, 1, JBOD), shuningdek, shaxsiy kompyuter va noutbukdan korpusni ochmay ma’lumot olishi mumkin.
- *Ma’lumotlarni tahlil qilish.* Laboratoriya EnCase, FTK, X-Ways Forensics kabi ma’lumotlarni ko‘rish va tahlil qilish uchun maxsus dasturlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Bir tashuvchidan ma’lumotni nusxalashda tadqiqotchi bir vaqtning o‘zida boshqa vositalardagi ma’lumotlar va nusxalarni RoadMASSC-3-ga o‘rnatilgan maxsus dasturiy ta’minotdan
foydalangan holda tahlil qilishi mumkin.
- *Ma’lumotlarni yo‘q qilish (o‘chirish).* HDD dan ma’lumotlarni o‘chirish DoD 5220-22M spetsifikatsiyasiga yoki tezkor yagona o‘tkazish rejimiga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

UltraKit III –
Apparat kompleksi

Digital Intelligence kompaniyasi (AQSh) tomonidan ishlab chiqarilgan Digital UltraKit III to‘plami UltraBlock ovoz yozish apparat blokatori to‘liq to‘plami, qo‘shimcha adapter va kirishlardan iborat kriminalistik ahamiyatga ega bo‘lgan axborotlarni tashuvchi - qattiq disklar, turli tashuvchilar, yoki boshqa qurilmalar kabi kompleksni tashkil etadi. Buning uchun to‘plamdan mos kirish interfeysiga ega blokator tanlanadi, so‘ng yozishdan apparat himoya tizimi yordamida siz dastlabki tashuvchining obrazini o‘z kompyuteringizda yaratishingiz mumkin.

Tableau TD3 Forensic Imager -
Yozib olishning blokiratori

TableauTD3 Forensic Imager tarmoqni qo‘llab-quvvatlovchi qurilmadir. Tarmoq orqali ma’lumotlarni yig‘ish, masofadan tartiblash va tarmoqda yozishni bloklash kabi keng tarmoq sozlamalari yordamida xavfsiz veb-interfeysdan foydalanib, qurilmaga masofadan kirishni ta’minlay olish mumkin. Moslashuvchan mahsulot arxitekturasi keng qamrovli foydalanish sharoitlariga ega va qo‘llab-quvvatlovchi sezgir foydalanuvchi interfeysi mavjud, ingliz tili, portugal, ispan, fransuz, nemis va rus tillarini qo‘llab-quvvatlovchi tushunarli foydalanuvchi

interfeysiga ega minimal o‘rganish bilan ishlash imkonini beradi. Rangli sensor ekran ma’lumotlarni kiritishni, jurnallarni ko‘rishni, tarmoqlarga ulanishni soddalashtiradi va sozlash/ishlashni yakunlaydi. Bundan ham osonroq ishlaydigan tashqi USB klaviaturasi mavjud.

Qurilma quyidagi standart operatsiyalarni bajaradi:

- diskdan diskka ma’lumotlarni takrorlash (klonlash);
- DD, .E01, .EX01 yoki .DMG formatlaridan foydalanib disk tasvirini yaratish;
- formatlash;
- ma’lumotlarni o‘chirish;
- dekodlash (bir vaqtning o‘zidagi MD5 va SHA-1);
- HPA / DCO disklarining maxfiy maydonlarini aniqlash va yo‘q qilish;
- disk diagnostikasi.

EPOS BadDrive Adapter - Yozib olishning blokiratori

EPOS BadDrive Adapter - kompyuter va HDD o‘rtasidagi bo‘shliqda joylashgan va interfeys orqali uzatiladigan barcha buyruqlarni qo‘lga oluvchi ixcham asbob. Qattiq diskda xatolik bo‘lmasa, EPOS BadDrive Adapter an’anaviy yozish blokiratori rejimida ishlaydi.

EPOS BadDrive Adapter xususiyatlari uni keng ko‘lamda qo‘llanilishini ta’minlaydi. U quyidagilar uchun ishlatilishi mumkin:

- *AT insidentlarini tekshirishda*. Texnik holati noma’lum bo‘lgan qattiq disklarda xavfsiz (yozishdan himoyalangan) ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish imkonini beradi.
- *ma’lumotni tiklashda*. Tizimdagi nuqsonlarni yashirish zararlangan HDDlarning oraliq nusxalarini yaratish zaruratini bartaraf etadi.
- *kompyuter texnikasiga xizmat ko‘rsatganda* . Qurilma ma’lumotlarni "bo‘lingan" qattiq diskga tezda kirish va nusxalash imkonini beradi.

XRY Tablet - Kriminalist-ekspertlar uchun planshet

XRY Tablet - yuqori tezlikda ma’lumotlarni qo‘lga kiritish va soddalashtirilgan foydalanuvchi interfeysiga ega ko‘chma va qulay mobil terminal. U tezkor xizmat vakillariga real vaqtda ma’lumot va analitik axborotni tahlil qilish imkonini beradi, dastlabki baholash jarayonini jadallashtirishga, tergovchilarga va operativ xizmat xodimlariga ma’lumotlarga tezkorlik bilan kirishga imkon beradi, ammo murakkab uskunalar faqat yuqori malakali kadrlar tomonidan ishlatilishi mumkin.

Planshet mobil qurilmalardan kabel va Bluetooth orqali mantiqiy va ma’lumotlarni olishni qo‘llab-quvvatlaydi. Qo‘lga olingan va tahlil qilingan ma’lumotlarni XRY Viewer maxsus namoyish etish vositasi orqali ko‘rish va o‘rganish mumkin. Samarali qidirish funksiyasi va ishlatish uchun qulay grafikalar chiqarilgan ma’lumotlarning ma’lum tanlangan qiymatlarini aks ettirish imkonini beradi. Qo‘lga kiritish jarayonida har doim qurilmadan olingan barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan kriminalistik jihatdan xavfsiz XRY fayl yaratiladi.

Cellebrite UFED TK Kompleksi

Cellebrite kompaniyasi taqdim etgan ushbu kompleks yechim yuqori chidamli kompyuterlarning turli modellariga oldindan

o‘rnatilgan, kriminalistik tahlillarga mo‘ljallangan mobil ilova. UFED TK - kerakli tashqi qurilmalar va aksessuarlar komplekti bilan jihozlangan maxsus ko‘rpusda joylashgan portativ kompleks hisoblanadi.

CellebriteUFED TK ning xususiyatlari:

- Android qurilmalaridan, shu jumladan, Samsung Galaxy S, LG, HTC, Motorola va boshqalar oilasidan grafik kalitni/parolni/PIN kodni kiritish orqali blokirobkani chetlab o‘tgan holda ma’lumotlarni olish va dekodlash.
- Android bazasidagi qurilmalardan fizik va fayl tizimi darjasida ma’lumotni qo‘lga kiritish va dekodlash.
- Blokirovka qilingan Nokia BB5 qurilmalaridan fizik ekstraksiya qilish va dekodlash - tanlangan qurilmalardan parolni chiqarish.
- Bloklangan Nokia BB5 vositalaridan fizik darajada qo‘lga kiritish va dekodlash- tanlangan qurilmalardan parolni chiqarish.
- Foydalanuvchi bloklash kodini chetlab o‘tish, ochish yoki o‘chirish orqali bloklangan qurilmalarga oson ulanish.
- Windows Phone, HTC, Samsung, Huawei va ZTE tizimidagi fayl tizimi darajasida chiqarib olish.
- Dekodlash variantlarining boy tanlovi: dastur ma’lumotlari, parollar, elektron pochta, qo‘ng‘iroqlar jurnali, SMS, kontaktlar, taqvim, multimedia fayllari, manzil ma’lumotlari va boshqalar.
- UFED Physical Analyzer orqali murakkab tahlil qobiliyati, jumladan, xronologiya, loyiha analitikasi, zararli dasturlarni aniqlash va nazorat ro‘yxatlari.
- UFED Physical Analyzer yordamida turli formatlarda qulay hisobot yaratuvchisi generator.

XRY Physical mahsuloti

XRY physical kriminalistik ekspertiza mutaxassislariga ma’lumotlarni jismoniy olish yo‘li bilan tergov chegarasini

kengaytirishga imkon beradi, bu esa odatda telefon xotirasida xash damplarni qurilma operatsion tizimidan aylanib o‘tib amalga oshiriladi. Ko‘pincha bu o‘chirilgan ma’lumotni saqlab qolish imkonini beradi.

XRY Physical ichki xotira va tashqi tashuvchidan ma’lumotlarni olish imkonini beradi. Bundan tashqari, XRY Physics xotira tarkibining nusxasini, shuningdek alohida-alohida parollangan fayllarni xash qiymatlarini yaratishni qo‘llab-quvvatlaydi. Ishlab chiqaruvchilar guruhining keng bilimlari tufayli MSAB har bir telefonning noyob xotira tizimini to‘liq tushunadi.



PC-3000 Express - Dasturiy-apparat kompleksi

PC-3000 Express dasturiy-apparat kompleks SATA (Serial ATA) va PATA (IDE) interfeyslari bilan diagnostika va ta’mirlash (faoliyatni qayta tiklash) uchun mo‘ljallangan.

PC-3000 paketiga kiritilgan barcha ixtisoslashtirilgan vositalar quyidagilarni bajarishga imkon beradi:

- texnologik rejimda HDD diagnostikasi;
- HDD xizmat ma’lumotlarini tekshirish va tiklash;
- Flash ROM HDD tarkibini o‘qish va yozish ;
- xizmatga kirish dasturini yuklab olish - LRD;
- P-varaq, G-varaq, T-varaq va hokazo yashirin xatolar jadvalini ko‘rish;
- magnit disklar yuzasida nuqsonlarni yashirish;
- konfiguratsiya va identifikatsiya parametrlarini o‘zgartirish;
- loglarni va S.M.A.R.T. parametrlarini tiklash;
- qattiq diskda o‘rnatilgan parolni ko‘rish va o‘chirish;
- Data Extractor bilan birga ishlash.

Ilova 2. Raqamli kriminalistika dasturiy vositalarining namunalari

X-Ways Forensics

X-Ways Forensics - ma’lumotlar yig‘ishdan tortib to generatsiyaga qadar kompyuter ekspertizasi va AT insidentlar bo‘yicha tergov topshiriqlarining deyarli barcha turlarini tezda hal qilishga imkon beruvchi integrallashgan kompleks hisoblanadi. Bu mutaxassislarning ish samaradorligini oshiradi, tadqiqot vaqtini sezilarli darajada pasaytiradi.

X-Ways Forensic ning asosiy xususiyatlari va imkoniyatlari:

1. Ma’lumotlarni to‘plash va qayta tiklash

- o‘rganilayotgan tashuvchini himoya qilish;
- tashuvchi tasvirlarini yaratish va tiklash;
- JBOD, RAID 0, RAID 5, RAID 6 va boshqa modifikatsiyalari darajasida apparat va dasturiy RAID massivlarida ma’lumotni qayta tiklash;
- tasvir fayllarini ochish va ichki fayl tizimining darajasida ularning tarkibini o‘zgartirish qobiliyati;
- RAM (RAM) operativ tizim va ishlaydigan jarayonlarning virtual xotiralarini ko‘rish va yaratish;
- o‘zlarining ichki tuzilmalari orqali fayllarni qayta tiklash uchun doimiy ravishda yangilangan imzolar bazasi;
- turli xil tashuvchilarda ma’lumotlarni yo‘q qilish.

2. Ma’lumotlarni ko‘rish va tahlil qilish

1. Ichki shablonlarga asoslangan mantiqiy ma’lumot strukturalarini tahlil qilish va tahrirlash.

2. Arxivlarning mazmunini (ZIP, RAR, ARJ, GZ, TAR, 7Zip, BZIP) to‘g‘ridan-to‘g‘ri oldindan ko‘rish oynasida namoyish etish.

3. Belgilangan vaqt oralig‘ida video-yozuvdan statik kadrlarni yaratish imkoniyati.

4. Boshqa hujjatlardagi rasmlarni avtomatik ravishda qidirish va chiqarish (masalan, MS Office hujjatlari, PDF, jpeg rasmlar va hokazo).

5. Siqilgan va shifrlangan fayllarni avtomat tarzda identifikatsiya qilish

(arxivlar, MS Office hujjatlari, PDF).

6. Shifrlangan va parol bilan qulflangan fayllar uchun parollarni tanlash uchun lug‘at yaratish imkoniyati.

3. Interfeys va moslik

- Qulay vazifa va tergovni boshqarish tizimi.
- Boshqa tergovchilarning barcha metadatalarini tahlil qilish uchun tegishli fayllarni saqlash va uzatish uchun maxsus konteyner fayllarini qo‘llab-quvvatlash.
- Tasvirlarni galereya sifatida ko‘rish.
- Fayllarni yaratish, o‘zgartirish, so‘nggi foydalanish tarixi bilan taqvim sifatida ko‘rish.
- HTML shaklida hisobot yaratish qobiliyati bilan barcha tranzaktsiyalarni avtomatik ro‘yxatga olish.
- Qattiq diskdagi yashirin joylarni aniqlash (HPA).
- WinFE asosida yuklash diski yoki flashdan ishga tushirish imkoniyati.



DVR Examiner – videoregistratorlardan ma’lumotlarni kriminalistik olish va qayta tiklash

DVR Examiner (DME Forensics) video va boshqa metama’lumotlarni videoregistratorlardan, kriminalistik aniqlikka ega video kuzatuv tizimlaridan ma’lumotni olish yechimidir. DVR Examiner

dasturi ekspertlarga videoregistratorga o‘rnatilgan parolni chetlab o‘tib, DVR vositasi qattiq diskidan ma’lumotni bevosita qo‘lga kiritish imkonini beradi. Mahsulot CCTV DVR qurilmalari bilan ish olib boradi va kriminalist mutaxassislar uchun foydali hisoblanadi.



Belkasoft Evidence Center

Belkasoft Evidence Center kriminalist-ekspertlarga bir necha daqiqada yashirin va yo‘q qilingan dalillarni topishda yordam beradi.Yuzlab turli xil artefaktlarni qo‘llab-quvvatlash vositasi ofis formatlari, onlayn suhbatlar, ijtimoiy tarmoqlardagi hujjatlarni, veb-pochta , ko‘plab onlayn-o‘yinlar orqali suhbat , brauzer tarixi va piring jamiyatida almashilgan fayllari aniqlash va qo‘lga kiritish, kriminalistik muhim ma’lumotni izlash va belgilash bo‘yicha keng imkoniyatlarni beradi: mavjud fayllarni o‘rgatish, ularni ichki tuzilishi bo‘yicha tiklash, xotira damplari, gibernatsiya va tortish fayllarning operativ tahlil, PCAP-fayllar ko‘rinishidagi qo‘lga kiritilgan trafikni o‘rganish va hokazo.

Belkasoft Evidence Center dasturi elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat yoki onlayn o‘yinlardagi xatoliklar - har xil fayllarni tekshirish uchun vaqt sarflaydigan harakatlarni avtomatlashtirish orqali kompyuter jinoyatlarini tekshirish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.

Belkasoft evidence Center xususiyatlari:

- O‘rganilayotgan axborot vositasini yozib olinishdan himoyalash.
- Barcha asosiy brauzerlar, elektron pochta mijozlari, ijtimoiy tarmoqlar va fayl uzatish tizimlarini o‘z ichiga olgan 230 dan ortiq artefaktlarni qo‘llab-quvvatlaydi.
- Pornografiya, yuz va matn mavjudligiga video va rasm fayllarini tahlil qiladi.
- Yashirin ma’lumotlar va keng tarqalmagan formatdagi fayllarni qidirish va tahlil qilish.

- O‘chirilgan fayllarni qayta tiklash.
- Bir vaqtning o‘zida bir nechta foydalanuvchilarning ishlashi.
- Sudga dalil sifatida taqdim etilishi mumkin bo‘lgan hisobotlarni tuzish.

Paraben Phone Recovery Stick

Paraben Phone Recovery Stick matnli xabarlar (SMS), IM xabarlari, kontaktlar, qo‘ng‘iroqlar tarixi, internet tarixi va taqvim yozuvlari kabi o‘chirilgan ma’lumotlarni saqlaydi. Telefonni tiklash uchun tayoqni ishlatish oson, oddiy ko‘rsatmalarga rioya qilish kifoya. Qurilmadan iloji boricha tezroq (xotira miqdori, mavjud ma’lumotlar va kompyuterning tezligiga qarab10 daqiqadan 2 soatgacha) ma’lumotlar chiqariladi.

Xususiyatlari:

1. O‘chirilgan ma’lumotlarni qayta tiklash - telefon va SD-kartadan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘chirilgan ma’lumotlarni saqlaydi. U faqat matnli xabarlarni, Facebook, Chrome, TextFree va boshqalar kabi ilovalardan o‘chirilgan axborotni saqlab qololmaydi.

2. Barcha foydalanuvchi ma’lumotlarini olish - foydalanuvchi ma’lumotlarini yuklaydi va ularni oson o‘qiladigan formatda ko‘rsatadi, hamma narsalarni, onlayn tarixdan Facebookdagi do‘stlariga, Skype-yozishmalarga, qo‘shilmalarini tekshiradi.

3. Xavfsizlik manbasi. Sud ekspertizasining birinchi qoidasi asl ma’lumotlarning saqlanishi hisoblanadi. Phone Recovery Stick mobil kriminalistika qurilmasiga qurilganligi sababli, foydalanuvchi o‘rganilayotgan telefon ma’lumotlari xavfsiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin. Telefonda ROOT huquqlarini olishning hojati yo‘q.

Ilova 3. Raqamli kriminalistika dasturiy va apparat vositalarini ishlab chiqaruvchilari to‘g‘risida ma’lumot

	ACE Laboratory (OOO NPP ASE, Rossiya) - HDDni ta’mirlash, shikastlangan HDD dan ma’lumotlarni uzatish, ma’lumotlarni HDD ga ko‘chirish uchun maxsus uskunalar va dasturiy ta’minot.
	Intelligent Computer Solutions, Inc. (AQSh) - qattiq disklardan yuqori tezlikda kriminalistik ma’lumotlarini yig‘ish uchun uskunalar. Kompaniya mahsulotlari AQSh va boshqa mamlakatlardagi huquqni muhofaza qilish idoralari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan.
	Decision Group (Tayvan) - Internet-resurslardan foydalanishni nazorat qilish, axborot tarqalishining oldini olish, yo‘qolgan ma’lumotlarni tahlil qilish va tiklash, kompyuter jinoyatlarini va voqealarni tergov qilish uchun keng qamrovli dasturiy ta’minot va apparat.
	Guidance Software Inc. (AQSh) -" EnCase" kompyuter insidentlarini o‘rganish bo‘yicha jahonga mashhur dasturiy ta’minotni ishlab chiqaruvchi - korxonalar, hukumat va huquqni muhofaza qilish tashkilotlari uchun dasturiy vositalar turkumi.
	Cellebrite Mobile Synchronization Ltd. (Isroil) – telefonlar, smartfonlar, planshetlar va boshqa ko‘chma qurilmalardan ma’lumotlarni chiqarish, ularni dekodlash va tahlil qilish uchun kriminalistika uskunalari sohasida yuqori samarali yechimlar.
	Tableau (AQSh) - kompyuterda insidentlarini tekshirish vositalari: nusxa ko‘chirish qurilmalari, apparat blokerlari, apparat tezlatgichlari va dasturiy ta’minot.
	eDEC Digital Forensics - (AQSh) - sohadagi so‘nggi ishlanmalardan so‘ng kompyuterlar uchun kriminalistika qurilmalari va dasturiy ta’minoti. Kompaniya Xitoyda ishlab chiqarilgan smartfonlardan ma’lumotlarni olib tashlash vositasi bilan mashhur.
	iStorage Limited (Buyuk Britaniya) - bevosita parol kiritish va saqlanadigan ma’lumotni shifrlash xotira vositalari.

	Barracuda Networks, Inc. (AQSh) - barcha o‘lchamdagi tashkilotlar uchun elektron pochta va boshqa tarmoq ilovalari xavfsizligini ta’minlash uchun keng tarmoqli qurilmalar va bulutli xizmatlar.
	**X-Ways Software Technology AG (Germaniya)** – Kriminalistik dasturiy ta’minot. Kompaniyaning mahsulotlari kompyuter insidentlarini tekshirish, ma’lumotlarni qayta tiklash va chuqur tahlil qilish, axborotni kafolatli olib tashlash uchun mo‘ljallangan.
	NRTeam (NAND Recovery Team, Rossiya) - Flash xotiralardan dasturiy va apparat ma’lumotlarini tiklash vositalari. Eng mashhur laboratoriya loyihasi Flash xotiralardan mantiqiy ma’lumotni tiklash uchun Dumppicker dasturi.
	Rapid7 (AQSh) - axborot xavfsizligi xatarlarini tahlil qilish, aniqlash va kamaytirish uchun turli funksiyalarga ega mahsulotlarni qayta ishlash hamda turli axborot xavfsizligi standartlariga muvofiqligini tekshirish.
	Secusmart GmbH (Germaniya) - mobil aloqaning apparat va dasturiy shifrlashi: qo‘ng‘iroqlar, SMS va elektron pochta. birga Germaniya xavfsizlik Federal idorasi (BSI) va mobil telefon ishlab chiqaruvchilari bilan birga mahsulotlarini ishlab chiqaradi.
	BelkaSoft (Rossiya)–tezkor xabarlarning tarixlari, Internet-brauzerlar, mijozlarning pochta qutilari, ijtimoiy tarmoqlarga tashrif izlari, video va tasviriy fayllardagi raqamli dalillarni izlash va tahlil qilishni ta’minlovchi kompyuter ekspertizasi uchun mo‘ljallangan dastur.
	Addonics (AQSh) - xavfsiz modulli ma’lumotlarni saqlash tizimlari, saqlash qurilmalari, duplikatorlar va interfeyslarni o‘zgartiruvchilarga ma’lumotni shifrlash vositalari. Kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan texnologiyalar barcha turdagi apparat va operatsion tizimlar bilan maksimal muvofiqlikni ta’minlashga mo‘ljallangan.
	Amped Software (Italiya) - raqamli fotosuratlar va videolarni kriminalistik o‘rganish uchun dasturiy ta’minot. Kompaniyaning mahsulotlari dunyodagi davlat va xususiy tashkilotlarning kriminalist - ekspertlari tomonidan qo‘llaniladi.

Ilova 4. Noqonuniy xatti-harakatlar turlari

Kompyuter ma’lumotlari va tizimlari maxfiyligi, butunliligi, ochiqligiga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar	
Kompyuter tizimiga noqonuniy kirish	Kompyuter tizimiga to‘liq yoki qisman noqonuniy yoki asossiz kirish bilan bog‘liq xatti-harakatlarni ifodalaydi. Huquqbuzar xavfsizlik devorini chetlab va bankning kompyuter tizimiga kiradigan holatlar shunga misol bo‘ladi. Bu shuningdek, foydalanuvchining belgilangan vaqtdan tashqari kompyuter tizimiga ulangan holatlariga, masalan, agar huquqbuzar serverning ma’lum bir vaqt uchun faoliyatini saqlab qolsa, bu muddat tugagandan so‘ng ularni ishlatishda davom etadigan holatlar ham bo‘lishi mumkin. Ba’zi mamlakatlarning qonunchiligi jinoyatchining himoya choralarini chetga surishi yoki qasddan harakat qilishi kerakligi ko‘zda tutilgan.
Kompyuter ma’lumotlariga noqonuniy kirish, ushlab qolish yoki sotib olish	Kompyuter ma’lumotlaridan noto‘g‘ri yoki asossiz foydalanish, shu jumladan uzatish jarayonida keng jamoatchilik uchun mo‘ljallanmagan ma’lumotlarni olish, shuningdek, kompyuter ma’lumotlarini ruxsatsiz qabul qilish bilan bog‘liq harakatlar hisoblanadi. Masalan, bu jinoyatchi kompyuterning ma’lumotlar bazasiga noqonuniy kirib kelganligi, uzatilgan ma’lumotni simsiz tarmoqda noto‘g‘ri yozib turishi yoki ma’lum bir firma uchun olib ketish maqsadida fayllardan ruxsatsiz nusxa ko‘chirish hollarni o‘z ichiga oladi.
Noqonuniy ma’lumotlar aralashuvi yoki tizim aralashuvi	Bular kompyuter tizimining ishlashiga to‘sqinlik qiladigan harakatlar, shuningdek, kompyuter ma’lumotlarini noqonuniy yoki asossiz ravishda yo‘qotish, olib tashlash, buzish, o‘zgartirish yoki bloklash bilan bog‘liq harakatlardir. Masalan, huquqbuzar kompyuter tizimiga juda ko‘p so‘rovlar yuboradigan holatlar mavjud ("xizmat ko‘rsatishni rad etish" deb ataladigan hujum), Internet-serverning ishlashi uchun zarur bo‘lgan kompyuter dasturlarini o‘chiradi yoki kompyuter ma’lumotlar bazasidagi

	yozuvlarga o‘zgarishlar kiritadi. Ayrim mamlakatlar qonunlarida ma’lumotlar bilan bog‘liq bo‘lgan amallarni bajarish normalari mavjud, boshqa mamlakatlarda qo‘shimcha qurilmalarga tegishli harakatlarga nisbatan normalar belgilanadi. Kompyuter tizimlariga noqonuniy aralashish muhim infrastruktura (masalan suv yoki elektr ta’minoti) ma’lumotlarga yoki tizimlarga zarar etkazilishiga noqonuniy aralashuvga olib kelishi mumkin.
Kompyuterlardan noqonuniy foydalanish vositalarini ishlab chiqarish, tarqatish yoki saqlash	Kompyuter jinoyatlarini yoki Internetga aloqador jinoyatlar uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan apparat yoki dasturiy ta’minotni ishlab chiqish yoki tarqatish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlar. Masalan, jinoyatchiga xizmat ko‘rsatishni inkor etishni avtomatlashtirish dasturini ishlab chiqadigan hollarni o‘z ichiga oladi. Bunday vositalardan qonuniy foydalanishga aralashishga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida (masalan, xavfsizlik bo‘yicha mutaxassislar tomonidan) ba’zi mamlakatlar qonunlari bunday vositalar faqat noqonuniy maqsadlar uchun mo‘ljallangan bo‘lishi yoki jinoyatchini jinoyatlar uchun ushbu vositalardan foydalanish niyati bilan harakat qilishi kerakligi nazarda tutilgan.
Maxfiylikni buzish va ma’lumotlarni himoya qilish choralari	Ma’lumotlarni muhofaza qilish qoidalarini buzgan holda shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish, tarqatish, olish yoki ulardan foydalanish uchun kompyuter tizimidan foydalanish bilan bog‘liq xatti-harakatlarni ifodalaydi. Misol uchun, bu jinoyatchning onlayn-savdoda ishtirok etgan va o‘z ma’lumotlarini oshkor qilmaslik kerak bo‘lgan mijozlar ma’lumotlar bazasidan oshkor qilgan holatlarini o‘z ichiga oladi.
Kompyuterli firibgarlik yoki soxtalashtirish	Kompyuter tizimiga yoki ma’lumotni noto‘g‘ri yoki adolatsiz ravishda olish, boshqa iqtisodiy manfaatlar yoki majburiyatlardan qochish, shuningdek, kompyuter tizimiga aralashish bilan bog‘liq xatti-harakatlar yoki ishonchsiz axborotni yaratishga olib keladigan ma’lumotlar uchun, kompyuter ma’lu-

	motlari. Masalan, jinoyatchining bank tomonidan pul o‘tkazmalarini o‘z hisobiga yo‘naltirishga qaratilgan dasturda o‘zgartirishlar kiritilgan holatlar mavjud yoki jinoyatchining mol-mulkni noto‘g‘ri ishlatish uchun moliyaviy muassasadan dastlabki elektron pochta manziliga o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan holatlar mavjud. Shaxsiy ma’lumotni olish yoki mablag‘larni haqorat qilish maqsadida ko‘plab bunday xabarlarni taqsimlash fishing deb ataladi. Kompyuterni firibgarligiga kelsak, ayrim mamlakatlar qonunchiligida dastlabki kompyuter ma’lumotlari qonuniy majburiyatlarni shakllantirishga qaratilgan hujjatlarga tegishli bo‘lishi kerak. Boshqa mamlakatlarda huquqbuzar harakatlar qonuniy majburiyatlarga bog‘liq ravishda ko‘rib chiqilgan yoki qo‘llanilgan o‘zgartirilgan nusxasini olish maqsadida harakat qilishlari kerak.
Shaxsiy ma’lumotlarni ishlatish bilan bog‘liq kompyuter jinoyatchiligi	Bu noqonuniy xatti-harakatni sodir etish, amalga oshirishda qatnashish yoki osonlashtirish maqsadida kompyuter ma’lumotlarida saqlanayotgan boshqa shaxsni identifikatsiya qilish vositalarini noqonuniy o‘tkazish, saqlash yoki ishlatish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlardir. Masalan, bunga jinoyatchining noqonuniy ravishda haydovchilik guvohnomasini kompyuter tizimidan olganligi yoki jinoyatlarda uning haqiqiy identifikatsiyasini yashirish uchun foydalanishi yoki bu ma’lumotni sotayotgani ham kiradi. Ba’zi mamlakatlar qonunlarida ushbu qoidalardan foydalanish shaxsiyligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan chegaralanadi.
Mualliflik huquqi yoki tovar belgilari bilan bog‘liq jinoyatlar	Bu kompyuterda saqlanadigan materiallarni nusxalash yoki mualliflik huquqi va tovar belgilarini buzgan holda kompyuter ma’lumotlarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq amallar hisoblanadi. Masalan, bu huquqbuzar muallifning mualliflik huquqi egasi tomonidan beriladigan litsenziya bo‘lmasa, faylni taqsimlash tizimida mualliflik huquqi bilan himoyalangan qo‘shiqni tarqatadigan hollarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Spam tarqatish yoki boshqarish	Bular kompyuter tizimidan ruxsatsiz yoki nomaqbul xabarlarni juda ko‘p miqdordagi qabul qiluvchilarga yuborish uchun ishlatiladigan harakatlardir. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mijozlari bilan an’anaviy muloqot qilish jarayoniga aralashmaslik uchun ba’zi mamlakatlar qonunlarida spam sifatida xabarni tasniflash uchun jinoyatchi sarlavhada noto‘g‘ri ma’lumotlar ko‘rsatishi kerak.
Shaxsiy zarar yetkazish uchun kompyuterdan foydalanish bilan bog‘liq xatti-harakatlar	Bu shaxslar uchun ta’qib, ta’qib qilish, qo‘rqitish yoki tahdid qilish maqsadida kompyuter tizimidan foydalanish bilan bog‘liq harakatlardir. Masalan, bu jinoyatchining zararli, tahdid qiluvchi, tajovuzkor yoki tajovuzkor xabarlar yoki tasvirlar (shuningdek, " trolling " deb nomlangan) yoki kuzatuv, bezovta qilish yoki boshqa tekshiruvlar o‘tkazish yoki insonning hissiy va jismoniy holatiga aralashish uchun kompyuter tizimidan foydalanadigan holatlar ham kiradi. Faqat buzilish holatlarida ushbu toifaga kiritilmaydi.
Irqchilik yoki ksenofobiya (chet elliklarga dushmanlik munosabati) bilan bog‘liq kompyuter jinoyatlari	Bu irqchi yoki ksenofobik tarkib yoki tahdidlar yoki irqchilik yoki ksenofobik sabablarga ko‘ra kishilarga nisbatan tahqirlash yoki tarqatish uchun kompyuter tizimidan foydalanishga qaratilgan harakatlardir. Irqiy yoki ksenofobiy materiallar irqi, rangi, kelib chiqishiga shuningdek, diniga, agar ular ushbu omillardan birortasi uchun bahona sifatida ishlatilsa asoslangan har qanday shaxs yoki guruhga nisbatan nafrat, kamsitish yoki zo‘ravonlikni qo‘llab-quvvatlovchi, targ‘ib qiluvchi yoki qo‘zg‘atadigan har qanday yozma materiallar, tasvirlar yoki g‘oyalar yoki nazariyalarni nazarda tutadi.
Bolalarni jalb qilish yoki gruming bilan aldash maqsadida kompyuterdan foydalanish bilan	Bu jinsiy aloqa qilishga rozilik berish yoshiga yetmagan bolani jinsiy jinoyat sodir etish uchun jalb qilish maqsadida kompyuter tizimidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlardir. Masalan, bu huquqbuzar bolalar bilan muloqot qilish uchun on-layn suhbatga kiradigan, o‘zini bola deb

bog‘liq xatti-harakatlar	ko‘rsatadigan va bolani suiiste'mol qilish maqsadida uchrashuvga taklif qilgan hollarni o‘z ichiga oladi. Bunday xatti-harakatlar "gruming" deb ataladi. Ba’zi mamlakatlar qonunlariga ko‘ra, bunday qoidalar bolalarga nisbatan jalb etish, keyinchalik uchrashuvga olib boradigan amaliy harakatlar bilan cheklangan.
Terroristik harakatlarni sodir etishda sherik bo‘lish maqsadida kompyuterdan foydalanish	Terroristik jinoyatlarda sherik bo‘lish uchun kompyuter tizimidan foydalanish bilan bog‘liq harakatlar. Terroristik jinoyatlar yoki jinoyatlarni sodir etishga undash maqsadida jamoatchilik bilan muloqot qilish uchun kompyuter tizimidan foydalanishni nazarda tutadi, bunda terroristik jinoyatlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashviqotdan qat'iy nazar, bunday harakat bir yoki bir necha terrorchilik jinoyati xavfini solsa jinoyat hisoblanadi. Shuningdek, ularning foydalanish maqsadida mablag‘lar bilan ta’minlash yoki to‘plash uchun yoki terroristik jinoyatlar yoki jinoyatlar ("terrorizmni moliyalashtirish" uchun kompyuter tizimlaridan foydalanish) uchun butunlay yoki qisman foydalanish uchun mo‘ljallanganligini bilgan holda kompyuter tizimlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, u terroristik jinoyatlar yoki jinoyatlarni rejalashtirish, o‘rganish, tayyorlash yoki tashkil etish uchun kompyuter tizimlaridan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi ("terroristik jinoyatni rejalashtirish" deb nomlangan). Terroristik harakat deyilganda terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha universal huquqiy vositalarga muvofiq belgilangan yoki qurolli mojarolar holatlarida harbiy harakatlarda faol ishtirok etmayotgan fuqaro yoki boshqa shaxsga o‘lim yoki jiddiy zarar yetkazishga qaratilgan har qanday harakat tushiniladi.

BELGILAR VA QISQARTMALAR

ACL – Access Control List
ATM - Automated teller machine
BIOS - Basic Input-Output system
CBR- Case-based reasoning
CCTV –Closed Circuit Television
CGI - Common Gateway Interface
CPU - Central Processing Unit
DAS - Directly Attached Storage
DNS - Domain Name System
DOS - Denial of Service
ICMP - Internet Control Message Protocol
IP – Internet Protocol Address
ICQ - I seek you
IOS - iPhone OS
GPS - Global Positioning System
GSM - Groupe Special Mobile
FTK - Forensic Toolkit
FTP - File Transfer Protocol
HTTP – Hyper Text Transfer Protocol
HPA – Host Protocol Area
LIR - Local Internet registry
NAS - Network Attached Storage
NIC - Network Interface Card
NGI - Next Generation Internet
ODD - Optical Disk Drive
PIN - Personal Identification Number
RAID - Redundant Array of Inexpensive Disks
RICAS - Real-time Intelligence Crime Analytics System
RIR - Regional Internet Registry
RIPE - Réseaux IP Européens (Network Coordination Centre)
TLS – Transport Layer Security
TCP – Transmission Control Protocol
URL - Uniform Resource Locator
WLAN - Wireless Local Area Network

AIJ – Avtomatlashtirilgan ish joyi
AKT – Axborot kommunikatsiya texnologiyalari

AT – Axborot texnologiyalari
DT – Dasturiy ta’minot
EHM – Elektron hisoblash mashinalari
KTE – Kompyuter-texnik ekspertiza
OT – Operatsion tizim
KIS– Katta integral sxema
RSB – Raqamli suv belgilari
RK – Ruxsatsiz kirish
ShK – Shaxsiy kompyuter
SKTE – Sud kompyuter-texnik ekspertiza
SKTE – Sud kompyuter-texnik ekspertizasi
TQT – Tezkor-qidiruv tadbirlari

TERMINLAR LUG‘ATI

ACL (Access Control List) - obyektga (dasturga, jarayonga yoki faylga) kim va nima kira olishi mumkinligini va qaysi subyektga (foydalanuvchi, foydalanuvchilar guruhi) ishlashi taqiqlangan yoki taqiqlanmaganligini belgilaydigan erkin foydalanishni boshqarish ro‘yxati.

CBR (Case Based Reasonin) – pretsedentga asoslangan fikrlash - keng ma’noda ma’lum yechimlar asosida yangi muammolarni hal qilish usuli hisoblanadi.

DAS (Directly Attached Storage) - serverlarga bevosita ulangan ma’lumotlarni saqlash tizimlari.

DNS (Domain Name System), *DNS*, domen nomlari xizmati - domen nomi tizimi, shuningdek, domen nomining rezolyutsiyasini amalga oshiruvchi server tizimi (DNS-serverlar).

DOS (DenialofService) hujum - "xizmat ko‘rsatishni rad etish" ko‘rinishidagi kompyuter tarmog‘i, kompyuter yoki axborot tizimiga hujum.

EnCase - kompyuter ekspertizasining barcha bosqichlari uchun texnologiya va dasturiy ta’minot**.**

IP-adres (Internet Protocol Address) – TCP/IP protokollar to‘plamiga asoslangan kompyuter tarmog‘idagi noyob tarmoq manzili tugunlari.

FTK (Forensic Toolkit) - kompyuter ekspertizasi sohasidagi standart.

FTP (File Transfer Protocol) – fayllarni uzatish protokoli - TCP-tarmog‘ida fayllar uzatish uchun standart protokol.

Proxy server - manzilni translyatsiya qilish deb ataladigan jarayon xavfsizlik devori bilan bog‘liq IP manzilini o‘zgartirish uchun ishlatiladigan vositachi server (xavfsizlik devori).

RAID (Redundant Array of Inexpensive Disks) - ishonchsiz komponentlardan ishonchli qurilmani hosil qilish tipik injenerlik masalasini yechimi.

Rootkit - tizimda tajovuzkor yoki zararli dastur mavjudligini izini yashiruvchi dastur yoki dasturlar majmua.

TCP (Transmission Control Protocol) – uzatishni boshqarish protokoli, Internet ma’lumotlarini uzatishning asosiy protokollaridan biri, ma’lumotlar uzatilishini boshqaradi. TCP va IP protokollariga ega tarmoqlar va quyi tarmoqlarga TCP/IP tarmoqlari deyiladi.

TLS (Transport Layer Security) – internet tarmog‘ida tugunlar orasidagi ma’lumotlarni himoyalangan holda uzatishni ta’minlaydigan transport darajasi himoya protokoli.

Wireshark - tarmoq trafigi analizatori.

Whois - domen yoki uning IP- manzili kimga qayd qilinganligi haqida server mijozga ma’lumot uzatishi mumkin bo‘lgan protokol.

Himoyaning apparat vositalari - axborotni ruxsatsiz kirish, nusxalash, o‘g‘irlash yoki o‘zgartirishdan himoya qilish uchun mo‘ljallangan mexanik, elektron, optik, lazerli, radio, radar va boshqa qurilmalar, tizimlar va tuzilmalar.

Autentifikatsiya (*Authentication*) - taqdim etilgan identifikator bo‘yicha sub’ektni kirish uchun ruxsat etilganligini tekshirish; haqiqiyligini tasdiqlash; belgilangan identifikator sifatida odatda **login** va **bank (to‘lov) karta paroli,** kartochka - mijozlar tomonidan to‘lash talab qilinganda to‘lov va boshqa hujjatlarni tuzish uchun vositalar tashkil qiladi.

Autsorsing xizmatlari (*outsourcing,outer-source-usin- tashqi manba va/yoki resurslardan foydalanish*) – buyurtmachi kompaniya qator ichki xizmatlarini va/yoki ichki servislarini, shuningdek uning dasturiy mahsulotlari, ilovalari, apparat va infrastruktura qismlaridan foydalanish asosida, tasgqi pudratchiga o‘tkazish.

Billing tizimi – hisob-kitobning avtomatlashgan tizimi.

Bot (*Boot*) - avtomatik ravishda va/yoki muntazam foydalanuvchi sifatida bir xil interfeyslar orqali biron-bir amalni oldindan belgilangan jadvalga muvofiq bajaradigan maxsus dastur.

Brandmauer *(Firewall)* - tarmoqni boshqa tizim va tarmoqlardan apparat-dasturiy vositalar nazorati yordamida, xavfsizlikka tahdidlardan himoya qilish usuli/vositasi.

Brauzer (*Brawser*), veb_brauzer, internet_brauzer, veb_klient – veb_sahifa va boshqa tarmoq axborot resurslarini ko‘rish; foydalanuvchining shaxsiy kompyuterida o‘rnatilgan, tarmoq orqali web_server bilan bog‘lanish, undan ma’lumot so‘rash va undan olish (odatda HTML formatida) uchun dastur, uni veb-sahifadagi shaklda ko‘rsatadi va qayta ishlaydi.

Virmeyker - kompyuter viruslari ishlab chiqarishchi programmist.

Virtual olam (*Virtua lreality, VR*, sun’iy borliq) - insonga sezgi organlari: ko‘riish, eshitish, hid bilish, teri sezish va boshqalar orqali texnik vositalar (obyekt va subyekt) yordamida yaratilgan dunyo.Virtual borliq ta’sir o‘tkazishni va unga javobni imitatsiya qiladi.

Veb-server - bu serverda o‘rnatilgan va HTTP yoki HTTPS protokoli yordamida **veb-sayt** bilan foydalanuvchi brauzeri o‘rtasida aloqa o‘rnatadigan dastur.

Veb-sahifa - foydalanuvchiga uzatiladigan (odatda HTML tilida) axborotning brauzerdagi natijasi**.**

Veb-sayt - "o‘rgimchak, tarmoq" va *sayt* - "joy", "joy, segment, tarmoqning bir qismi" - mantiqiy jihatdan veb-sahifalar to‘plami, jumladan server kontenti joylashuvi.

Zararli dastur, *virus*, *malware* - axborotni blokirovkalash, o‘zgartirish yoki nusxalashga olib keladigan, kompyuter, kompyuter tizimi yoki ularning tarmoqlarini buzishga sabab bo‘ladigan kompyuter dasturi. Zararli dasturlar turlari: virus, qurt, troyan, mantiqiy bomba, eksploit, rutkit.

Global navigatsiya tizimi - makon va zamon ma’lumotlarini aniqlash va uni huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan qabul qilishni tashkil etish imkonini beruvchi usullar, dasturiy va apparat vositalar to‘plami.

Defeys - (*deface* - buzmoq, o‘zgartirmoq) - asosiy (yoki boshqa muhim) sahifa ikkinchisi bilan – odatda ko‘zga tashlanih holatida (reklama, ogohlantirish, xavf, internet) almashinishi olib keladigan xakerlik hujumi. Ko‘pincha, saytning qolgan qismiga kirish taqiqlanadi yoki eski sayt mazmuni to‘liq o‘chiriladi.

Domen - noyob domen nomi bilan belgilanadigan Internet domen nomlari ierarxik shajarasining qismi.

Qayta tiklash jurnali - ma’lumotlar bazasini yoki faylni tiklash qobiliyatini ta’minlaydigan jurnal. Bazadagi har qanday o‘zgarishlar haqida o‘rnatilgan vaqtidan buyongi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, ma’lumotlar ishonchliligi va zaxira nusxasi mavjudligini ko‘rsatadi.

Tergich (*Dialers*) - pullik telefon liniyalari suiste'mol qilish orqali firibgarlik turi.

Zombi tarmog‘i, botnet - yagona markazdan boshqariladigan troyan dasturi turi bilan zazarlangan kompyuterlar guruhi; odatda, bunday tarmoq tuzilmasi keraksiz boshqarish aloqalari bilan tuzilgan; spam yuborish, hujumlar uyushtirish, trafikning haqiqiy manbalarini yashirish va boshqa vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi; birdan o‘n minglab kompyuterlarga ega bo‘lishi mumkin.

Axborot tizimi - ma’lumotlar bazalarida va axborot texnologiyalarida va uni qayta ishlashni ta’minlaydigan texnik

vositalardagi ma’lumotlar to‘plami; axborot tizimi ko‘pincha "kompyuter, kompyuter tizimi, ularning tarmog‘i" deb atash mumkin.

Sun'iy intellekt - aqlli mashinalar, ayniqsa aqlli kompyuter dasturlari yaratishning ilm-fan va texnologiyasi; aqlli tizimlarning an’anaviy ravishda insonning imtiyozi deb hisoblangan ijodiy funksiyalarni amalga oshirish qobiliyati.

Insayder (*Insider*) - keng omma foydala olmaydigan axborotdan foydalanish imkoniga ega bir guruh odamlar a’zosi. Termin sir bilan bog‘liq bo‘lgan kontekstda yashirin, yoki biron-bir boshqa nodavlat ommaviy axborot yoki bilimga nisbatan ishlatiladi: insayder - faqat ushbu guruhda mavjud ma’lumotlarga ega guruh a’zosi.

Insident - ruxsatsiz kirishni ta’minlash yoki kompyuter tizimiga hujum qilish uchun qilingan urinish.

AT (Axborot texnologiyalari) - kompyuterlar, kompyuter dasturlari, kompyuter tarmoqlari bilan bog‘liq bilimlar va iqtisodiyotining sohasi; aloqa sohasi bilan chambarchas bog‘liq.

Karder - kartalar nusxalarini olish, tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun ulardan foydalanib, kartalardan ma’lumotlarni olish, ya’ni noqonuniy bank (to‘lov) kartalaridan do‘kon va bankomatlarda foydalanish bilan shug‘ullaniuvchi firbgarlik.

Karding - bank (to‘lov) kartalari katalogi bilan firibgarlik.

Kiber jinoyat - elektron sohasidagi kompyuter tizimi yoki tarmoq yordamida yoki ularga qarshi sodir etiladigan har qanday jinoyat.

Kiber jinoyatchilik - kompyuter tizimi yoki tarmog‘i orqali, shu jumladan kompyuter tizimida yoki tarmoq orqali noqonuniy egalik qilish, taklif qilish yoki tarqatish kabi jinoyatlar kabi qonunbuzar harakatlar.

Kompyuter virusi - o‘z nusxalarini yaratish imkoniga ega (original bo‘lishi shart emas) va ularni fayllar, kompyuter tizimi, kompyuter tarmoqlariga tadbiq etadigan va boshqa zararli harakatlarni bajaradigan, shu bilan birga keyinchalik tarqalish xususiyatini saqlab qoladigan dastur.

Kiberskvotting, *cybersquotting*, *skvotting*, domenni egallash - ularni keyinchalik sotish yoki nohaq foydalanish maqsadida domen nomlarini sotib olish.

Kompyuter abordaji (*haking*) - kompyuter yoki tarmoqqa huquqsiz kirish.

Kompyuter-texnik ekspertiza (KTE) – sud ekspertizasining bir turi bo‘lib, uning obyekti kompyuter texnikasi va (yoki) kompyuter ma’lumot tashish vositalari, maqsadi esa dalillarni izlash va belgilash.

Kontrafakt nusxa, *litsenziyasiz nusxa, pirat nusxa* - mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning buzilishiga olib keladigan ishlab chiqarish yoki tarqatish ishlari (dastur, fonogramma).

Kontsentrator, *tarmoq kontsentratori, hub* - 2-bosqichda ishlaydigan freymlarni tarqalishini (takrorlashni) amalga oshiruvchi tarmoq aloqa qurilmasi, kompyuterlarni kompyuter tarmog‘ining bir qismida ulash uchun ishlatiladi; kommutatordan farqli o‘laroq, har bir olingan freym bir emas, balki barcha portlarga yuboriladi; odatda, konfiguratsiya qilinmaydi va nazorat qilinmaydi.

Log, log-fayl - kompyuterning voqea jurnali; ma’lum bir axborot tizimi yoki dasturiga ta’luqli hodisalarning yozuvlari bilan fayl yoki ma’lumotlar bazasi.

Login, *foydalanuvchi nomi* – foydalanuvchining belgili identifikatori; ko‘pincha autentifikatsiya qilish uchun parol bilan birga ishlatiladi.

Mantiqiy bomba - dasturning turi (ba’zan zararli deb tan olingan), uning maqsadi o‘rnatilgan kompyuterda eng nozik ma’lumotlarni yo‘q qilishdir; oldindan aniqlangan shartlarni bajarmagan yoki amalga oshira olmaganligi sababli paydo bo‘lgan.

Marshrutizator, *router, ruter* - (odatda IP protokoli tomonidan) paketlarni marshrutlovchi 3-darajada ishlovchi vosita, turli tarmoq qatlamlariga ulash uchun ishlatiladi.

Ruxsatsiz kirish (RK) - belgilangan tartibni buzgan holda axborot tizimiga yoki kompyuter ma’lumotlariga kirish; bu atama "noqonuniy kirish" huquqiy atamasidan farqli o‘laroq, texnik hisoblanadi, lekin deyarli bir xil ma’noni anglatadi.

Yangilanish, *patch* - alohida kompyuter dasturini yoki butun axborot tizimini funksionalligini oshirish yoki noto‘g‘ri xatolar uchun yangilash uchun mo‘ljallangan o‘rnatish ko‘rsatmalariga ega dastur yoki ma’lumotlar to‘plami; mustaqil qiymatga ega emas, faqat yangilangan dastur bilan ishlatiladi; yangilanishlar, odatda, yangilanayotgan dastur ishlab chiqarilgan kompaniya tomonidan ishlab chiqariladi, lekin ba’zan boshqa shaxslar tomonidan yaratilgan yangilanishlar ham uchrab turadi.

Tezkor-qidiruv tadbirlari (TQT) – ma’lum taktik masalalarni yechishga qaratilgan o‘zaro aloqador harakatlar tizimidan iborat operativ- qidiruv faoliyatining muhim elementi.

PIN-kod - (Personal Identification Number- shaxsiy identifikatsiya nomeri) - parol analogi. Operatsiyani avtorizatsiya qilish vaqtida u karta egasining terminalga (bankomatga) kirishi uchun parol sifatida va so‘rovni raqamli imzolash uchun maxfiy kalit sifatida ishlatiladi. PIN-kod kredit va shunga o‘xshash kartalar uchun taqdim etilgan; karta egasiga ruxsat berish uchun ishlatiladi.

Dasturiy ta’minot, DT, *software*, *soft* - EHM dasturlari uchun umumlashtirilgan nom; termin dasturiy va apparat (*yumshoq* va *qattiq*) qismlarni solishtirishda qo‘llaniladi.

Kommunikatsiya protokoli, almashinuv protokoli - turli dasturlar, qurilmalar, axborot tizimlari orasidagi ma’lumotlarni almashish qoidalari to‘plami; odatda texnik standart bilan aniqlanadi; bitta protokolning ikkita dasturiga rioya qilish ularning muvofiqligi uchun zarur shartdir.

Registratorlar - Internetda IP-manzillarni ajratish va qayd qilish bilan shug‘ullanuvchi tashkilot (IP Registry).

Referer (to refer - jo‘natmoq, yo‘naltirmoq) referal dastur doirasida daromad olish maqsadida foydalanuvchilarni ma’lum internet-resurslariga yo‘naltiruvchi odam.

Tarmoq kartasi, *tarmoq platasi, NIC* (network interface card) - muayyan interfeys orqali tarmoq bilan o‘zaro ta’sirlashuv vazifalarini bajaradigan kompyuter platasi (qurilma); Tarmoq simini yoki antennani ulash uchun bir yoki bir nechta tashqi konnektorga ega.

Skimming (*skimming*) – maxsus qurilma yordamida karta ma’lumotlarini o‘g‘irlash. Buzg‘unchilar kartaning magnit chizig‘idan barcha ma’lumotlarni ko‘chirib olishadi. Skimming PIN-kodni mini-kamera yoki katakchalar yordamida topish imkonini beradi.

Sniffer yoki *trafik analizatori* (*to sniff - hidlamoq*) - tarmoq trafigini (o‘ziniki yoki birovnikini) qo‘lga olish va tahlil qilish dasturi yoki qurilmasi.

Ijtimoiy muhandislik - axborot xavfsizligi tizimini xizmat xodimlari va foydalanuvchilar bilan aloqada olingan ma’lumotlar yordamida chetlab o‘tish, xiyla va nayranglarni qo‘llash orqali ularning ishlarini chalkashtish.

Spam – electron pochta orqali nomaqbul, ommaviy jo‘natmalar, ICQ, SMS va boshqa elektron aloqa vositalarida kamroq uchraydi

Spamer - spamni yuborish yoki spam jo‘natish (manzillarni to‘plash, jo‘natish uchun dasturlarni yaratish, spam tarqatilgan

resurslarni saqlash va boshqalar) bilan shug‘ullanadigan professional shaxs.

Steganografiya - ochiq axborot massivlarida maxfiy ma’lumotlarni yashirish uchun matematik usullarni o‘rganadigan fanning sohasi.

Trafik , *tarmoq trafigi* - raqamli aloqa liniyasi orqali uzatiladigan ma’lumotlarning miqdori bit yoki baytlarda o‘lchanadi; kamroq holatlarda atama axborot oqimini anglatadi, ya’ni bir vaqtning birligiga etkazilgan ma’lumotlarning miqdori, bit/s yoki bayt/s; tarmoq orqali uzatiladigan freymlar, paketlar, datagramlarning tarkibi.

Troyan dasturi, *trojan* - yashirincha yoki niqoblanib foydalanuvchining kompyuteridagi dasturiy ta’minotiga foydalanuvchining (operatorning) manfaatlariga va xohishiga mos bo‘lmagan xatti-harakatlarni bajarish uchun ruxsatsiz o‘rnatiladigan zararli dastur turi.

Fayl (file) - disk yoki boshqa kompyuter vositalarining nomlangan maydoni; nomi, boshqa atributlari va alohida sarlavhasi hamda alohida fayl tanasiga ega; fayl tizimida axborotni saqlash birligi hisoblanadi.

Fishing (*phishing*) - onlayn firibgarlik turi, jabrlanuvchining shaxsiy ma’lumotlarini (bank kartasi, parol, shaxsiy identifikatsiya ma’lumotlari) olishga asoslangan. Bunda xuddi ishonchli tashkilotlar (bank, provayderlar, davlat organlari) tomonidan jo‘natilgan qalbaki xat va veb-saytlardan foydalanadi.

Friker - apparat-elektron qurilmalarning himoyasini yengib o‘tish bo‘yicha mutaxassis.

Haker - juda yuqori malakali kompyuter mutaxassisi; tajovuz qiluvchi kompyuter ma’lumotlariga, odatda tarmoq orqali ruxsatsiz kirishni amalga oshiradi.

Hesh , hesh-summa yoki bir tomonlama hesh funksiyasi - maxsus algoritm yordamida fayl mazmunidan hisoblanuvchi uzun sonlar qatori. Xesh summasi checksumga o‘xshaydi, biroq u bir muhim farqga ega: bu bir tomonlama funksiyadir. Ya’ni, faylni xesh funksiyasini hisoblash oson, lekin ma’lum bir hesh funksiyasiga mos faylni tanlash mumkin emas.

Gruming - bolalarni Internetdan aldash uchun tajovuzkorlarning harakatlarini belgilaydi. Bu usul metodikaning asosiy mohiyatini anglatadigan "g‘amxo‘rlik" yoki "g‘amxo‘rlik" deb tarjima qilingan inglizcha so‘zlashtiruvchi terimdan kelib chiqadi: bolaga g‘amxo‘rlik

hissi yaratish va keyingi jinoyatlarni sodir etish uchun barqaror psixologik aloqani o‘rnatish.

Raqamli suv belgisi (RSB) – multimedia fayllarining mualliflik huquqini himoyalash dasturi. Odatda raqamli suv belgilar ko‘rinmas bo‘ladi. Biroq RSB tasvir yoki videoda ko‘rinishi mumkin. Odatda bu ma’lumot muallifni identifikatsiya qiluvchi matn yoki logotip bo‘lishi mumkin.

Ekvayring - o‘ziga bank kartochkalari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar bo‘yicha savdo korxonalari (xizmatlarni) bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish va ushbu kredit tashkilotining mijozlari bo‘lmagan bank kartochkalarini egalariga naqd pul berish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshiradigan kredit tashkilotlari faoliyati.

Ekvayver- ekvayveringni amalga oshiradigan kredit tashkiloti.

Ekspert-kriminalist - jinoyat sodir etilgan joydan dalillarni to‘plash va tekshirish bo‘yicha mutaxassis.

Eksployt - kompyuter dasturi, dasturiy ta’minot kodining bir qismi yoki dasturiy zaifliklardan foydalanadigan va kompyuter tizimiga hujum qilish uchun ishlatiladigan buyruqlar ketma-ketligi.

Eskapizm - psixologik travmalar, murakkab ish faoliyati, xavfli yashash muhiti, “asabiy ishda” faoliyat yurutmaydigan insonlar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnata olmaslik tufayli kelib chiqadigan doimiy va kuchli stress sababli paydo bo‘ladigan holatlarda real olamdan qochish.

MUNDARIJA

S.Y.YUSUPOV,
SH.R.GULOMOV, N.B.NASRULLAYEV

RAQAMLI KRIMINALISTIKA

(O‘quv qo‘llanma)

Toshkent – «Aloqachi» – 2020

Muharrir:	Q.Matqurbonov
Tex. muharrir:	A.Tog‘ayev
Musavvir:	B.Esanov
Musahhiha:	F.Tog‘ayeva
Kompyuterda sahifalovchi:	B.Berdimurodov

Nashr.lits. AI №176. 11.06.11.
Bosishga ruxsat etildi: 11.12.2019. Bichimi 60x841 /16.
Shartli bosma tabog‘i 15,5. Nashr bosma tabog‘i 15,0.
Adadi 100. Buyurtma № .

«Nihol print» Ok da chop etildi.
Toshkent sh., M. Ashrafiy ko‘chasi, 99/101.